

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING FUQAROLIK KODEKSI

Birinchi qism

I BO'LIM UMUMIY QOIDALAR

1-Kichik bo'lim ASOSIY QOIDALAR

Oldingi tahrirga qarang.

1-BOB. FUQAROLIK QONUNCHILIGI

(1-bobning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

1-modda. Fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari

(1-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to'sqiniksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta'minlash zarurligiga asoslanadi.

(1-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erkligiga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'limgan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar.

(1-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'lar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo'ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, tabiatni va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo'lishini cheklash qonunchilikka muvofiq joriy etilishi mumkin.

(1-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13, 53-moddalari, mazkur Kodeksning 2 – 7-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tafbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorining 2-bandni.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlar

(2-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik qonunchiligi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining huquqiy holatini, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning, intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarning vujudga kelish asoslarini hamda ularni amalga oshirish tartibini belgilaydi, shartnoma majburiyatlari va o'zga majburiyatlarni, shuningdek boshqa mulkiy hamda u bilan bog'liq shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladi.

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo'ladilar.

Agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqarolik qonunchiligidan belgilab qo'yilgan qoidalar chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lman shaxslar hamda chet ellik yuridik shaxslar ishtirokidagi munosabatlarga qo'llaniladi.

Shaxsiy nomulkiy munosabatlar va mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lman shaxsiy munosabatlar, agar qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki bu munosabatlarning mohiyatidan o'zgacha hol anglashilmasa, fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan belgilarga javob beradigan oilaviy munosabatlarga, mehnat munosabatlariga va tabiiy resurslardan foydalanish hamda atrof muhitni muhofaza qilish munosabatlariga nisbatan fuqarolik qonunchiligi bu munosabatlar maxsus qonunlar bilan tartibga solinmaydigan hollarda qo'llaniladi.

(2-moddaning **birinchi — beshinchi qismlari** O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy bo'ysunishiga asoslangan mulkiy munosabatlarga, shu jumladan soliq, moliyaviy va boshqa ma'muriy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligi qo'llanilmaydi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

(2-moddaning **oltinchi qismi** O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 — 31-moddalari, mazkur Kodeksning 1, 3 — 7, 24 — 31-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 6 —7-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 25, 35-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksi 112-113-moddalari.

Oldingi tahrirga qarang.

3-modda. Fuqarolik qonunchiligi hujjatlari

Fuqarolik qonunchiligi ushbu Kodeksdan, ushbu Kodeks 2-moddasining **birinchi, to'rtinchi** va **beshinchi** qismlarida ko'rsatilgan munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonunlar hamda qonunchilik hujjatlaridan iborat.

Boshqa qonunlar va qonunchilik hujjatlaridagi fuqarolik qonunchiligi normalari ushbu Kodeksga mos bo'lishi shart.

Vazirliklar, idoralar va boshqa davlat organlari ushbu Kodeksda, boshqa qonunlar hamda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi hujjatlar chiqarishi mumkin.

(3-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23 — 31-moddalari, mazkur Kodeksning 1-2, 4 — 7-moddalari.

Oldingi tahrirga qarang.

4-modda. Fuqarolik qonunchiligining vaqt bo'yicha amal qilishi

Fuqarolik qonunchiligi hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Qonun u amalga kiritilgunga qadar vujudga kelgan munosabatlarga nisbatan qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina tatbiq etiladi.

Fuqarolik qonunchiligi hujjati amalga kiritilgunga qadar vujudga kelgan munosabatlar bo'yicha bu qonunchilik hujjati u amalga kiritilganidan keyin vujudga kelgan huquq va burchlarga nisbatan qo'llaniladi.

Agar shartnomada tuzilganidan keyin taraflar uchun majburiy bo'lgan, shartnomada tuzilayotgan paytdagidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan qonun qabul qilingan bo'lsa, tuzilgan shartnomaning shartlari o'z kuchini saqlab qoladi, bundan qonunning avval tuzilgan shartnomalardan kelib chiquvchi munosabatlarga tatbiq etilishi ko'rsatilgan hollar mustasno.

(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1 — 3, 5 — 7-moddalari.

Oldingi tahrirga qarang.

5-modda. Fuqarolik qonunchiligin o'xhashlik bo'yicha qo'llash

Ushbu Kodeks 2-moddasining birinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan munosabatlar qonunchilik yoki taraflarning kelishivi bilan to'g'ridan to'g'ri tartibga solinmagan hollarda fuqarolik qonunchiligin o'xhash munosabatlarni tartibga soluvchi normasi qo'llaniladi (qonun o'xhashligi).

Ko'rsatib o'tilgan hollarda qonun o'xhashligidan foydalanish mumkin bo'lmasa, taraflarning huquq va burchlari fuqarolik qonunchiligin umumiy negizlari va mazmuniga (huquq o'xhashligiga) hamda halollik, oqillik vaadolat talablariga amal qilgan holda belgilanadi.

Fuqarolik huquqlarini cheklaydigan va javobgarlik belgilaydigan normalarning o'xhashlik bo'yicha qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

(5-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1 — 4, 6 — 7-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 7-moddasasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydag'i 12-tonli "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarorining 2, 3-bandlari.

6-modda. Ish muomalasi odatlari. Mahalliy odat va an'analar

Oldingi tahrirga qarang.

Tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonunchilikda nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi.

(6-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik qonunchiligidagi tegishli normalar bo'limgan taqdirda, bu munosabatlarni tartibga solishda mahalliy odat va an'analar qo'llaniladi.

(6-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Tegishli munosabat ishtirokchilari uchun majburiy bo'lgan qonunchilik normalariga yoki shartnomaga zid bo'lgan ish muomalasi odatlari, mahalliy odat va an'analar qo'llanilmaydi.

(6-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1 — 5, 7-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi 12-sonli "Sudning hal qiluv qarori haqida"gi qarorining 2, 3-bandlari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 14-moddasii ikkinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

7-modda. Fuqarolik qonunchiligi va xalqaro shartnomalar hamda bitimlar

Agar xalqaro shartnomada yoki bitimda fuqarolik qonunchiligidagi qaraganda boshqacha qoidalari belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomada yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

(7-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 23-moddasasi, mazkur Kodeksning 1 — 6-moddalari, 70-bobi (1158 — 1167-moddalari).

2-BOB.

FUQAROLIK HUQUQ VA BURChLARINING VUJUDGA KELISHI. FUQAROLIK HUQUQLARINI AMALGA OShIRISH VA HIMOYA QILISH

8-modda. Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asoslari

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik huquq va burchlari qonunchilikda nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek fuqarolar hamda yuridik shaxslarning, garchi qonunchilikda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin fuqarolik qonunchiligining umumiy negizlari va mazmuniga ko'ra fuqarolik huquq hamda burchlarni keltirib chiqaradigan harakatlaridan vujudga keladi.

(8-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fuqarolik huquq va burchlari quyidagilardan vujudga keladi:

1) qonunda nazarda tutilgan shartnomalar va boshqa bitimlardan, shuningdek garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, lekin unga zid bo'limgan shartnomalar va boshqa bitimlardan;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353 — 355, 357, 364 — 366-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Pelnumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tattiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorining 1-2-bandlari.

2) qonunda fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining asosi sifatida nazarda tutilgan davlat organlarining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hujjatlaridan;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 12, 15, 78, 206-moddalari.

3) sudning fuqarolik huquq va burchlarini belgilagan qaroridan;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9 — 11-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 249 — 251, 257 — 259-moddalari.

4) qonun yo'1 qo'yadigan asoslarda mol-mulk olish natijasida;

5) fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ixtiolar va boshqa intellektual faoliyat natijasida;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 182, 1041 — 1048, 1056-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasi.

6) boshqa shaxsga zarar yetkazish natijasida;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 57-bobi (985 — 1004-moddalar).

7) asossiz boyib ketish natijasida;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 58-bobi (1023 — 1030-moddalar), O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 339—moddasi.

8) fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa harakatlari natijasida;

Oldingi tahrirga qarang.

9) qonunchilik fuqarolik-huquqiy oqibatlarning kelib chiqishi bilan bog'laydigan hodisalar natijasida.

*(8-modda ikkinchi qismining 9-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni **Qonuni tahririda** — **Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi**, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan mol-mulkka bo'lgan huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, unga bo'lgan tegishli huquqlar ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84, 111, 185, 210, 481-moddalari.

9-modda. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish

Fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli bo'lgan fuqarolik huquqlarini, shu jumladan ularni himoya qilish huquqini ham o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etadilar.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini amalga oshirishdan voz kechishi bu huquqlarning bekor qilinishiga olib kelmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart. Fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi nazarda tutiladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar o‘z huquqlarini amalga oshirishda jamiyatning ma’naviy tamoyillari va axloqiy normalarini hurmat qilishlari, tadbirkorlar esa — ish odobi qoidalariga ham rioya etishlari kerak.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa shaxsga zarar yetkazishga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste’mol qilishga, shuningdek huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu moddaning **uchinchi**, **to‘rtinchi** va **beshinchi** qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya qilinmagan taqdirda, sud shaxsga qarashli huquqni himoya qilishni rad etishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13, 20-moddalari, mazkur Kodeksning 8, 10 — 13, 17, 22, 41-moddalari.

10-modda. Fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilish

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik huquqlari protsessual qonunchilik yoki shartnomada belgilab qo‘yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo‘lishiga qarab, sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi (bundan keyin — sud) tomonidan himoya qilinadi.

(10-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 29-moddasi.

Qonunda nazarda tutilgan hollardagina fuqarolik huquqlari ma’muriy tartibda himoya qilinadi. Ma’muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasi, mazkur Kodeksning 9, 11 — 15-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 3, 4, 26, 27-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksining 25 — 31-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 16.10.2006-yildagi “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9, 11-moddalari.

11-modda. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari

Fuqarolik huquqlari quyidagi yo‘llar bilan himoya qilinadi:
huquqni tan olish;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 10-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 19.11.2010-yildagi “Mulk huquqini tan olishga oid ishlarni ko‘rishda iqtisodiy sudlar tomonidan qonun hujjatlari qo‘llanilishining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 4-bandi.

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 113, 114, 120, 121-moddalari, Uy-joy kodeksining 114-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi "Iqtisidiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 3, 5 — 7, 11, 12, 29, 31, 32-bandlari.

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 10, 12, 15, 78-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 27, 184 — 189-moddalari.

shaxsning o'z huquqini o'zi himoya qilishi;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 13-moddalari.

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 10, 12, 734-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 258-moddasi.

zararni to'lash;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14-moddasi, 117-moddasi ikkinchi qismi, 122-moddasi to'rtinchi qismi, 163-moddasi, 256-moddasi ikkinchi qismi, 385-moddasi to'rtinchi qismi, 721-moddasi oltinchi qismi, 766-moddasi, 892, 985, 993, 998, 999, 1003, 1009, 1012, 1026, 1107-moddalari.

neustoyka undirish;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 162, 260 — 263, 325 — 326, 330, 436, 454-moddalari, 720-moddasi birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 99-moddasi oltinchi qismi, 104-moddasi.

ma'naviy ziyonni qoplash;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1021 — 1022-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 112-moddasi, 187-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 28.04.2000-yildagi "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori.

huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o'zgartirish;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 455-moddasi, 495-moddasi beshinchi qismi.

davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo'llamasligi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 10, 12, 15, 78-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 27, 184 — 189-moddalari.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin.

12-modda. Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat organining yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining qonunchilikka muvofiq bo'limgan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjati sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

(12-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Sud hujjatni haqiqiy emas deb topgan taqdirda, buzilgan huquq ushbu Kodeksning 11-moddasida nazarda tutilgan usullarda himoya qilinishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 10, 11, 15, 78-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 27, 184 — 189-moddalari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

13-modda. Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilishi

Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilishiga yo'l qo'yiladi.

Fuqarolik huquqlarini shaxsning o'zi himoya qilish usullari huquqni buzishga mutanosib bo'lishi hamda huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasidan chiqib ketmasligi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9 — 11-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 24.09.2012-yildagi "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuning 8, 10-moddalari.

14-modda. Zararni qoplash

Agar qonun yoki shartnomada zararni kamroq miqdorda to'lash nazarda tutilmagan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs o'ziga yetkazilgan zararning to'la qoplanishini talab qilishi mumkin.

Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lган xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lган, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo'lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo'limgan miqdorda to'lanishini talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 11-moddasi, 117-moddasi ikkinchi qismi, 122-moddasi to'rtinchchi qismi, 163-moddasi, 256-moddasi ikkinchi qismi, 385-moddasi to'rtinchchi qismi, 721-moddasi oltinchchi qismi, 766, 892, 985, 993, 998, 999, 1003, 1009, 1012, 1026, 1107-moddalari, O'zbekiston Respublikasining

24.12.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasi uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

15-modda. Davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan yetkazilgan zararni to‘lash

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan qonunchilikka muvofiq bo‘lmagan hujjat qabul qilinishi, shuningdek ular mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararning o‘rnii davlat tomonidan yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan qoplanishi lozim. Bunday zararning o‘rnii davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

(15-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

O‘zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasi ikkinchi qismi.

Davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi bekor qilingan, ularning mablag‘lari yetishmagan yoxud davlat organining budjetdan tashqari mablag‘lari yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining mablag‘lari bo‘lmagan taqdirda fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararning o‘rnii O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Zarar qaysi davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining aybi bilan yetkazilgan bo‘lsa, sudning qarori bilan zararning o‘rnini qoplash ushbu organlar mansabdor shaxslarining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

(15-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 22-yanvardagi O‘RQ-603-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 9, 10, 11, 12, 78-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi Kodeksining 27, 184 — 189-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi 24.09.2012-yildagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasi.

2-kichik bo‘lim ShAXSLAR

3-BOB FUQAROLAR (JISMONIY SHAXSLAR)

16-modda. Fuqaro (jismoniy shaxs) tushunchasi

Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tushuniladi.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, ushbu Kodeksning qoidalari barcha fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8, 23-moddalari, mazkur Kodeksning 17, 1168, 1169-moddalari.

17-modda. Fuqarolarning huquq layoqati

Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi.

Fuqaroning huquq layoqati u tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 18, 41, 1169 va 1176-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 41-moddasi.

18-modda. Fuqarolar huquq layoqatining mazmuni

Fuqarolar:

mulk huquqi asosida mol-mulkka ega bo‘lishlari; mol-mulkni meros qilib olishlari va vasiyat qilib qoldirishlari; bankda jamg‘armalarga ega bo‘lishlari; tadbirkorlik, dehqon (fermer) xo‘jaligi bilan hamda qonunda taqiqlab qo‘yilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishlari; yollanma mehnatdan foydalanishlari; yuridik shaxslar tashkil etishlari; bitimlar tuzishlari va majburiyatlarda ishtirok etishlari; yetkazilgan zararning to‘lanishini talab qilishlari; mashg‘ulot turini va yashash joyini tanlashlari; fan, adabiyot va san’at asarlarining, ixtironing, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa intellektual faoliyat natijalarining muallifi huquqiga ega bo‘lishlari mumkin.

Fuqarolar boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 — 42-moddalari, mazkur Kodeksning 17, 99, 164, 1033 va 1051-moddalari.

19-modda. Fuqaroning ismi

Agar qonundan yoki milliy odatdan boshqacha tartib kelib chiqmasa, fuqaro o‘z familiyasi va nomidan, shuningdek otasining ismi bilan huquq va burchlarga ega bo‘ladi hamda ularni amalga oshiradi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda fuqaro taxallusdan (to‘qilgan ismdan) foydalanishi mumkin.

Fuqaro qonunda belgilangan tartibda o‘z ismini o‘zgartirishga haqli. Fuqaroning o‘z ismini o‘zgartirishi avvalgi ismi bilan olgan huquq va burchlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun asos bo‘lmaydi.

Fuqaro o‘z ismini o‘zgartirganligi haqida qarzdorlari va kreditorlariga xabar berish uchun zarur choralarini ko‘rishi shart va u mazkur shaxslarda fuqaroning ismi o‘zgarganligi haqida ma’lumot yo‘qligi tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan oqibatlar xavfini o‘z zimmasiga oladi.

Ismini o‘zgartirgan fuqaro o‘zining avvalgi ismiga rasmiylashtirilgan hujjatlarga o‘z hisobidan tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini talab qilishga haqli.

Fuqaro tug‘ilgan vaqtida olgan ismini, shuningdek o‘zgartirilgan ismini fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish uchun belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi kerak.

Boshqa shaxs ismidan foydalaniib huquq va burchlarga ega bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 17, 18, 20, 99, 1171-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 69, 70-moddalari.

20-modda. Ismni himoya qilish

O'z ismi bilan yashash huquqiga e'tiroz bildirilayotgan yoki ismidan qonunsiz foydalanilayotganligi munosabati bilan manfaatlari buzilayotgan shaxs manfaatlarini buzuvchidan bunday harakatlarga chek qo'yishni va raddiya berishni talab qilishi mumkin. Agar manfaatlar qasddan buzilayotgan bo'lsa, jabrlangan shaxs qo'shimcha suratda zararni qoplashni talab qilishi mumkin. Zararni qoplash uchun manfaatni buzgan shaxsning daromadini berish talab qilinishi mumkin. Manfaat qasddan buzilganida jabrlanuvchi ma'naviy ziyonning qoplanishini ham talab qilish huquqiga ega.

Ism yoki shaxsiy sha'n egasi bo'lмаган, lekin oilaviy mavqeyiga ko'ra bundan manfaatdor bo'лган shaxs ham ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan harakatlarga chek qo'yish yoki raddiya berish haqidagi talablarni qo'yishi mumkin. Bu shaxs boshqa shaxsning o'limidan keyin ham uning ismini va sha'nini himoya qilishga qaratilgan talablarning bajarilishiga harakat qilishi mumkin. Ismni va sha'nni buzish tufayli keltirilgan zararni qoplash talabi o'limdan keyin tan olinmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 17 — 19, 99-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 69, 70-moddalari.

21-modda. Fuqaroning yashash joyi

Fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi.

O'n to'rt yoshga to'lмаган voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdag'i bolalar) yoki vasiylikda bo'лган fuqarolarning qonuniy vakillari — ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'лган fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27, 28-moddalari, mazkur Kodeksning 18, 33-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 164-moddasi.

22-modda. Fuqaroning muomala layoqati

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Voyaga yetgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqt dan e'tiboran to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'ladi.

Nikoh tuzish natijasida ega bo'линган muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmashdan turib nikoh bekor qilingan taqdirda ham to'la saqlanib qoladi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilganida sud voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to'la muomala layoqatini yo'qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 16, 17-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 42-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 39-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 15-moddasi ikkinchi qismi.

23-modda. Fuqaroning huquq layoqati va muomala layoqatini cheklashga yo'l qo'yilmasligi

Qonunda belgilangan hollar va tartibdan tashqari, hech kimning huquq va muomala layoqati cheklanishi mumkin emas.

Fuqarolarning muomala layoqatini cheklashning qonunda belgilab qo'yilgan shartlari va tartibiga rioya qilmaslik davlat organining tegishli cheklashni belgilaydigan hujjati haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi.

Fuqaroning huquq layoqatidan yoki muomala layoqatidan to'la yoki qisman voz kechishi va huquq layoqati yoki muomala layoqatini cheklashga qaratilgan boshqa bitimlar o'z-o'zidan haqiqiy emasdir, bunday bitimlarga qonun tomonidan yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 17, 18, 22, 997, 1169-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 42, 310 — 316-moddalari.

24-modda. Fuqaroning tadbirkorlik faoliyati

Fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidir.

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolarning yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan, agar qonunchilikdan yoki huquqiy munosabat mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, ushbu Kodeksning qoidalari qo'llaniladi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxs tashkil etmasdan ushbu moddaning **birinchi qismi** talablarini buzgan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqaro tuzgan bitimlar xususida o'zining tadbirkor emasligini vaj qilib ko'rsatishga haqli emas. Sud bunday bitimlarga ushbu Kodeksning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq majburiyatlar to'g'risidagi qoidalarini qo'llashi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 26-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 25.05.2000-yildagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 5, 6, 22, 26-moddalari.

25-modda. Fuqaroning mulkiy javobgarligi

Fuqaro o'z majburiyatları yuzasidan o'ziga qarashli butun mol-mulki bilan javob beradi, qonunga muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo'limgan mol-mulk bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 27-moddasi yettinchi xatboshisi, 29-moddasi oltinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasining 26.04.1996-yildagi "Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 20-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yildagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjalari qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarori.

Oldingi tahrirga qarang.

26-modda. Yakka tartibdagi tadbirkorning va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxslarning bankrot bo‘lishi

Yakka tartibdagi tadbirkor kreditorlarning o‘z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lgan talablarini qanoatlantirishga qodir bo‘lmasa, belgilangan tartibda bankrot deb topilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga qodir bo‘lmasa, agar tegishli talablar uning ilgarigi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo‘lsa, belgilangan tartibda bankrot deb topilishi mumkin.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismlarida** ko‘rsatilgan shaxsni bankrot deb topish taomillarini amalga oshirishda uning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatları bo‘yicha kreditorları ham o‘z talablarini qo‘yishga haqli. Mazkur kreditorlarning ular tomonidan shunday tartibda qo‘yilmagan talablari bankrot deb topish taomili tugallanganidan keyin ham o‘z kuchini saqlab qoladi.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismlarida** ko‘rsatilgan shaxs bankrot deb topilgan taqdirda, uning kreditorlarining talablari ushbu Kodeksning **56-moddasida** nazarda tutilgan tartibda qanoatlantiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu moddaning **birinchi** yoki **ikkinchi qismlarida** ko‘rsatilgan shaxsni sud tomonidan bankrot deb topishning yoki uning o‘zini bankrot deb e’lon qilishining asoslari va tartibi qonunchilikda belgilanadi.

(*26-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

27-modda. O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar, ushbu moddaning **ikkinchi qismida** sanab o‘tilganlardan tashqari, bitimlarni o‘z ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Bunday voyaga yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim keyinchalik shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchilar yoki homysi yozma ravishda ma’qullaganidan so‘ng, u ham haqiqiy hisoblanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining roziligesiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

- 1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;
- 2) fan, adabiyot yoki san’at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;
- 4) ushbu Kodeks 29-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi** qismlariga muvofiq o‘zlari tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladilar. Bunday voyaga yetmaganlar o‘zlari yetkazgan zarar uchun ushbu Kodeksga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Etarli asoslar mavjud bo‘lganida sud ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki homiyning yoxud vasiylik va homiylilik organining iltimosnomasiga muvofiq o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganning o‘z ish haqi, stipendiyasi yoki boshqa daromadlarini

mustaqil tasarruf etish huquqini cheklab qo‘yishi yoki bu huquqdan mahrum qilishi mumkin, bunday voyaga yetmagan shaxs ushbu Kodeks 22-moddasining **ikkinchi qismiga** yoki **28-moddasiga** muvofiq to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘lgan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 22, 28, 29, 117, 118, 993, 994-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 324 — 326-moddalari.

28-modda. Emansipatsiya

O‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligidagi binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsni to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ota-onsa, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilingan voyaga yetmaganning majburiyatlar bo‘yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 22, 27, 29, 42-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 324 — 326-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi birinchi qisminingo ‘n beshinchi xatboshisi.

29-modda. O‘n to‘rt yoshga to‘limgan voyaga yetmaganlarning muomalala layoqati

O‘n to‘rt yoshga to‘limgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagagi bolalar) uchun bitimlarni, ushbu moddaning **ikkinchi qismida** ko‘rsatilganlardan tashqari, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishi mumkin.

Olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagagi bolalar quydagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqidirlar:

1) mayda maishiy bitimlar;

2) tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Kichik yoshdagagi bolaning bitimlari bo‘yicha, shu jumladan o‘zi mustaqil tuzgan bitimlar bo‘yicha uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiyi, agar ular majburiyatning buzilishida o‘zlarining ayblari yo‘qligini isbotlay olmasalar, mulkiy javobgar bo‘ladilar. Ushbu shaxslar qonunga muvofiq kichik yoshdagagi bolalar yetkazgan zarar uchun ham javobgar bo‘ladilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 21, 27, 28, 117-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 173-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi.

30-modda. Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish

Oldingi tahrirga qarang.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonunchilikda belgilab qo‘yilgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

(30-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uni vasiyi amalga oshiradi.

Fuqaroning muomalaga layoqatsiz deb topilishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uni muomalaga layoqatli deb topadi va unga belgilangan vasiylikni bekor qiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasasi to‘rtinchchi qismi, mazkur Kodeksning 32, 119, 996-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 34-moddasasi birinchi qismi, 42-moddasasi beshinchi qismi, 66-moddasasi birinchi qismi, 310 — 316-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 16-moddasasi to‘rtinchchi xatboshsisi, 37-moddasasi ikkinchi qismi, 43-moddasasi birinchi qismining birinchi, uchinchi xatboshilari, 173-moddasasi, O‘zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasasi, 32-moddasasi birinchi qismining birinchi, o‘n ikkinchi xatboshilari.

31-modda. Fuqaroning muomala layoqatini cheklash

Oldingi tahrirga qarang.

Spirthi ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste’mol qilish natijasida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonunchiligida belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin. Unga homiylik belgilanadi. Bunday fuqaro mayda maishiy bitimlarni mustaqil tuzish huquqiga ega. U boshqa bitimlarni homiyning roziligi bilangina tuzishi, shuningdek ish haqi, pensiya va boshqa daromadlar olishi hamda ularni tasarruf etishi mumkin. Biroq bunday fuqaro o‘zi tuzgan bitimlar bo‘yicha va yetkazgan zarari uchun mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladi.

(31-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Fuqaroning muomala layoqati cheklanishiga sabab bo‘lgan asoslar bekor bo‘lsa, sud uning muomala layoqatini cheklashni bekor qiladi. Fuqaroga belgilangan homiylik sud qarori asosida bekor qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 23, 32, 997, 1174-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 42-moddasasi ikkinchi qismi, 66-moddasasi birinchi qismi, 310, 311, 313 — 315-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasasi, 32-moddasasi birinchi qismining birinchi, o‘n ikkinchi xatboshilari.

32-modda. Vasiylik va homiylik

Oldingi tahrirga qarang.

Vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lmagan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik ularni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi. Vasiylar va homiylarning bunga tegishli huquq va burchlari qonunchilik bilan belgilanadi.

(32-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Vasiylar va homiylar o‘z himoyalardagi shaxslarning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan, sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik ularning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari bo‘lman, ota-onasi sud tomonidan ota-onalik huquqlaridan mahrum qilingan taqdirda, shuningdek bunday fuqarolar boshqa sabablarga ko‘ra ota-ona himoyasidan mahrum bo‘lib qolgan, xususan, ota-ona ularni tarbiyalashdan yoxud ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlagan hollarda belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 34, 1174-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 302, 306-moddalari, 310-moddasi birinchi qismi, 313-moddasi, 324-moddasi ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 11, 51, 52, 67-moddalari, 72-moddasi ikkinchi qismi, 81-moddasi beshinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 07.01.2008-yildagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, 11-moddasi ikkinchi, oltinchi qismlari, 13-moddasi ikkinchi qismi.

33-modda. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish

Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin.

Yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan kunni aniqlash mumkin bo‘lmasa, bedarak yo‘qolgan deb hisoblash muddati yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan, bu oyni belgilash mumkin bo‘lman taqdirda esa — keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 34 — 36, 1170-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 34-moddasi o‘n birinchi qismi, 305 — 308-moddalari.

34-modda. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish oqibatlari

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to‘g‘risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi.

Ushbu mol-mulkdan bedarak yo‘qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo‘lgan fuqarolarga ta’midot beriladi va uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo‘yicha qarzlari to‘lanadi.

Vasiylik va homiylik organi yo‘qolgan fuqaroning qayerdaligi to‘g‘risida ma’lumot olingan kundan boshlab bir yil o‘tganga qadar ham uning mol-mulkini muhofaza qiluvchi shaxsni belgilashi mumkin.

Shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topishning ushbu moddada nazarda tutilmagan oqibatlari qonun bilan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 141-moddasi 6, 7-bandlari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 66-moddasi ikkinchi, beshinchi qismlari, 309-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 43-moddasi birinchi qismining birinchi, ikkinchi xatboshilar, 160-moddasi birinchi, to‘rtinchi xatboshilar, 219-moddasi birinchi, ikkinchi xatboshilar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 13.11.1992-yildagi “Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo‘llanishi haqida”gi 5a-sonli qarorining 11-bandi.

35-modda. Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorning bekor qilinishi

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda, sud uni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorni bekor qiladi. Sudning qarori asosida fuqaroning mol-mulkini boshqarish bekor qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 33, 34-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 309-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 48-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi Qonunining 35-moddasi.

36-modda. Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish

Agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma’lumot bo‘lmasa, basharti u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud uni vafot etgan deb e’lon qilishi mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa fuqaro harbiy harakatlar tamom bo‘lgan kundan e’tiboran kamida ikki yil o‘tgandan keyin sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi mumkin.

Sudning fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan kun vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning o‘lgan kuni deb hisoblanadi. O‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan fuqaro vafot etgan deb e’lon qilingan taqdirda, sud uning taxmin qilingan halokat kunini ushbu fuqaroning o‘lgan kuni deb topishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish bunday fuqaroning huquq va burchlari borasida uning o‘limi olib kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni vujudga keltiradi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 37, 848, 1170-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 66-moddasi uchinchi qismi, 305 — 308-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 223-moddasi ikkinchi qismi.

37-modda. Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibatlari

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma’lum bo‘lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin u har qanday shaxsdan bu shaxsga bepul o‘tib qolgan mavjud mol-mulkini o‘ziga qaytarib berishni uch yil mobaynida sud orqali talab qilishga haqli, ushbu Kodeksning 229-moddasi **ikkinchi** va **to‘rtinchi** qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Agar vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulki uning vorislari tomonidan uchinchi shaxslarga sotilgan bo‘lib, bu shaxslar xarid narxini fuqaro qaytib kelgan paytgacha batamom to‘lamagan bo‘lsalar, bu holda to‘lanmagan summani talab qilish huquqi qaytib kelgan fuqaroga o‘tadi.

Vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning mol-mulkini haq to‘lashni nazarda tutadigan bitimlar asosida olgan shaxslar mol-mulkni vafot etgan deb e’lon qilingan fuqaroning tirikligini bila turib sotib olganliklari isbotlansa, ular fuqaroga bu mol-mulkni qaytarib berishlari shart. Bunday mol-mulkni asli holida qaytarib berishning imkon bo‘lmasa, uning qiymati to‘lanadi.

Agar vafot etgan deb e'lon qilingan shaxsning mol-mulki meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan va sotib yuborilgan bo'lsa, fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror bekor qilinganidan keyin unga mol-mulkni sotishdan tushgan pul qaytarib beriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 36, 99, 1009-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 309-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 37, 48-moddalari, 160-moddasi bиринчи, то'ртинчи xatboshilari, O'zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasi.

38-modda. Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish

Oldingi tahrirga qarang.

Quyidagi fuqarolik holati hujjatlari davlat tomonidan qayd etilishi kerak:

- 1) tug'ilish;
- 2) o'lim;
- 3) nikoh tuzilganligi;
- 4) nikohdan ajralish.

(38-moddaning bиринчи qismi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 729-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 20-modda)

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish fuqarolik holati hujjatlarini yozish organlari tomonidan fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish daftariga (hujjatlar daftariga) tegishli yozuvlarni kiritish hamda shu yozuvlar asosida fuqarolarga guvohnomalar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, jinsning o'zgartirilishi kabi voqeа va faktlar ushbu moddaning **bиринчи qismida** nazarda tutilgan fuqarolik holati hujjatlarida ularga tegishli o'zgartishlar kiritish yo'li bilan ifodalanadi.

(38-modda O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 729-I-son Qonuniga muvofiq uchinchini qism bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 20-modda)

Fuqarolik holati hujjatlari yozuvlarini tuzatish va o'zgartirish yetarli asoslar bo'lsa hamda manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lmasa, fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lsa yoki fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi yozuvni tuzatish yoki o'zgartirishni rad etsa, nizo sud tomonidan hal qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik holati hujjatlari yozuvlarini bekor qilish va tiklash fuqarolik holati hujjatlarini yozish organi tomonidan, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'lsa yoki fuqarolik holati hujjatlaridagi yozuvlarda jiddiy tafovutlar bo'lsa — sud qarori asosida amalga oshiriladi.

(38-moddaning оltинчи qismi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 729-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 20-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik holati hujjatlarini qayd etuvchi organlar, bu hujjatlarni qayd etish tartibi, fuqarolik holati hujjatlari yozuvlarini o'zgartirish, tiklash va bekor qilish tartibi, hujjat daftarlari va guvohnomalarning shakllari, shuningdek hujjatlar daftarlarini saqlash tartibi va muddatlarini belgilovchi organlar qonunchilik bilan belgilanadi.

(38-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1172, 1173-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 13, 18, 38, 42, 43, 47, 48, 201 — 232-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 297-moddasi ikkinchi qismi, 308, 309-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 14.04.1999-yildagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2018-yildagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3785-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 14.11.2016-yildagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 387-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 13.11.1992-yildagi "Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlaridagi xatoliklarni belgilashni tartibga soluvchi qonunchilikni sudlar tomonidan qo'llanishi haqida"gi 5a-sonli qarori.

4-BOB
YuRIDIK ShAXSLAR
1-§. Umumiy qoidalar

39-modda. Yuridik shaxs tushunchasi

O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1, 2, 9, 39 — 57, 77, 80, 125, 138, 352, 848, 1015, 1175, 1176-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 34-moddasi oltinchi qismi, 67-moddasi birinchi qismi, ikkinchi qismi 3-bandi, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 25, 30-moddalari.

40-modda. Yuridik shaxslarning turlari

Foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs xo‘jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

(40-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

(40-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tijoratchi bo‘lmagan tashkilot o‘zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlar)ga va boshqa birlashmalarga Qonunga muvofiq birlashishlari mumkin.

(40-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi 175-II-son Qonuni tahririda— Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 1-2-son, 23-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxs ushbu Kodeks, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek ustav va boshqa ta'sis hujjatlari asosida ish olib boradi.

(40-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

41-modda. Yuridik shaxsning huquq layoqati

Yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi (ushbu Kodeks 44-moddasining **to'rtinchi qismi**) va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi (ushbu Kodeks 55-moddasining **o'ninchi qismi**).

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonunchilik bilan belgilanadi.

(41-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxs qonun hujjatida ro'yxati belgilab qo'yilgan ayrim faoliyat turlari bilan faqat maxsus ruxsatnama (litsenziya) asosidagina shugullanishi mumkin.

(41-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxsning huquqlari qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina cheklanishi mumkin. Yuridik shaxsning huquqlarini cheklash haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 125, 1176-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 41-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 26.12.1996-yildagi "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 33-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 35-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 269-soni qarorining 16-bandni.

42-modda. Yuridik shaxslarning vujudga kelishi

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi.

(42-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Mulkdorlar, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi subyektlari yoxud ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 43-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 06.12.2001-yildagi "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 10 — 13-

moddalari, O'zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yildagi "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonunining 9 — 11-moddalari.

43-modda. Yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari

Yuridik shaxs ustav asosida yoki ta'sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta'sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo'limgan yuridik shaxs shu turdag'i tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin.

Yuridik shaxsning ta'sis shartnomasi uning muassislari tomonidan tuziladi, ustavi esa — tasdiqlanadi.

Ushbu Kodeksga muvofiq bir muassis tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxs shu muassis tasdiqlagan ustav asosida ish olib boradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsning ustavi va boshqa ta'sis hujjatlarida yuridik shaxsning nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili), yuridik shaxs faoliyatini boshqarish tartibi belgilab qo'yilishi, shuningdek ularda tegishli turdag'i yuridik shaxslar to'g'risida qonunda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar bo'lishi kerak. Tijoratchi bo'limgan tashkilotlar va unitar korxonalarining, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham ta'sis hujjatlarida yuridik shaxs faoliyatining sohasi va maqsadlari belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak.

(43-moddaning to'rtinch'i qismi O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgust 832-I-soni Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)

Ta'sis shartnomasida taraflar (muassislar) yuridik shaxs tashkil etish majburiyatini oladilar, uni tashkil etish sohasida birgalikda faoliyat ko'rsatish tartibini, unga o'z mol-mulklarini berish hamda uning faoliyatida ishtirok etish shartlarini belgilaydilar. Shartnomada foyda va zararlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash, yuridik shaxs faoliyatini boshqarish, muassislarning uning tarkibidan chiqish shartlari va tartibi ham belgilab qo'yiladi. Ta'sis shartnomasiga muassislarning kelishuviga muvofiq boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Ta'sis hujjatlaridagi o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan hollarda esa — davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ ana shunday o'zgartishlar haqida xabardor qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga ega bo'ladi. Yuridik shaxslar va ularning muassislari mazkur o'zgartishlarni hisobga olib ish yuritgan uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda ana shunday o'zgartishlar ro'yxatga olinmaganligini vaj qilib ko'rsatishga haqli emaslar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39 — 42, 44-moddasi oltiinch'i qismi, 1098-moddaikkinch'i qismi, O'zbekiston Respublikasining 06.12.2001-yildagi "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 10 — 13-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yildagi "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonunining 8 — 11-moddalari.

44-modda. Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritiladi.

(44-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsn ni tashkil etishning qonunda belgilab qo‘yilgan tartibini buzish yoki uning ta’sis hujjatlari qonunga mos kelmasligi yuridik shaxsn ni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning rad etilishiga sabab bo‘ladi. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning xabardor qilish tartibi belgilangan yuridik shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Yuridik shaxsn ni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan uni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

(44-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazish muddatini buzish ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Yuridik shaxs davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

Yuridik shaxs qonunda belgilangan hollardagina qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39 — 43, 44-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 06.12.2001-yildagi “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 14, 49-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003-yildagi “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddalari.

45-modda. Yuridik shaxsning organlari

Oldingi tahririga qarang.

Yuridik shaxs qonunchilikka va ta’sis hujjatlariga muvofiq ish olib boradigan o‘z organlari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo‘ladi va o‘z zimmasiga fuqarolik burchlarini oladi. Yuridik shaxs organlarini tayinlash yoki saylash tartibi qonunchilik va ta’sis hujjatlari bilan belgilanadi.

(45-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 7-bobi, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning IV bobi, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 18, 29-moddalari, “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonunning III bobi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning (Yangi tahriri) 4-moddasi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxs o‘z ishtirokchilari orqali fuqarolik huquqlariga ega bo‘lishi va fuqarolik burchlarini o‘z zimmasiga olishi mumkin.

Qonunga yoki yuridik shaxsning ta’sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o‘zi vakili bo‘lgan yuridik shaxs manfaatlari yo‘lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. U yuridik shaxs muassisulari (ishtirokchilari, a’zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yuridik shaxsga yetkazgan zararini to‘lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 81-moddasi, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 42-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalarini to‘g‘risida”gi nizomning 20-bandi.

46-modda. Yuridik shaxsning nomi va joylashgan eri

Yuridik shaxs o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradigan nomiga ega bo‘ladi. Tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlar, unitar korxonalarining nomlari, qonunda nazarda tutilgan hollarda

esa — boshqa tijoratchi tashkilotlarning ham nomlari yuridik shaxs faoliyatining xususiyatini ko‘rsatishi kerak.

Yuridik shaxsning nomiga to‘la yoki qisqartirilgan rasmiy nomni (davlatning nomini) kiritishga, yuridik shaxs hujjatlarining rekvizitlariga yoki reklama materiallariga ana shunday nomni yoxud davlat ramzları elementlarini qo‘shishga O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda yo‘l qo‘yiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-oktabrdagi 286-sonli “Yuridik shaxslarning nomlari va ramzlarida davlatning rasmiy nomidan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

Yuridik shaxsning joylashgan eri, agar qonunga muvofiq yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, u davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy bilan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘sishimcha mas‘uliyatlari jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonun 6-moddasining oltinchi qismi, “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun 3-moddasining sakkizinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxs o‘zi bilan bo‘ladigan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga ega bo‘lishi lozim hamda o‘zining pochta manzili o‘zgarganligi to‘g‘risida vakolatli davlat organlarini xabardor etishi shart.

(46-modda O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgust 832-I-sonli Qonuni bilan to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 176²-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsning nomi va joylashgan eri (pochta manzili) uning ta’sis hujjatlarida ko‘rsatiladi.

(46-modda beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgust 832-I-sonli Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 229-modda)

Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs o‘z firma nomiga ega bo‘lishi lozim.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 65-bobining 1-paragrifi, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasi, “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun 3-moddasining beshinchi qismi, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonun 8-moddasining uchinchi qismi, 28-moddasining beshinchi qismi, “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘sishimcha mas‘uliyatlari jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi, “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi.

Yuridik shaxs o‘z firmasining nomidan foydalanish mutlaq huquqiga egadir.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 65-bobi 1-paragrifi, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 33-moddasi.

O‘zga firma nomidan g‘ayriqonuniy suratda foydalanayotgan shaxs firma nomiga egalik qilish huquqi bo‘lgan shaxsning talabi bilan undan foydalanishni to‘xtatishi hamda yetkazilgan zararlarni to‘lashi lozim.



LexUZ sharhi

Qarang: “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

47-modda. Vakolatxonalar va filiallar

Vakolatxona yuridik shaxsning u turgan erdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo‘linmasidir.

Filial yuridik shaxsning u turgan erdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo‘linmasidir.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, vakolatxona va filiallar yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ular o‘zlarini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta’milanadilar hamda u tasdiqlagan nizomlar asosida ish olib boradilar. Vakolatxona va filiallarning rahbarlari yuridik shaxs tomonidan tayinlanadi hamda uning ishonchnomasi asosida ish olib boradi.



LexUZ sharhi

Qarang: “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi, “Aksiyadorlik jamiyatlar va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas‘uliyatlari jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonun 5-moddasi ikkinchi qismi, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasi yettinchi qismi, “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi.

48-modda. Yuridik shaxsning javobgarligi

Yuridik shaxs o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Davlat korxonasi va mulkdor tomonidan moliyaviy ta’milanadigan muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ushbu Kodeks 72-moddasi **beshinchi qismida** hamda 76-moddasi **uchinchi qismida** nazarda tutilgan tartibda va shartlar asosida javob beradilar.

Yuridik shaxs muassisasi (ishtirokchisi) yoki uning mol-mulkining egasi yuridik shaxsning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, yuridik shaxs esa muassisasi (ishtirokchi) yoki mulkdorning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, ushbu Kodeksda yoki yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) shu yuridik shaxs uchun majburiy ko‘rsatmalarni berish huquqiga ega bo‘lgan muassisasi (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo‘lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Muassisasi (ishtirokchi) yoki yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori shu yuridik shaxsning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan taqdirdagina majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega.

Yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) yoki mulkdor yuridik shaxsning muayyan harakatni amalgalash oshirishi oqibatida nochor (bankrot) bo'lib qolishini oldindan bilib, o'z huquqidan uning ana shunday harakatni amalgalash oshirishini ko'zlab foydalangan holdagina yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) ularning tomonidan vujudga keltirilgan deb hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 60-moddasi birinchi qismi, 61-moddasi birinchi qismi, 63-moddasi birinchi qismi, 69-moddasi ikkinchi qismi, 70-moddasi o'ninchi qismi, 76-moddasi uchinchi qismi.

(48-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 357-I-son Qonuniga muvofiq to'rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlar bilan almashtirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 56-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

49-modda. Yuridik shaxsni qayta tashkil etish

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) uning muassislari (ishtirokchilari) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi qaroriga muvofiq amalgalash oshirilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 92 - 97-moddalari, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 49 - 54-moddalari, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 56-moddasi.

Qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxsni bo'lish yoki uning tarkibidan bir yoxud bir necha yuridik shaxsni ajratib chiqarish shaklida uni qayta tashkil etish vakil qilingan davlat organlarining qarori bilan yoxud sud qarori bilan amalgalash oshiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonunning 28-moddasi.

Agar yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari), ular vakil qilgan organ yoki yuridik shaxsning o'z ta'sis hujjatlari bilan qayta tashkil etishga vakil qilingan organi yuridik shaxsni vakolatli davlat organining qarorida belgilangan muddatda qayta tashkil etmayotgan bo'lsa, sud mazkur davlat organining da'vosi bo'yicha yuridik shaxsning boshqaruvchisini tayinlaydi va unga ushbu yuridik shaxsni qayta tashkil etishni topshiradi. Boshqaruvchi tayinlangan paytdan boshlab unga yuridik shaxsning ishlarini boshqarish vakolatlari o'tadi. Boshqaruvchi sudda yuridik shaxs nomidan harakat qiladi, taqsimlash balansini tuzadi va uni yuridik shaxslarni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan ta'sis hujjatlari bilan birga ko'rib chiqish uchun sudga topshiradi. Sudning ushbu hujjatlarni tasdiqlashi yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxslarni qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qaytadan tashkil etish vakolatli davlat organlarining roziligi bilangina amalgalash oshirilishi mumkin.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Yuridik shaxs unga boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilganida qo'shib olingen yuridik shaxsning faoliyati to'xtatilgani haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 92-moddasi ikkinchi qismi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 07.11.2019-yildagi "Ko'p kvartrali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonuni 48-moddasining birinchi — to'rtinchi qismlari.

50-modda. Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda huquqiy vorislik

Yuridik shaxslar qo'shib yuborilganida ulardan har birining huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 51-moddasi, "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 93-moddasi to'rtinchi qismi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun 50-moddasi beshinchi qismi.

Yuridik shaxs boshqa yuridik shaxsga qo'shilganida, bu yuridik shaxsga qo'shilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq o'tadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 51-moddasi, "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 94-moddasi to'rtinchi qismi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun 51-moddasi to'rtinchi qismi.

Yuridik shaxs bo'lingan taqdirda uning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o'tadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 51-moddasi, "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 95-moddasi to'rtinchi qismi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun 52-moddasi beshinchi qismi.

Yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxs ajralib chiqqanida qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari taqsimlash balansiga muvofiq ularning har biriga o'tadi.



LexUZ sharhi

Qarang:mazkur Kodeksning 51-moddasi, "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 96-moddasi to'rtinchi qismi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun 53-moddasi beshinchi – oltinchi qismlari.

Bir turdag'i yuridik shaxs boshqa turdag'i yuridik shaxsga aylantirilganida (tashkiliy-huquqiy shakli o'zgartirilganida), qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.



LexUZ sharhi

Qarang:mazkur Kodeksning 51-moddasi, "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 97-moddasi to'rtinchi qismi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun 54-moddasi to'rtinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 12-moddasi.

51-modda. Topshirish hujjati va taqsimlash balansi

Topshirish hujjati va taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlar bo'yicha, shu jumladan taraflar bahslashayotgan majburiyatlar bo'yicha ham, huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Topshirish hujjati va taqsimlash balansi yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilar) tomonidan yoki yuridik shaxslarni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi hamda ta'sis hujjatlari bilan birga yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki mavjud yuridik shaxslarning ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar kiritish uchun taqdim etiladi.

Ta'sis hujjatlari bilan birga tegishincha topshirish hujjatini yoki taqsimlash balansini taqdim etmaslik, shuningdek ularda qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalarning yo'qligi yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishiga olib keladi.

52-modda. Yuridik shaxs qayta tashkil etilganida kreditorlar huquqlarining kafolatlari

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilar) yoki organ qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

Qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditori shu yuridik shaxsning qarzdar bo'lishiga olib kelgan majburiyatlarni bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni hamda zararni to'lashni talab qilishga haqli.

Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlar bo'yicha solidar javobgar bo'ladilar.



LexUZ sharhi

Qarang: "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 92-moddasi oltinchi qismi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 49-moddasi oltinchi qismi.

53-modda. Yuridik shaxsni tugatish

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmasdan bekor qilinishiga olib keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 54 — 56-moddalari, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 49-moddasi, "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarını himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 98-moddasi, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 56-moddasi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 55-moddasi, "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonun 27-moddasi ikkinchi — uchinchi qismlari, 31-moddasi ikkinchi — to'rtinchi qismlari.

Yuridik shaxs quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

Oldingi tahrirga qarang.

uning muassislari (ishtirokchilar)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki

yuridik shaxsni tashkil qilish chog‘ida qonunchilik buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa, sud yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazishni haqiqiy emas deb topganida;

(53-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

faoliyat litsenziyasiz, faoliyat (harakatlar) ruxsatnomasiz yoxud vakolatli organni xabardor qilmasdan amalga oshirilgan yoki qonunda taqilangan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, shuningdek ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga ko‘ra.

(53-modda ikkinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Oldingi tahrirga qarang.

moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilmaganligi sababli belgilangan tartibda harakatsiz rejimga o‘tkazilgan paytdan e’tiboran uch yil ichida faoliyat tiklanmagan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning qaroriga ko‘ra, bundan nodavlat notijorat tashkilotlari mustasno.

(53-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-dekabrdagi O‘RQ-592-sonli Qonuniga asosan to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son — 2020-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Sudning yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risidagi qarorida uning muassislari (ishtirokchilari) yoxud yuridik shaxsning ta’sis hujjatlari bilan uni tugatishga vakil qilingan organ zimmasiga yuridik shaxsni tugatishni amalga oshirish vazifasi yuklatilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 54 — 56-moddalari, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 36-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2013-yildagi “Fuqarolik jamiyatini institutlarini rivojlantirishga ko‘maklashish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 2-bandi ikkinchi xatboshisi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagги 704-son qarori bilan tasdiqlangan Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi to‘g‘risida nizom, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 32-moddasi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

54-modda. Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan shaxsning burchlari

Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organiga darhol yozma xabar berishlari kerak, davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ yuridik shaxs tugatish jarayonida ekanligi haqidagi ma’lumotlarni yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo‘yadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tugatuvchini — tugatish komissiyasini yoki jismoniy shaxsni tayinlaydilar hamda ushbu Kodeksga muvofiq tugatish tartibi va muddatini belgilaydilar. Yuridik

shaxsni tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

(54-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-dekabrdagi O‘RQ-127-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 50-51-son, 506-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Tugatuvchi tayinlangan paytdan boshlab yuridik shaxsning ishlarini boshqarish bo‘yicha vakolatlar tugatuvchiga o‘tadi. Tugatuvchi tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan sudda ishtirok etadi.

(54-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-dekabrdagi O‘RQ-127-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 50-51-son, 506-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 55-moddasi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 98-moddasi uchinchi, beshinchi-oltinchi qismlari, “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘srimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonun 55-moddasining to‘rtinchi — oltinchi qismlari, Vazirlar Mahkamasining 15.01.2015-yildagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 4 — 6, 34 — 35-bandlari.

55-modda. Yuridik shaxsni tugatish tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

Tugatuvchi yuridik shaxsning tugatilishi haqida ommaviy axborot vositalarida e’lon beradi. Yuridik shaxs bo‘lgan tadbirdorlik subyektini ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risidagi e’lon ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan uning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

(55-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-dekabrdagi O‘RQ-592-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son — 2020-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi e’londa uning kreditorlari talablarini bildirish tartibi va muddatlarini ko‘rsatiladi. Bu muddat tugatish to‘g‘risidagi e’lon chiqqan paytdan e’tiboran ikki oydan kam bo‘lmasligi kerak.

(55-modda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-dekabrdagi O‘RQ-592-sonli Qonuniga asosan ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son — 2020-yil 1-yanvardan kuchga kiradi)

Tugatuvchi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini olish choralarini ko‘radi, shuningdek kreditorlarni yuridik shaxs tugatilishi haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo‘yish uchun belgilangan muddat tamom bo‘lganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, bu balans tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo‘ygan talablar ro‘yxati, shuningdek ularni qarab chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

(55-moddaning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-dekabrdagi O‘RQ-127-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 50-51-son, 506-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Oraliq tugatish balansi yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislarini (ishtirokchilari) yoki organ tomonidan tasdiqlanadi. Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, oraliq tugatish balansi yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

(55-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 4-apreldagi O‘RQ-28-soni
Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2006-y., 14-son, 110-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Agar tugatilayotgan yuridik shaxs (muassasalardan tashqari) ixtiyoridagi pul mablag‘lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, tugatuvchi yuridik shaxsning mol-mulkini kimoshdi savdosi orqali sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxs kreditorlariga pul summalarini to‘lash tugatuvchi tomonidan ushbu Kodeksning 56-moddasida belgilab qo‘yilgan navbat tartibida, oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi.

(55-moddaning beshinchi va oltinchi qismlari O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-dekabrdagi O‘RQ-127-soni Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 50-51-son, 506-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish tugaganidan keyin tugatuvchi tugatish balansini tuzadi, uni yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislarini (ishtirokchilari) yoki organ tasdiqlaydi. Yuridik shaxsni tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatish balansi yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

(55-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-dekabrdagi O‘RQ-127-soni Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 50-51-son, 506-modda)

Tugatilayotgan davlat korxonasining mol-mulki, tugatilayotgan muassasaning esa — pul mablag‘lari kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, kreditorlar o‘z talablarining qolgan qismini ushbu korxona yoki muassasa mulkdori hisobidan qondirish to‘g‘risida sudga da’vo bilan murojaat qilish huquqiga egadirlar.

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxsning kreditorlar talablari qondirilganidan keyin qolgan mol-mulki uning shu mol-mulkka ashyoviy huquqlarga yoki ushbu yuridik shaxsga nisbatan majburiy huquqlarga ega bo‘lgan muassislariga (ishtirokchilariga), agar qonunchilikda o‘zgacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, topshiriladi.

(55-moddaning o‘ninchisi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarni tugatish, shuningdek ularni muassislarini yo‘qligida tugatish taomili va xususiyatlari qonunchilik bilan tartibga solinadi.

(55-moddaning o‘n birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritib qo‘yilganidan so‘ng yuridik shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning faoliyati esa tugagan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 55 — 56-moddalari, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 99 — 101-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PF-5739-soni “Tadbirkorlik subyektlarni tugatish tartib-taomillarini soddallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 15.01.2015-yildagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat notijorat tashkilotlarini tugatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 14 — 32, 37 — 41-bandlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagagi 704-soni “Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi hamda Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi

nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning 22.05.2008-yildagi Qarori bilan tasdiqlangan “Kredit uyushmalarini tugatish tartibi to‘g’risida”gi Nizom, O’zbekiston Respublikasining 07.11.2019-yildagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g’risida”gi Qonuni 48-moddasining beshinchi — oltinchi qismlari.

56-modda. Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish

Yuridik shaxs tugatilayotganida birinchi navbatda fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan, alimentlarni undirishdan va mualliflik shartnomalari bo‘yicha mukofot to‘lash haqidagi talablari, shuningdek hayotiga yoki sog‘lig‘iga zarar yetkazganligi uchun tugatilayotgan yuridik shaxs javobgar bo‘lgan fuqarolarning talablari ham tegishli vaqtbay to‘lovlarni kapitallashtirish yo‘li bilan qanoatlantiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Boshqa kreditorlarning talablari qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda qanoatlantiriladi.

(56-moddaning ikkinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O’RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 784-moddasi.

57-modda. Yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi)

Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs, davlat korxonasidan tashqari, shuningdek matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxsning kreditorlar talablarini qondirishga qurbi yetmasa, sudning qaroriga muvofiq u nochor (bankrot) deb hisoblanishi mumkin.

Yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs, shuningdek matlubot kooperativi yoki ijtimoiy fond shaklida ish olib borayotgan yuridik shaxs bankrotlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda o‘zini bankrot deb topish to‘g’risidagi ariza bilan sudga murojaat etadi.

(57-moddaning uchinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-apreldagi 482-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 5-son, 67-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Sudning yuridik shaxsni bankrot deb hisoblashi asoslari, shuningdek bunday yuridik shaxsni tugatish tartibi qonunda belgilanadi.

(57-moddaning to‘rtinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2003-yil 25-apreldagi 482-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 5-son, 67-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39 — 40-moddalari, O’zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g’risida”gi (yangi tahriri) Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.08.2013-yildagi “Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g’risida”gi qarori, O’zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 27.01.2006-yildagi “Bankrotlik to‘g’risidagi qonun hujjatlarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi qarori.

2-§. Tijorat tashkilotlari

58-modda. Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarini to‘g’risidagi asosiy qoidalar

Ulushlarga (qo'shilgan hissalarga) yoki muassislarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo'lingan ustav fondi (ustav kapitali)ga ega bo'lган tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Muassislar (ishtirokchilar) qo'shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo'jalik shirkati yoki jamiyati o'z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk mulk huquqi asosida unga tegishlidir.

Oldingi tahrirga qarang.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari to'liq shirkat, kommandit shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin.

(58-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-372-soni
Qonuni tahririda — O'RQHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 59-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.

Yakka tadbirkorlar va (yoki) tijoratchi tashkilotlar to'liq shirkatlarning ishtirokchilari hamda kommandit shirkatlarda to'liq sheriklar bo'lishlari mumkin.

Fuqarolar va yuridik shaxslar xo'jalik jamiyatlarida ishtirokchilar va kommandit shirkatlarda hissa qo'shuvchilar bo'lishlari mumkin.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, davlat hokimiyati organlari xo'jalik jamiyatlarining ishtirokchilari hamda kommandit shirkatlarga hissa qo'shuvchilar bo'lishga haqli emaslar.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi uchinchisi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasi ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi uchinchisi qismi.

Muldorlar tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasalar, qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, mulkdorning roziligi bilan xo'jalik jamiyatlarining ishtirokchilari va kommandit shirkatlarga hissa qo'shuvchilar bo'lishlari mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonun ayrim toifadagi fuqarolarning xo'jalik shirkatlarida va jamiyatlarida ishtirok etishini taqiqlab yoki cheklab qo'yishi mumkin, aksiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

(58-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-372-soni
Qonuni tahririda — O'RQHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi birinchi — ikkinchi qismi.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari boshqa xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining muassisleri (ishtirokchilari) bo'lishlari mumkin, ushbu Kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi Qonuni 3-moddasining yettingi qismi; O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunining 8-moddasi, O'zbekiston Respublikasining “Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi Qonuni 5-moddasining ikkinchi qismi.

Xo'jalik shirkati yoki jamiyatining mol-mulkiga pul, qimmatli qog'ozlar, pul bilan baholanadigan boshqa buyumlar yoki mulkiy huquqlar yoxud boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar hissa sifatida qo'shilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Xo'jalik jamiyati ishtirokchisining qo'shgan hissasini pul bilan baholash jamiyatning muassislari (ishtirokchilari) o'rtaсидаги kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa — baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

(58-moddaning o'ninchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 17-sentabrdagi O'RQ-257-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2010-y., 37-son, 315-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari (aksiyadorlik jamiyatidan tashqari) aksiyalar chiqarishga haqli emas.

(58-moddaning o'n birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagagi O'RQ-372-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining “Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi Qonunining 14-moddasi sakkizinch qismi, O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi Qonunining 10-moddasi oltinchi qismi.

59-modda. Xo'jalik shirkati yoki jamiyati ishtirokchilarining huquq va burchlari

Xo'jalik shirkati yoki jamiyatining ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

shirkatning yoki jamiyatning ishlarini boshqarishda qatnashish, boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi Qonuni 29-moddasining ikkinchi qismi.

ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda shirkatning yoki jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlar bilan tanishish;

foydani taqsimlashda qatnashish;

shirkat yoki jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish.

Oldingi tahrirga qarang.

Xo'jalik shirkati yoki jamiyatining ishtirokchilari ushbu Kodeksda, boshqa qonunchilikda, shirkat yoki jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

(59-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik shirkatlari to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasi, 30-moddasining birinchi —ikkinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining “Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida”gi Qonunining 8-moddasi, O'zbekiston Respublikasining

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 26 — 28-moddalari.

Xo‘jalik shirkati yoki jamiyatining ishtirokchilarini:

ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo‘shishlari;

shirkat yoki jamiyatning faoliyati to‘g‘risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Xo‘jalik shirkati yoki jamiyatni ishtirokchilarining shirkat yoki jamiyat ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa burchlari ham bo‘lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 59-moddalari, “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, 9-moddasining beshinchi qismi, 30-moddasining uchinchi qismi, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi.

60-modda. To‘liq shirkat

Ishtirokchilar o‘z o‘rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan hamda uning majburiyatli bo‘yicha o‘zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to‘liq shirkat hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to‘liq shirkatning ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

To‘liq shirkatning firma nomi uning barcha ishtirokchilarining nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek “to‘liq shirkat” degan so‘zlarni, yoxud bir yoki bir necha ishtirokchining “va kompaniya” degan so‘zlar qo‘shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek “to‘liq shirkat” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58, 59-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 8 — 27-moddalari.

61-modda. Kommandit shirkat

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatli bo‘yicha o‘zlarining butun mol-mulkleri bilan javob beradigan ishtirokchilar (to‘liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zları qo‘shgan hissalar doirasida javobgar bo‘ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo‘shuvchi, kommanditchi) mavjud bo‘lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

Kommandit shirkatda qatnashayotgan to‘liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatli bo‘yicha javobgarligi ushbu Kodeksning qoidalari bilan belgilanadi.

Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to‘liq sherik bo‘lishi mumkin.

To‘liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to‘liq sherik bo‘la olmaydi.

Kommandit shirkatdagi to‘liq sherik o‘sha shirkatning o‘zida hissa qo‘shuvchi va boshqa to‘liq shirkatda ishtirokchi bo‘lishi mumkin emas.

Kommandit shirkatning firma nomi barcha to‘liq sheriklarning nomlari (nomlanishi)ni, shuningdek “kommandit shirkat” degan so‘zlarni yoki kamida bitta to‘liq sherikning “va kompaniya” degan so‘zlar qo‘shilgan nomi (nomlanishi)ni, shuningdek “kommandit shirkat” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Agar kommandit shirkatning firma nomiga hissa qo‘shuvchining nomi kiritilgan bo‘lsa, bunday hissa qo‘shuvchi to‘liq sherikka aylanadi.

Kommendant shirkatga to‘liq shirkat haqidagi qoidalar qo‘llaniladi, agar bu hol ushbu Kodeksning qoidalariga zid bo‘lmasa.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58, 59-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 28 — 31-moddalari.

62-modda. Mas’uliyati cheklangan jamiyat

Mas’uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlar qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas’uliyati cheklangan” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning huquqiy mavqeyi, uning ishtirokchilarining huquq va burchlari ushbu Kodeks hamda boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

(62-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58, 59-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 49-moddasi uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

63-modda. Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi ta’sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulkulari bilan qo‘shgan hissalarini qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar. Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo‘lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta’sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa ishtirokchilar o‘rtasida ularning qo‘shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “qo‘shimcha mas’uliyatli” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Ushbu Kodeksning mas’uliyati cheklangan jamiyat haqidagi qoidalari, agar ushbu moddada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatga nisbatan qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58, 59, 62-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 49-moddasi uchinchi qismi, “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni.

Oldingi tahrirga qarang.

64-modda. Aksiyadorlik jamiyatি

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyatи hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatлari bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatлari bo‘yicha o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyatи ekanligi o‘z ifodasini topishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Aksiyadorlik jamiyatining huquqiy mavqeyi hamda aksiyadorlarning huquq va burchlari ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

(64-moddaning to‘rtinchи qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharti

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatлari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

Oldingi tahrirga qarang.

(65 va 66-moddalar O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagи O‘RQ-372-sonli Qonuniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)

67-modda. Sho‘ba xo‘jalik jamiyatи

Agar bir (asosiy) xo‘jalik jamiyatи yoki shirkati ikkinchi xo‘jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeyiga ega bo‘lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo‘lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo‘jalik jamiyatи tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo‘lsa, ushbu ikkinchi xo‘jalik jamiyatи sho‘ba xo‘jalik jamiyatи hisoblanadi.

Sho‘ba xo‘jalik jamiyatи yuridik shaxs hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Sho‘ba xo‘jalik jamiyatи o‘z mulkida o‘zining asosiy jamiyatи (shirkati) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushga ega bo‘lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar o‘zining asosiy jamiyatи (shirkati) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olgan sho‘ba xo‘jalik jamiyatи o‘zining asosiy jamiyatи (shirkati) ishtirokchilari yoki aksiyadorlari umumiylig‘i shartnomada ovoz berishga haqli emas.

(67-modda O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-459-sonli Qonuniga asosan uchinchи qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)

Sho‘ba xo‘jalik jamiyatи o‘zining asosiy jamiyatи (shirkati)ning qarzлari bo‘yicha javob bermaydi.

Asosiy jamiyat (shirkat) aybi bilan sho‘ba xo‘jalik jamiyatи nochor (bankrot) bo‘lib qolgan taqdirda, asosiy jamiyat (shirkat) uning qarzлari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

Sho‘ba xo‘jalik jamiyatи ishtirokchilari (aksiyadorlari) asosiy jamiyatdan (shirkatdan) uning aybi bilan sho‘ba jamiyatga yetkazilgan zararni to‘lashni, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasining birinchi — oltinchi qismlari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 06.11.2004-yildagi "Tijorat banklari tomonidan sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori.

68-modda. Qaram xo'jalik jamiyati

Oldingi tahrirga qarang.

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning (ulushning) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi.

(68-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O'RQ-372-soni Qonuni tahririda — O'RQHT, 2014-y., 20-son, 222-modda)

Qaram xo'jalik jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qaram xo'jalik jamiyati o'z mulkida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarga ega bo'lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar ishtirok etuvchi boshqa jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni olgan qaram xo'jalik jamiyati ishtirok etuvchi boshqa jamiyat ishtirokchilari yoki aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishida ovoz berishga haqli emas.

(68-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-459-soni Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat qaram jamiyat ustav fondining tegishli qismini qo'lga kiritib olganligi haqidagi ma'lumotlarni qonunda nazarda tutilgan tartibda darhol e'lon qilishi shart.

Xo'jalik jamiyatlari bir-birlarining ustav fondlarida o'zaro qatnashishining chegarasi va bunday jamiyatlardan biri boshqa jamiyat ishtirokchilari yoki aksiyadorlarining umumiyligi yig'ilishida foydalanishi mumkin bo'lgan ovozlar soni qonunda belgilab qo'yiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasining yettinchi qismi.

69-modda. Ishlab chiqarish kooperativlari

Fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolarning (ishtirokchilarning) mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi. Qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativining a'zolari kooperativning majburiyatları bo'yicha qonunda va kooperativ ustavida nazarda tutilgan miqdorlarda va tartibda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Kooperativning firma nomi kooperativning nomini, shuningdek “ishlab chiqarish kooperativi” degan so‘zlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Ishlab chiqarish kooperativlarining huquqiy mavqeyi va ular a’zolarining huquq hamda burchlari ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

(69-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 58-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: “Mustaqil Davlatlar hamdo ‘stligiga a’zo bo‘lgan davlatlar korxonalari va tarmoqlarining ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishni qo’llab-quvvatlashning umumiy shart-sharoitlari va tartibi to‘g‘risida”gi 23.12.1993-yildagi Bitim.

70-modda. Unitar korxona

O‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi.

Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.

Unitar korxonaning ustavida ushbu Kodeks 43-moddasining to‘rtinchi va beshinchi qismlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlardan tashqari korxona ustav fondining miqdori to‘g‘risidagi, uni tashkil etish tartibi va manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

Unitar korxonaning mol-mulki unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir.

Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Unitar korxonani boshqarish organi uning rahbari bo‘lib, bu rahbar mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi.

Unitar korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi.

Unitar korxona o‘z mol-mulki egasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Unitar korxona o‘z mulkida o‘z mulkdorining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushga ega bo‘lishga haqli emas. Ushbu qismda belgilangan taqiq kuchga kirguniga qadar o‘z mulkdorining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni olgan unitar korxona xo‘jalik jamiyati (shirkati) ishtirokchilari umumiy yig‘ilishida ovoz berishga haqli emas.

(70-modda O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O‘RQ-459-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi qism bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Unitar korxonalarning huquqiy mavqeyi ushbu Kodeks hamda boshqa qonunchilik bilan belgilanadi.

(70-moddaning o‘ninchи qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Unitar korxona mol-mulkining egasi korxona majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, ushbu Kodeks 48-moddasining **uchinchi** va **to‘rtinchi** qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan

mustasno. Bu qoida sho‘ba korxona ta’sis etgan unitar korxonaning sho‘ba korxona majburiyatlari bo‘yicha javobgarligiga nisbatan ham qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 71, 72, 176 — 181-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalarini to‘g‘risida”gi Nizom.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.11.2017-yildagi “Jazoni o‘tash muassasalari huzurida davlat unitar korxonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

71-modda. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonaning ta’sis hujjati uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavidan iboratdir.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona o‘z mol-mulkining bir qismini xo‘jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo‘li bilan yuridik shaxs bo‘lgan boshqa unitar korxona (sho‘ba korxona) tashkil etishi mumkin.

Muassis sho‘ba korxonaning ustavini tasdiqlaydi va uning rahbarini tayinlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 70, 72, 176 — 181-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalarini to‘g‘risida”gi Nizom.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi 01.12.2011-yildagi “Mulk ijarsi shartnomasiga oid fuqarolik qonun hujjatlari normalarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 15-bandni.

72-modda. Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga muvofiq davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin.

(72-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat korxonasing ta’sis hujjati uning ustavidir.

Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasing firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko‘rsatishi kerak.

Davlat korxonasing o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquqi ushbu Kodeksning 178 va 179-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Davlat korxonasing mol-mulki yetarli bo‘lmaganida davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 70, 71, 176 — 181-moddalari, 505-moddasi birinchi qismi, 549-moddasi birinchi qismi, 851-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi “O'zbekiston respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 26-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari to‘g‘risida”gi Nizom.

3-§. Tijoratchi bo‘limgan tashkilotlar

73-modda. Matlubot kooperativi

Ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a’zolikka asoslangan ixtiyoriy birlashmasi matlubot kooperativi hisoblanib, bu birlashuv uning a’zolari tomonidan o‘z mulkiy (pay) badallarini qo‘sish yo‘li bilan amalgalashadi.

Matlubot kooperativining ustavida ushbu Kodeks 43-moddasining *to‘rtinchi* va *beshinchi* qismlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlardan tashqari quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak: kooperativ a’zolari qo‘sadigan pay badallarining miqdori to‘g‘risidagi; kooperativ a’zolari pay badallarining tarkibi va ularni qo‘sish tartibi hamda ularning badalni qo‘sish majburiyatini buzganlik uchun javobgarligi to‘g‘risidagi; kooperativni boshqarish organlarining tarkibi hamda vakolatlari va ular tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi, shu jumladan qarorlar bir ovozdan yoki ovozlarning malakali ko‘philigi bilan qabul qilinadigan masalalar to‘g‘risidagi; kooperativ ko‘rgan zararlarni kooperativ a’zolari tomonidan to‘lash tartibi to‘g‘risidagi.

Matlubot kooperativining nomida uning faoliyatining asosiy maqsadi ko‘rsatilishi, shuningdek “kooperativi” so‘zi yoki “matlubot uyushmasi” yoxud “matlubot jamiyati” degan so‘zlar bo‘lishi kerak.

Matlubot kooperativining a’zolari ko‘rilgan zararni yillik balans tasdiqlanganidan keyin uch oy mobaynida qo‘sishimcha badallar to‘lash yo‘li bilan qoplashlari shart. Ushbu burch bajarilmagan taqdirda kooperativ kreditorlarning talablariga muvofiq sud tomonidan tugatilishi mumkin.

Matlubot kooperativining a’zolari uning majburiyatları bo‘yicha har bir kooperativ a’zosi to‘laydigan qo‘sishimcha badalning to‘lanmagan qismi doirasida subsidiar javobgar bo‘ladilar. Bu holda kooperativ a’zolari solidar javob beradilar.

Matlubot kooperativining tijorat faoliyatiga nisbatan ushbu Kodeksning tijoratchi tashkilotlar to‘g‘risidagi qoidalari qo’llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Matlubot kooperativlarining huquqiy mavqeyi, shuningdek ular a’zolarining huquq va burchlari ushbu Kodeksga va boshqa qonun hujjalariга muvofiq belgilanadi.

(73-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 74 — 78-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 14.06.1991-yildagi “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasi birinchi qismi, 8-moddasi ikkinchi qismi, 12-moddasi ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi.

74-modda. Jamoat birlashmalari

Ma’naviy yoki o‘zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o‘z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari jamoat birlashmalari hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari o‘z ustavlarida nazarda tutilgan ishlab chiqarish yoki o‘zga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ishtirokchilari (a’zolari) ushbu birlashmalarga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan a’zolik badallariga bo‘lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a’zo sifatida ishtirok etayotgan jamoat birlashmalarining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar, mazkur birlashmalar esa — o‘z a’zolarining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar.

Oldingi tahrirga qarang.

Jamoat birlashmalari huquqiy mavqeyining xususiyatlari **qonunchilik** bilan belgilanadi.

(74-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton*)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 73, 75 — 78-moddalar, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishma ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining 03.04.1992-yildagi “O‘zbekiston respublikasi jamoat birlashmalari qonunga xilof ravishda mablag‘ bilan ta’minlanishining oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

Oldingi tahrirga qarang.

75-modda. Jamoat fondlari

Fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘sish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e’tirof etiladi.

Jamoat fondiga uning muassislari (muassisasi) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan o‘tkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Fond muassislari (muassisasi) yoki fond vasiyatnomasi bo‘yicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi, fond esa muassislarning (muassisining) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Jamoat fondining mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma’muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalilanadi. Fond qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan o‘z ustavida belgilangan maqsadlarga to‘g‘ri keladigan doirada shug‘ullanishi mumkin. Fondning tijorat tashkilotlari ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ishtiroki qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(75-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton*)

Jamoat fondi har yili o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot e’lon qilib borishi shart.

Jamoat fondini boshqarish tartibi va uning organlarini shakllantirish tartibi uning ustavida belgilanadi.

Jamoat fondining ustavida ushbu Kodeks 43-moddasining **to‘rtinchi qismida** ko‘rsatilganidan tashqari quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak: fond organlarining tuzilishi, vakolatlari va shakllantirilish tartibi; fond organlarining mansabdor shaxslarini tayinlash (saylash) va lavozimidan ozod qilish tartibi; fondning mol-mulkini shakllantirish manbalari; fondning, uning vakolatxonalarini hamda filiallarining mol-mulkni boshqarish borasidagi huquq va majburiyatlar; fond vakolatxonalarini ochish va filiallarini tashkil etish tartibi; fondni qayta tashkil etish va

tugatish tartibi; fond tugatilgan taqdirda uning mol-mulkidan foydalanish tartibi; fond ustaviga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish tartibi.

Oldingi tahrirga qarang.

Jamoat fondining ustavida fondning belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan ramziy belgisining tavsifi, shuningdek qonunchilikka zid bo‘limgan boshqa qoidalar ham bo‘lishi mumkin.

(75-moddaning yetinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Jamoat fondlari huquqiy holatining xususiyatlari **qonunchilik** bilan belgilanadi.

(75-moddaning sakkizinch qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 73, 74, 76 — 78-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 11 — 13-moddalari.

(75-modda O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 30-apreldagi 621-II-son Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 25-son, 287-modda)

76-modda. Muassasalar

Boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘limgan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta’minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi.

Muassasaning o‘ziga biriktirib qo‘yilgan va o‘zi sotib olgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlari ushbu Kodeksning 178 va 180-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Muassasa o‘z majburiyatları bo‘yicha ixtiyoridagi pul mablag‘lari bilan javob beradi. Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatları yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ayrim turdag‘i davlat muassasalari va boshqa muassasalar huquqiy mavqeyining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

(76-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 73 — 75, 77, 78, 329-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10, 13-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

77-modda. Yuridik shaxslar birlashmalari

Tijorat tashkilotlari o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o‘zga birlashmalariga birlashishlari mumkin. Agar ishtirokchilarning qaroriga muvofiq uyushmaga (ittifoqqa) va o‘zga birlashmaga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish vazifasi yuklatilsa, bunday uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashma ushbu Kodeksda nazardautilgan tartibda xo‘jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirilishi kerak yoxud

tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun xo‘jalik jamiyatlari tuzishi yoki ularda ishtirok etishi mumkin.

Notijorat tashkilotlari o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishlari mumkin.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar yuridik shaxs hisoblanadi.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning a’zolari o‘z mustaqilliklarini va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalar o‘z a’zolarining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning a’zolari ularning majburiyatlari bo‘yicha uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning ta’sis hujjatlarda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo‘ladilar.

Uyushma (ittifoq) va o‘zga birlashmalarning nomi ularning asosiy faoliyatini ko‘rsatishi, unga “uyushmasi”, “ittifoqi” so‘zleri yoki birlashma turini ko‘rsatadigan boshqa so‘z kiritilgan bo‘lishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda yuridik shaxslar birlashmalari huquqiy mavqeyining xususiyatlari belgilanishi mumkin.

(77-moddaning sakkizinch qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 73 — 76, 78, 329-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxona to‘g‘risida”gi Qonunining 26-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasining 2-bandi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasining ikkinchi qismi, 15-moddasining ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 22.03.1994-yildagi 153-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqida”gi Nizom.

(77-modda O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrdagi 175-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-y., 1-2-son, 23-modda)

78-modda. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yaratgan yoki sotib olgan mol-mulk ularning mulkidir.

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy mavqeyi qonunchilik bilan belgilanadi.

(78-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 8-moddasi ikkinchi qismi ikkinchi xatboshisi, 11-moddasi to‘rtinchi, o‘n birinchi xatboshilar, 12, 15, 39, 40, 73 — 77, 329-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 27, 184 — 189-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.07.2013-yildagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.

5-BOB

DAVLAT FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR IShTIROKChISI SIFATIDA

79-modda. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda ularning boshqa ishtirokchilari bilan baravar asoslarda ishtirok etadi.

Fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ular maxsus vakil qilgan boshqa organlar ishtirok etadilar.

(79-moddaning birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'ları bilan javob beradi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 2-moddasi ikkinchi qismi, 3-moddasi uchinchi qismi, 12, 15, 80-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari to'g'risida"gi Nizom.

80-modda. Davlat va yuridik shaxslar javobgarligining farqlab qo'yilishi

Davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi. Qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari davlat o'zi tuzgan yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Ushbu moddaning qoidalari davlat tuzgan shartnomaga asosida yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergen) yoki mazkur yuridik shaxs davlatning majburiyatlari bo'yicha o'z zimmasiga kafillik olgan (kafolat bergen) hollarga taalluqli emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 2-moddasi ikkinchi qismi, 3-moddasi uchinchi qismi, 12, 15, 70 — 72, 80-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuning 24-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat korxonalari to'g'risida"gi Nizom.

3-kichik bo'lim OBYEKTALAR

6-BOB

UMUMIY QOIDALAR

81-modda. Fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari

Fuqarolik huquqlarining obyektlariga ashyolar, shu jumladan pul va qimmatli qog'ozlar, boshqa buyumlar, mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar, ixtiolar, sanoat

namunalari, fan, adabiyot, san'at asarlari va intellektual faoliyatning boshqa natijalari, shuningdek shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 82 — 96, 182, 1041 — 1048, 1056-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 20.07.2006-yildagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 5 — 8-moddalari.

82-modda. Fuqarolik huquqlari obyektlarining muomalada bo'lishi

Fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin.

Muomalada bo'lishiga yo'l qo'yilmaydigan fuqarolik huquqlari obyektlarining turlari (muomaladan chiqarilgan obyektlar) qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Muayyan muomala ishtirokchilarigagina qarashli bo'la oladigan yoki muomalada bo'lishiga maxsus ruxsatnoma bilan yo'l qo'yiladigan fuqarolik huquqlari obyektlarining (muomalada bo'lishi cheklangan obyektlarning) turlari qonunda ko'rsatilgan tartibda belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 83 — 96, 182, 1041 — 1048, 1056-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 20.07.2006-yildagi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunining 5 — 8-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirlishi to'g'risida"gi Qonunining 7 — 12-moddalari.

7-BOB MODDIY NE'MATLAR

83-modda. Mol-mulkning turlari

Mol-mulk fuqarolik huquqlari obyekti sifatida ko'chmas mulkka va ko'char mulkka bo'linadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ko'chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar kiradi.

(83-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 5-apreldagi O'RQ-83-soni Qonuni tahririda — O'RQHT, 2007-y., 14-son, 132-modda)

Qonunda boshqa mol-mulk ham ko'chmas mol-mulk qatoriga kiritilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarni qo'lga kiritish va ular bekor bo'lishining xususiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yildi.

(83-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Ko'chmas mulk jumlasiga kirmaydigan mol-mulk ko'char mulk hisoblanadi. Ko'char mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish talab etilmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 82, 84 — 96-moddalari, 111-moddasining uchinchi qismi, 210-moddasini, 386-moddasining to'rtinchchi qismi, 497-moddasining uchinchi qismi, 504-moddasining oltinchchi qismi, 565-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi.

84-modda. Ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Ko'chmas mulkka egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 83 — 96-moddalari, 111-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, 182, 481-moddalari, 488-moddasining ikkinchi qismi, 490-moddasi, 497-moddasining ikkinchi qismi, 504-moddasining beshinchi qismi, 513-moddasi, 539-moddasining ikkinchi qismi, 574-moddasininguchinchi qismi, 580-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 31-moddasi.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuziladigan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ huquq egasining iltimosiga ko'ra amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazishni ro'yxatdan o'tkazilgan huquq yoki bitim to'g'risida hujjat berish yoxud ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatga ustxat yozish yo'li bilan tasdiqlashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastro to'g'risida"gi Qonuni 13-moddasining oltinchchi qismi.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuziladigan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilgan huquqlar haqidagi axborotni har qanday shaxsga berishi shart.

Axborot, ro'yxatdan o'tkazish qayerda amalga oshirilganidan qat'i nazar, ko'chmas mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazuvchi har qanday organ tomonidan beriladi.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqni yoki u haqda tuzilgan bitimni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud ro'yxatdan o'tkazish muddatlarining buzilishi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi II bo'limi 2-kichik bo'limi, III bo'limi.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va ro'yxatdan o'tkazishni rad etish asoslari qonunchilik bilan belgilab qo'yiladi.

(84-moddaning oltinchchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: Vazirlar Mahkamasining 02.06.1997-yildagi "O'zbekiston Respublikasida binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi 278-soni qarorining 3-band, Vazirlar Mahkamasining 31.12.1998-yildagi 543-soni qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 15-band.

85-modda. Korxona

Butun korxona mulkiy kompleks sifatida ko'chmas mulk hisoblanadi.

Butun korxona yoki uning qismi olish-sotish, garovga qo'yish, ijara hamda ashayoviy huquqlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq boshqa bitimlarning obyekti bo'lishi mumkin.

Mulkiy kompleks bo'lgan korxona tarkibiga uning faoliyati uchun mo'ljallangan hamma mulk turlari, shu jumladan yer uchastkalari, binolar, inshootlar, uskuna, inventar, xomashyo, mahsulot, talab qilish huquqi, qarzlar, shuningdek korxonani, uning mahsuloti, ishlari va xizmatlarini aks ettiruvchi xususiy alomatlarga (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari) bo'lgan huquqlar va boshqa mutlaq huquqlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kiradi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81 — 83, 489 — 496, 497 — 525, 579 — 586-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunining 58-moddasi.

86-modda. Ashyolarning tasnifi

Ashyolar fuqarolik huquqlarining obyektlari sifatida quyidagilarga bo'linadi:
xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilangan ashayolar;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 87-moddasi.

bo'linadigan va bo'linmaydigan ashayolar;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 88-moddasi.

iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashayolar;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 89-moddasi.

asosiy va mansub ashayolar;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 90-moddasi.

murakkab ashayolar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 91-moddasi.

87-modda. Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashayolar

Alovida, faqat o'zigagina xos, uni bir xil ashayolar orasidan ajratib turadigan va shu tariqa xususiy alomatlarga ega bo'lgan ashyo xususiy alomatlari bilan belgilangan ashyo hisoblanadi. Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashayolar jumlasiga noyob, ya'ni o'zi bir dona bo'lgan ashayolar, shuningdek muayyan usul bilan ajratib qo'yilgan ashayolar (muhr bosish, alovida belgilar tushirish, nomer, raqam berish va shu kabilalar) kiradi.

Xususiy alomatlari bilan belgilangan ashayolar boshqasi bilan almashtirib bo'lmaydigan ashyolardir.

Bir turdag'i hamma ashyolarga xos alomatlarga ega bo'lgan hamda soni, og'irligi, o'lchovi va shu kabilar bilan belgilanadigan ashyolar turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar hisoblanadi.

Turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar boshqasi bilan almashtirsa bo'ladigan ashyolardir.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86, 732, 734, 747-moddalari.

88-modda. Bo'linadigan va bo'linmaydigan ashyolar

Bo'lish natijasida har qaysi qismi butunning xossalarni o'zida saqlab qoladigan va shu bilan birga o'zining xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini yo'qotmaydigan ashyo bo'linadigan ashyo hisoblanadi.

Bo'lish natijasida qismalari dastlabki ashyoning xossalarni yo'qotadigan, uning xo'jalik (maqsadli) ahamiyatini o'zgartiradigan ashyo bo'linmaydigan ashyo hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86-moddasi, 216-moddasi to'rtinchchi qismi.

89-modda. Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar

Bir karra foydalanish natijasida yo'qolib ketadigan yoki dastlabki holatida mavjud bo'lmay qoladigan ashyolar (xomashyo, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari va shu kabilar) iste'mol qilinadigan ashyolar hisoblanadi.

Qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari) iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 14.04.1999-yildagi "Lizing to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 01.12.2011-yildagi "Mulk ijarasi shartnomasiga oid fuqarolik qonun hujjatlari normalarini iqtisodiy sudlar tomonidan qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 3-bandasi.

90-modda. Asosiy va mansub ashyolar

Foydalanish tufayli vujudga keladigan munosabatlarning mohiyati bilan boshqa ashyo (mansub ashyo)ga bog'liq mustaqil ashyo asosiy ashyo hisoblanadi.

Asosiy ashyoga xizmat qilishi kerak bo'lgan va u bilan umumiy xo'jalik vazifasi orqali bog'liq ashyo mansub ashyo hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Mansub ashyo, agar qonun hujjatlari yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, asosiy ashyoning taqdiriga bog'liq bo'ladi.

(90-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86, 388, 397-moddalari.

91-modda. Murakkab ashylar

Agar turli xil ashylar birikmaning mohiyati bilan belgilanadigan vazifasi bo'yicha foydalanish imkonini beradigan yaxlit bir butunni tashkil etsa, ular bitta ashyo (murakkab ashyo) hisoblanadi.

Murakkab ashyo xususida tuzilgan bitim, agar shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, uning barcha tarkibiy qismlariga taalluqli bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86-moddasi.

92-modda. Hosil va daromadlarga bo'lgan huquq

Ashyodan keladigan hosil va daromadlar, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ashyo egasiga tegishlidir.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86, 536-moddalari.

93-modda. Hayvonlar

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mol-mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

(93-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli *Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Huquqlarni amalga oshirish chog'ida hayvonlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 111-moddasi.

94-modda. Pul (valyuta)

O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi (yangi tahriri)Qonuni39-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 16.07.1994-yildagi "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi PF-870-son Farmoni.

So'm yozib qo'yilgan qiymati bo'yicha qabul qilinishi shart bo'lgan qonuniy to'lov vositasidir.

To'lovlar naqd pul bilan va naqd pulsiz hisob-kitoblar tarzida amalga oshiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 45-bobi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi (yangi tahriri)Qonunning 45-moddasi, "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (03.06.2013-y., ro'yxat raqami 2465).

Oldingi tahrirga qarang.

Hisob-kitoblarni chet el valyutasida amalga oshirish hollari, tartibi va shartlari qonunchilik bilan belgilab qo‘yiladi.

(94-moddaning to‘rtinch qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

95-modda. Valyuta qimmatliklari

Valyuta qimmatliklari deb hisoblanadigan mol-mulk turlari va ular xususida bitimlar tuzish tartibi qonun bilan belgilab qo‘yiladi.

Valyuta qimmatliklariga mulk huquqi umumiy asoslarda himoya qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86, 228 — 233-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonuni.

96-modda. Qimmatli qog‘ozlar

Mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog‘ozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo‘ladi.

Qimmatli qog‘ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o‘sha shaxsga o‘tadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qimmatli qog‘ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi: obligatsiya, veksel, chek, depozit va jamg‘arma sertifikatlari, konosament, aksiya hamda qonunchilik bilan qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

(96-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 86, 740, 741-moddalari, 769-moddasining to‘rtinch qismi, 770, 807-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuni.

8-BOB NOMODDIY NE’MATLAR

97-modda. Intellektual faoliyat natijalari

Ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda intellektual faoliyatning aniq ifoda etilgan natijalari hamda yuridik shaxsning bu natijalarga tenglashtirilgan o‘ziga xos vositalari, ana shu ishlar yoki xizmatlarni ado etayotgan jismoniy yoki yuridik shaxsning mahsulotlari (firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va h.k.)ga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e’tirof etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Mutlaq huquq obyekti bo‘lgan intellektual faoliyat natijalari va o‘ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining ruxsati bilangina foydalanishlari mumkin.

(97-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 16-yanvardagi O‘RQ-79-sonli Qonuni tahririda — O‘RQHT, 2007-y., 3-son, 21-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 1031 — 1111-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuni, “Ixтиolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuni, “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy

nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, “Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida”gi Qonuni, “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma‘lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

98-modda. Xizmat va tijorat siri

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolik qonunchiligi xizmat yoki tijorat siri bo‘lgan axborotni, basharti bu axborot uchinchi shaxslarga noma‘lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qimmatiga ega bo‘lgan, qonun yo‘li bilan undan erkin bahramand bo‘lish mumkin bo‘lmagan hamda axborot egasi uning maxfyligini saqlashga doir choralar ko‘rgan hollarda himoya etadi.

(98-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 1095 — 1097-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuning 37-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni 27-moddasining uchinchi qismi.

99-modda. Shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar

Shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug‘ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo‘lgan boshqa nomoddiy ne’matlar tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi. Vafot etgan kishiga tegishli bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda boshqa shaxslar, shu jumladan huquq egasining vorislari tomonidan amalga oshirilishi va himoya etilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 100, 1033, 1051, 1077, 1085, 1092-moddalari, 1113-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonuning 18-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishma ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.06.1992-yildagi “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo‘llash to‘g‘risida”gi 5-PL-92-son qarori.

100-modda. Sha’n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sini himoya qilish

Fuqaro o‘zining sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma‘lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma‘lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo‘li bilan raddiya talab qilishga haqli.

Manfaatdor shaxslarning talabiga ko‘ra fuqaroning sha’ni va qadr-qimmatini uning vafotidan keyin ham himoya qilishga yo‘l qo‘yiladi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishma ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.1992-yildagi “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo‘llash to‘g‘risida”gi 5-sonli qarori.

Basharti, fuqaroning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar ommaviy-axborot vositalarida tarqatilgan bo‘lsa, ayni shu ommaviy-axborot vositalarida raddiya berilishi lozim.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni 34-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.1992-yildagi “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo’llash to‘g‘risida”gi 5-sonli qarorining 1, 3, 14-bandlari.

Basharti, bunday ma’lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerak.

Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.1992-yildagi “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo’llash to‘g‘risida”gi 5-sonli qarorining 6, 14-bandlari.

Fuqaro ommaviy axborot vositalarida uning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini kamsituvchi ma’lumotlar e’lon qilinganda u ayni o’sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o‘zini himoya qilish huquqiga ega.

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoidabuzarga qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jarimani to‘lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi.

(100-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.1992-yildagi “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo’llash to‘g‘risida”gi 5-sonli qarorining 15-band.

O‘zining sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatilgan fuqaro bunday ma’lumotlar rad etilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma’naviy ziyonning o‘rnini qoplashni talab qilishga haqlidir.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 81, 1021, 1022-moddalari



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.1992-yildagi “Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo’llash to‘g‘risida”gi 5-sonli qarorining 13-band.

Ushbu moddadagi fuqaroning ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qoidasi yuridik shaxsning ishchanlik obro‘sini himoya etishga nisbatan ham tegishli yo‘sinda tatbiq etiladi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.1992-yildagi "Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi 5-sonli qarorining 7-bandi, O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuning 35-moddasi.

4-kichik bo'lim BITIMLAR VA VAKILLIK

9-BOB BITIMLAR

1-§. Bitimlar tushunchasi. Turlari va shakli

101-modda. Bitimlar tushunchasi

Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytildi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 102 — 128, 353, 1120, 1181-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-sonli qarorining 3-bandi.

102-modda. Bitim turlari

Bitimlar bir taraflama, ikki taraflama yoki ko'p taraflama (shartnomalar) bo'lishi mumkin.
Oldingi tahrirga qarang.

Bitim tuzish uchun qonunchilikka yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanadi.

(102-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Shartnomada tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko'p taraf (ko'p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo'lishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 102, 104 — 128, 353, 1120-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-sonli qarorining 2-bandi.

103-modda. Bir taraflama bitimlarni huquqiy tartibga solish

Oldingi tahrirga qarang.

Bir taraflama bitim uni tuzgan shaxs uchun burchlar keltirib chiqaradi. U boshqa shaxslar uchun qonun hujjatlarida yoki bu shaxslar bilan kelishuvda belgilangan hollardagina burchlar keltirib chiqarishi mumkin.

(103-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Bir taraflama bitimlarga nisbatan, basharti qonunchilikka, bitimning tabiatiga zid bo‘lmasa, majburiyatlar va shartnomalar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar (ushbu Kodeksning III bo‘limi) tegishincha qo‘llaniladi.

(103-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 102, 104 — 128, 1120, 1121-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 17-sonli qarorining 2-bandiga “a” kichik bandi.

104-modda. Shartli bitimlar

Agar taraflar huquq va burchlarning kelib chiqishini yuz berishi yoki bermasligi noma’lum bo‘lgan holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bitim kechiktirish sharti bilan tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar huquq va burchlarning bekor bo‘lishini yuz berishi yoki bermasligi noma’lum holatga bog‘liq qilib qo‘ysalar, bunday bitim bekor bo‘lish sharti bilan tuzilgan bitim hisoblanadi.

Agar shartning yuz berishiga uning yuz berishidan manfaatdor bo‘lmagan taraf insofsizlik bilan qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsa, bu shart yuz bergan deb hisoblanadi.

Agar shartning yuz berishiga ushbu shartning yuz berishidan manfaatdor bo‘lgan taraf insofsizlik bilan yordamlashgan bo‘lsa, bu shart sodir bo‘lmagan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101 — 103, 105 — 128, 1121-moddalari.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101 — 103, 105 — 128, 1121-moddalari.

105-modda. Bitimlarning shakli

Bitimlar og‘zaki yoki yozma (oddiy yoki notarial tasdiqlangan) shaklda tuziladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 102, 106 — 108-moddalari.

Oldingi tahrirga qarang.

Sukut saqlash qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda bitim tuzishga bo‘lgan xohish-iordaning ifodasi hisoblanadi.

(105-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 102-moddalari, 370-moddasining uchinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

106-modda. Bitimning og‘zaki shakli

Qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida yozma shakl belgilab qo‘yilmagan, jumladan u tuzilayotgan vaqtning o‘zidayoq bajariladigan bitim og‘zaki tuzilishi mumkin. Shaxsning xatti-

harakatidan uning bitim tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan holda ham bunday bitim tuzilgan hisoblanadi.

Jeton, patta yoki odatda qabul qilingan boshqa belgi berish yo‘li bilan tasdiqlangan bitim, agar qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, og‘zaki shaklda tuzilgan bitim hisoblanadi.

Yozma shaklda tuzilgan shartnomani bajarishga qaratilgan bitimlar, agar qonunchilik va shartnomaga zid bo‘lmasa, taraflarning kelishuviga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin.

(106-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 102, 107, 108-moddalari, 289-moddasining ikkinchi qismi, 504-moddasining birinchi qismi, 539-moddasining birinchi qismi, 710-moddasining ikkinchi qismi, 733-moddasining birinchi qismi, 877-moddasining ikkinchi, uchinchiqismlari, 984-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 8-moddasining to‘rtinchi qismi.

107-modda. Bitimning yozma shakli

Yozma shaklda tuzilgan bitimi, agar ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa, taraflar yoki ularning vakillari imzolashi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikka yoki ishtirokchilardan birining talablariga zid bo‘lmasa, bitim tuzish chog‘ida imzdalan faksimile usulida nusxa ko‘chirish vositalaridan foydalanimishiga yo‘l qo‘yiladi.

(107-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Ikki taraflama bitimlar har birini berayotgan taraf imzolaydigan hujjatlarni o‘zaro ayirboshlash yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasining mazmunini ifodalaydigan boshqa hujjatlarni o‘zaro ayirboshlash, agar qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi.

(107-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 102-moddalari, 366-moddasining to‘rtinchi, beshinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda va taraflarning kelishuvida bitim shakli mos kelishi shart bo‘lgan qo‘srimcha talablar (muayyan shakldagi blankada tuzilishi, muhr bosib (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanishi va boshqalar) belgilab qo‘yilishi va bu talablarga rioya etmaslik oqibatlari nazarda tutilishi mumkin.

(107-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101 — 105-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 07.03.2006-yildagi 38-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Avtomototransport vositalari bilan bog’liq bitimlarni rasmiylashtirish tartibi to ‘g’risida”gi Nizomning 8-bandasi.

Agar fuqaro jismoniy kamchiligi, kasalligi yoki savodsizligi tufayli bitimni shaxsan o’zi imzolay olmasa, uning iltimosiga binoan bitimni boshqa fuqaro imzolashi mumkin. Boshqa fuqaroning imzosi notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan boshqa mansabdar shaxs tomonidan guvohlantirilib, bitim tuzuvchi uni shaxsan o’zi imzolay olmasligining sabablari ko‘rsatilishi shart.

Yozma shaklda tuzilgan bitimni bajargan taraf ikkinchi tarafdan ijroni tasdiqlovchi hujjat talab qilishga haqli. Og‘zaki tadbirkorlik bitimini bajargan taraf ham ana shunday huquqqa ega, tuzilgan vaqtning o‘zidayoq bajariladigan bitimlar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101 - 105-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to ‘g’risida”gi Qonuni 23-moddasi birinchi qismining 9-bandasi, 28-moddasi birinchi qismining 10-bandasi, 34-moddasining ikkinchi qismi.

108-modda. Bitimning oddiy yozma shakli

Notarial tasdiqlanishi talab etiladigan bitimlardan tashqari, quyidagi bitimlar oddiy yozma shaklda tuziladi:

- 1) yuridik shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan bitimlari;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 16, 39-moddalari.

Oldingi tahrirga qarang.

- 2) fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa — bitim summasidan qat’i nazar, boshqa bitimlar.

(108-modda birinchi qismining 2-bandasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)

Ushbu Kodeksning 106-moddasiga muvofiq og‘zaki tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar uchun oddiy yozma shaklga rioya etish talab qilinmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 105-moddalari, 271-moddasining ikkinchi qismi, 292-moddasining uchinchi qismi, 480-moddasi, 504-moddasining uchinchi qismi, 539-moddasining birinchi qismi, 574-moddasining birinchi qismi, 603-moddasi.

109-modda. Bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik oqibatlari

Bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning ko‘rsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi.

Taraflar bitimning tuzilganligini, mazmuni yoki bajarilganligini yozma yoki boshqa dalillar bilan tasdiqlashga haqlidirlar.

Qonunda yoki taraflarning kelishuvida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan hollarda bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 105, 108, 114, 115-moddalari, 271-moddasining beshinchi qismi, 292-moddasini, 504-moddasining uchinchi, to'rtinchi qismlari, 574-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, 733-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, 745-moddasini, 761-moddasining uchinchi qismi, 774-moddasini, 854-moddasining birinchi, uchinchi qismlari, 927-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyatida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarorining 21-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyatida qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 103-son qarorining 3-bandi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 269-son qarorining 10-bandi.

110-modda. Bitimlarni notarial tasdiqlash

Bitimni notarial tasdiqlash ushbu Kodeksning 107-moddasini talablariga mos keladigan hujjatda notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlovchi ustxat yozib qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda bitimlarni notarial tasdiqlash shart:

- 1) qonunda ko'rsatilgan hollarda;
- 2) taraflardan birining talabi bo'yicha.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 105, 108-moddalari, 271-moddasining uchinchi qismi, 386-moddasining to'rtinchi qismi, 488-moddasining ikkinchi qismi, 490-moddasining birinchi qismi, 497-moddasining ikkinchi, uchinchi qismlari, 504-moddasining beshinchi, oltinchi qismlari, 513-moddasini, 531-moddasining uchinchi qismi, 565-moddasining ikkinchi qismi, 574-moddasining uchinchi qismi, 580-moddasining birinchi qismi, 603-moddasining ikkinchi qismi, 626¹-moddasining ikkinchi qismi, 1124-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 14-moddasining ikkinchi, to'rtinchi, oltinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 7-bobi, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuni 11-moddasini ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasining birinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyatida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarorining 3-bandi.

111-modda. Bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mol-mulk bilan bog'liq bitimlar (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara, merosni qabul qilib olish va boshqalar) davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 105-moddalari, 271-moddasining to'rtinchi qismi, 481-moddasining birinchi qismi, 488-moddasining ikkinchi qismi, 490-moddasining birinchi qismi, 494-moddasining birinchi qismi, 504-moddasining beshinchi qismi, 513-moddasini, 539-moddasining ikkinchi qismi, 565-moddasining ikkinchi qismi, 574-moddasining uchinchi qismi, 580-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 22-moddasining uchinchi, to'rtinchi qismlari, 35-moddasini, "Garov to'g'risida"gi Qonun 11-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasining birinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ko‘chmas mol-mulk xususida tuzilgan bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va tegishli reyestrlarni yuritish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

(111-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi “Davlat yer kadastro to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 31.12.1998-yildagi 543-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 02.06.1997-yildagi 278-son qarori bilan tasdiqlangan “Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda muayyan turdag'i ko‘char mol-mulk xususida tuziladigan bitimlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish belgilab qo‘yilishi mumkin.

(111-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 101, 105-moddalari, 386-moddasining to‘rtinchi qismi, 497-moddasininguchinchi qismi, 504-moddasining oltinchi qismi, 1088, 1089-moddalari, 1106-moddasining birinchi qismi, Vazirlar Mahkamasining 07.03.2006-yildagi 38-son Qarori bilan tasdiqlangan “Avtomototransport vositalari bilan bog‘liq bitimlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom 2-bandining uchinchi xatboshisi.

112-modda. Bitimning notarial shakliga va uni ro‘yxatdan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslikning oqibatlari

Bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksining 110, 111-moddalari, 113-moddasining birinchi qismi, 114-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishma ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 11-bandibirinchi xatboshisi.

Agar taraflardan biri notarial tasdiqlash talab qilinadigan bitimni to‘la yoki qisman bajargan bo‘lsa, ikkinchi taraf esa — bitimni notarial rasmiylashtirishdan bosh tortsa, sud bitimni bajargan tarafning talabi bo‘yicha uni haqiqiy deb hisoblashga haqlidir. Bu holda bitimni keyinchalik notarial rasmiylashtirish talab qilinmaydi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishma ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 11.1-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 17-son qarorining 4-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi “Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi qarorining 4-bandikkinchi xatboshisi.

Agar davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinadigan bitim kerakli shaklda tuzilgan bo‘lib, ammo taraflardan biri uni ro‘yxatdan o‘tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli. Bunday holda bitim sud qaroriga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkaziladi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 11.2-bandi.

Ushbu moddaning **ikkinchi** va **uchinchi** qismlarida nazarda tutilgan hollarda bitimni notarial tasdiqlash yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan asossiz bosh tortayotgan taraf bitimni tuzish kechiktirilganligi tufayli yetkazilgan zararni ikkinchi tarafga to‘lashi lozim.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 17-son qarorining 4-bandi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

2-§. Bitimlarning haqiqiy emasligi

113-modda. Nizoli va o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitimlar

Bitim ushbu Kodeksda belgilab qo‘yilgan asoslarga ko‘ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli (nizoli bitim) yoki bunday deb topilishidan qat‘i nazar, haqiqiy emas deb hisoblanadi (o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim).



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksining 101, 105, 115 — 126-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandi.

Nizoli bitimni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talabni ushbu Kodeksda ko‘rsatilgan shaxslar qo‘yishlari mumkin.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 17-son qarorining 17-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 7-bandining birinchi xatboshi.

O‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmagan bitim haqiqiy emasligining oqibatlarini qo‘llanish to‘g‘risidagi talabni har qanday manfaatdor shaxs qo‘yishi mumkin. Sud bunday oqibatlarini o‘z tashabbusi bilan qo‘llashga haqli.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 6-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 4-band birinchi xatboshisi, 7-bandining ikkinchi xatboshisi, 21 — 23, 30, 31-bandlari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

114-modda. Bitimlar haqiqiy emasligining oqibatlari to'g'risidagi umumiyoq qoidalar

Haqiqiy bo'limgan bitim uning haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlardan tashqari boshqa yuridik oqibatlarga olib kelmaydi va u tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy emasdir.

Bitim haqiqiy bo'limganida taraflarning har biri boshqasiga bitim bo'yicha olgan hamma narsani qaytarib berishi, olingan narsani aslicha (shu jumladan olingan narsa mol-mulkdan foydalanish, bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan ifodalanganda) qaytarib berish mumkin bo'limganida esa, agar bitim haqiqiy emasligining boshqa oqibatlari qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa, uning qiymatini pul bilan to'lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksining 101, 105, 113, 115 — 126-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.2004-yildagi "Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 14-son qarorining 20-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 7, 9-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 3, 9, 20, 22 — 25-bandlari, 27-bandining birinchi xatboshisi, 28-band, O'zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuning 38-moddasini ikkinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

115-modda. Bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya etmaslik

Bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya etmaslik qonunda to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan holdagina uning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksining 101, 105-moddalari, 112-moddasining birinchi qismi, 271-moddasining beshinchi qismi, 292-moddasining uchinchi qismi, 361-moddasining ikkinchi qismi, 480-moddasining ikkinchi qismi, 490-moddasining ikkinchi qismi, 574-moddasining ikkinchi qismi, 580-moddasining uchinchi qismi, 745-moddasining ikkinchi qismi, 761-moddasining uchinchi qismi, 774-moddasining ikkinchi qismi, 863-moddasining ikkinchi qismi, 927-moddasining ikkinchi qismi, 1088, 1089-moddalari, 1106-moddasining ikkinchi qismi, 1130-moddasining birinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 11-bandi.

Oldingi tahrirga qarang.

116-modda. Qonunchilikning talablariga muvofiq bo'limgan bitimning haqiqiy emasligi

(116-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikning talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquqtartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emasdir. Bunday bitimga nisbatan ushbu Kodeks 114-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

(116-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksining 101, 105-moddalari, 277-moddasining uchinchi qismi, 289-moddasining to'qqizinchisi, 490-moddasining ikkinchi qismi, 502-moddasining to'rtinchisi, 745-moddasining ikkinchi qismi, 761-moddasining uchinchi qismi, 774-moddasining ikkinchi qismi, 916-moddasining to'rtinchisi, 938-moddasining birinchi qismi, 943-moddasi, 957-moddasining birinchi qismi, 966-moddasi, 967-moddasining ikkinchi qismi, 968-moddasi, 972-moddasining ikkinchi qismi, 1035-moddasining ikkinchi qismi, 1037-moddasining uchinchi, to'rtinchisi qislari, 1051-moddasining oltinchi qismi, 1068-moddasining o'ninchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarori 17-bandining birinchi-ikkinchi xatbosilari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 12, 20-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi hamda Oliy xo'jalik sudi Plenumining 21.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida" 13/150-son qo'shma qarorining 21-bandi ikkinchi xatboshi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-sonli "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 12, 12.1-bandlari, 12.2-bandining ikkinchi xatbosishi.

117-modda. O'n to'rt yoshga to'limgan shaxs tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

O'n to'rt yoshga to'limgan shaxs tomonidan tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas, ushbu Kodeks 29-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan bitimlar bundan mustasno.

Bunday bitimdagи taraflarning har biri bitim bo'yicha olgan hamma narsani ikkinchi tarafga qaytarib berishi, olingan narsani asl holida qaytarib berish mumkin bo'limganida esa — uning qiymatini pul bilan to'lashi shart. Bundan tashqari, muomalaga layoqatli taraf, agar ikkinchi tarafning muomalaga layoqatsizligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tarafga u ko'rgan haqiqiy zararni to'lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 22, 27 — 29, 118, 993, 994-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 324 — 326-moddalari.

118-modda. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs tomonidan ushbu Kodeksning **27-moddasiga** muvofiq uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining roziligi talab qilinadigan hollarda ularning rozilgisiz tuzilgan bitim ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Agar bunday bitim haqiqiy emas deb topilsa, ushbu Kodeks 117-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Bu moddaning qoidalari ushbu Kodeks 22-moddasining **ikkinchi qismi** va **28-moddasida** nazarda tutilgan hollarda to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarga nisbatan tadbiq etilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 22, 27 — 29, 117, 993, 994-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 324 — 326-moddalari.

119-modda. Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim o'z-o'zidan haqiqiy emas. Bunday bitimga nisbatan ushbu Kodeks 117-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasi to'rtinchini qismi, mazkur Kodeksning 30, 32, 119, 996-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 34-moddasi birinchi qismi, 42-moddasi beshinchi qismi, 66-moddasi birinchi qismi, 310 — 316-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 16-moddasi to'rtinchini xatboshisi, 37-moddasi ikkinchi qismi, 43-moddasi birinchi, uchinchi xatboshilar, 173-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasi, 32-moddasi birinchi, o'n ikkinchi qismlari.



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 12.12.2008-yildagi "Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida"gi 24-son qarori 6-bandining **ikkinchi xatboshisi**.*

120-modda. Muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

Spirthi ichimliklarni yoki giyohvand vositalarni suiiste'mol qilish oqibatida muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining rozilgisiz tuzilgan bitimni sud haqiqiy emas deb topishi mumkin. Agar bunday bitim haqiqiy emas deb topilsa, ushbu Kodeks 117-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Bu moddaning qoidalari ushbu Kodeks 29-moddasining **ikkinchi qismiga** muvofiq tuzilgan vaqtning o'zidayoq bajariladigan mayda maishiy bitimlarga taalluqli bo'lmaydi.



LexUZ sharhi

*Qarang: mazkur Kodeksning 23, 31, 32, 997, 1174-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 42-moddasi **ikkinchi qismi**, 66-moddasi **birinchi qismi**, 310, 311, 313 — 315-*

moddalari, O'zbekiston Respublikasining 02.01.2014-yildagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasi, 32-moddasi birinchi, o'n ikkinchi xatboshilari.

121-modda. O'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

Garchi muomalaga layoqatli bo'lsa-da, biroq bitim tuzish vaqtida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan holatda bo'lgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim shu fuqaroning yoki huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari bunday bitimni tuzish natijasida buzilgan boshqa shaxslarning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Keyinchalik muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimni, agar bitimni tuzish paytida fuqaro o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaganligi yoki ularni boshqara olmaganligi isbotlangan bo'lsa, uning vasiysi qilgan da'voga muvofiq sud haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Agar bitim ushbu modda asosida haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, ushbu Kodeks 117-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Bundan tashqari, bitim tuzish paytida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmagan yoki ularni boshqara olmagan tarafga ikkinchi taraf, agar u o'zi bilan bitim tuzgan fuqaroning bunday holatda ekanligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan bo'lsa, qilingan xarajatlarni, yo'qotilgan mol-mulkning yoki unga yetkazilgan shikastning haqini to'lashi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 30, 31, 119, 121-moddalari.



LexUZ sharhi

*Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 11-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 12.12.2008-yildagi "Fuqarolik ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va ekspert xulosasiga baho berishda sud amaliyotida kelib chiqadigan ayrim masalalar haqida"gi 24-son qarori 6-bandining **ikkinchi xatboshi**.*

122-modda. Yanglishish ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

Jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim yanglishish ta'sirida harakat qilgan tarafning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bitimning tabiati, uning narsasining o'z vazifasi bo'yicha foydalanish imkoniyatini ancha pasaytiradigan o'xshashligi yoki sifati haqida yanglishish jiddiy ahamiyatga egadir. Bitimning sabablari xususida yanglishish jiddiy ahamiyatga ega emas.

Agar bitim yanglishish ta'sirida tuzilganligi tufayli haqiqiy emas deb topilsa, ushbu Kodeks 114-moddasining **ikkinchi qismida** nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Bundan tashqari, o'z da'vosiga ko'ra bitim haqiqiy emas deb topilgan taraf yanglishish ikkinchi tarafning aybi bilan yuz bergenligini isbotlay olsa, ikkinchi tarafdan o'ziga yetkazilgan haqiqiy zararni to'lashni talab qilishga haqli. Agar bu hol isbotlanmasa, o'z da'vosiga ko'ra bitim haqiqiy emas deb topilgan taraf ikkinchi tarafning talabi bilan, basharti hatto yanglishish yanglishgan tarafga bog'liq bo'lmanган holatlarga ko'ra yuz bergen bo'lsa ham, yetkazilgan haqiqiy zararni unga to'lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 30, 31, 101, 105, 119 — 121-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi II bo'limining 2-kichik bo'limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 10-bandi ikkinchi xatboschisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 13-bandi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

123-modda. Aldash, zo'rlik, qo'rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

Aldash, zo'rlik, qo'rqtish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi ta'sirida tuzilgan bitim, shuningdek fuqaro og'ir holatlar yuz berishi tufayli o'zi uchun o'ta noqulay shartlar bilan tuzishga majbur bo'lgan, ikkinchi taraf esa bundan foydalanib qolgan bitim (asoratli bitim) jabrlanuvchining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar bitim yuqorida ko'rsatilgan asoslardan biriga ko'ra haqiqiy emas deb topilsa, ikkinchi taraf jabrlanuvchiga uning bitim bo'yicha bajargan hamma narsasini qaytarib berishi kerak, olingan narsani asl holida qaytarishning iloji bo'lmanida esa — uning qiymatini pul bilan to'lashi kerak. Jabrlanuvchi bitim bo'yicha ikkinchi tarafdan olgan mol-mulk, shuningdek ikkinchi tarafga topshirilgan narsa evaziga o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk davlat daromadiga o'tkaziladi. Mol-mulkni asl holida davlat daromadiga o'tkazish mumkin bo'lmasa, uning qiymati pul bilan undirib olinadi. Bundan tashqari, jabrlanuvchiga ikkinchi taraf uning qilgan xarajatlarini, uning mol-mulki yo'qotilishi yoki buzilishi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 119 — 122-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi II bo'limining 2-kichik bo'limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 103-son qarori 8-bandining uchinchi xatboschisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 10-bandi uchinchi — yettinchi xatboschilari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 14 — 14.5, 28-bandlari.

124-modda. Qalbaki va ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi

Yuridik oqibatlar tug'dirish niyati bo'lmanida, nomigagina tuzilgan bitim (qalbaki bitim) o'z-o'zidan haqiqiy emasdir.

Agar bitim boshqa bitimni niqoblash maqsadida tuzilgan bo'lsa (ko'zbo'yamachilik bitimi), taraflar haqiqatda nazarda tutgan bitimga doir qoidalar qo'llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 101, 105, 116-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi "O'zbekiston respublikasining "O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi qarorining 8-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-son qarorining 6-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarorining 15-band.

125-modda. Yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimning haqiqiy emasligi

Yuridik shaxs tomonidan uning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 41, 101, 105, 116-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi II bo'limining 2-kichik bo'limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 16 — 16.3-bandlari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

126-modda. Bitim tuzish vakolatlarini cheklash oqibatlari

Agar shaxsning bitim tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning ta'sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo'yilganiga nisbatan yoinki bitim tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko'rinishi turgan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo'yilgan bo'lsa va bitimni tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo'lsalar, bitimdagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollardagina bitim cheklash belgilanishidan manfaatdor bo'lgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 41, 101, 105, 116 — 132, 134-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi II bo'limining 2-kichik bo'limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi

fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 17-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-ton qarorining 13-band.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

127-modda. Bitimning haqiqiy emas deb hisoblanish payti

Haqiqiy emas deb topilgan bitim u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas hisoblanadi. Bitimning mazmunidan uning faqat kelajak vaqt uchun bekor qilinishi mumkinligi anglashilsa, haqiqiy emas deb topilgan bitim kelajak vaqt uchun harakatdan to'xtaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 41, 105, 116, 128-moddalari.

128-modda. Bitimning bir qismi haqiqiy emasligining oqibatlari

Bitimning bir qismi haqiqiy sanalmasligi bitimga haqiqiy sanalmagan qism qo'shilmasa ham u tuzilgan bo'lar edi, deb taxmin qilish mumkin bo'lsa, uning boshqa qismlarining haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'lmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 41, 105, 116, 127-moddalari.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 41, 105, 116, 127-moddalari.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-ton qarorining 14-band.

10-BOB VAKILLIK VA IShONChNOMA

129-modda. Vakillik

Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 130 — 134-moddalari.

Oldingi tahririga qarang.

O'z xarakteriga ko'ra faqat shaxsan tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda utilgan boshqa bitimlarni vakil orqali tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

(129-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-tonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 694, 704-moddalari, 1120-moddasining ikkinchi qismi.

Vakil o‘ziga vakolat bergen shaxs nomidan shaxsan o‘ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtida vakili bo‘lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas, tijorat vakilligi bo‘lgan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 133-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 39-moddasi, 42-moddasi beshinchi qismi, 47-moddasi to‘rtinchi qismi, 66 — 70 moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 14.05.2010-yildagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo’llanilishi to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 12.2-bandi.

130-modda. Muomalaga layoqatli shaxslar nomidan vakillik qilish

Muomalaga layoqatli shaxslar o‘zlari tanlagan vakillar orqali bitimlar tuzishlari mumkin, bitim o‘z xarakteriga ko‘ra faqat shaxsan tuzilishi mumkin bo‘lgan hollar, shuningdek qonunda ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 129, 132 — 134, 1120-moddalari.

131-modda. Muomalaga layoqatsiz shaxslar nomidan vakillik qilish

Muomalaga layoqatsiz fuqarolar nomidan bitimlarni ularning ota-onalari, farzandlikka oluvchilari va vasiylari tuzadilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 129, 130, 133-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 39-moddasi, 42-moddasi beshinchi qismi, 47-moddasi, 66 — 70-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 14.05.2010-yildagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo’llanilishi to‘g‘risida”gi qarorining 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son “Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 12.2-bandi.

132-modda. Vakolatsiz vakillik

Vakil qilinmagan shaxs tomonidan boshqa shaxs nomidan tuzilgan yoki vakolatlardan tashqari chiqib tuzilgan bitim vakolat bergen shaxs ushbu bitimni keyinchalik ma’qullagan taqdirdagina uning uchun huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Bitim tuzishga vakolat bergen shaxs bitimning ijroga qabul qilinganligidan guvohlik beruvchi harakatlar qilgan holda ham bunday bitim ma’qullangan hisoblanadi.

Bitim tuzishga vakolat bergen shaxs tomonidan bitimning keyinchalik ma’qullanishi uni tuzilgan paytidan boshlab haqiqiy bitimga aylantiradi.

133-modda. Tijorat vakilligi

Tadbirkorlar shartnomalar tuzayotganida ular nomidan doimo va mustaqil suratda vakillik qiluvchi shaxs (tijorat vakili) vakilning vakolatlari ko‘rsatilgan yozma shartnoma asosida, bunday vakolatlar ko‘rsatilmagan taqdirda esa — ishonchnoma asosida ham ish olib boradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tijorat vakili o‘zining ishtirokida tuzilgan shartnomadagi turli taraflarning manfaatlarini faqat bu taraflarning roziligi bilan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollardagina ayni bir vaqtida ifodalashi mumkin.

(133-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar taraflar bilan tuzilgan bitimda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tijorat vakili shartlashilgan haqni va topshiriqni bajarish vaqtida qilgan chiqimlarini teng ulushlarda to‘lashni shartnomadagi taraflardan talab qilishga haqli.

Tijorat vakili o‘ziga berilgan topshiriqni bajarib bo‘lganidan keyin ham savdo bitimlari to‘g‘risida o‘ziga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni sir saqlashi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim sohalaridagi tijorat vakilligining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

(133-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 129 — 132, 817, 818-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 08.06.1994-yildagi 285-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududida qiyamatli qog‘ozlar bilan bitishuvlar tuzish va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom 10-bandining birinchi xatboshi.

134-modda. Ishonchnoma

Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o‘ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko‘rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo‘lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 135 — 144, 1182-moddalari.

135-modda. Ishonchnomaning shakli

Ishonchnoma oddiy yozma shaklda yoki notarial shaklda rasmiylashtiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Notarial shaklni talab qiluvchi bitimlarni tuzish yoxud yuridik shaxslarga nisbatan harakatlarni amalga oshirish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak, ushbu Kodeksning 136, 137, 138-moddalarida nazarda tutilgan hollar va qonunchilik bilan ishonchnomaning o‘zgacha shakli belgilab qo‘yilgan boshqa hollar bundan mustasno.

(135-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 110, 129, 134-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonuni 28-moddasi birinchi qismining 1-bandi, 47-moddasi.

136-modda. Notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtirilgan ishonchnomalar

Quyidagilar notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtiriladi:

Oldingi tahrirga qarang.

gospitallarda, sanatoriylarda va boshqa harbiy-davolash muassasalarida davolanayotgan harbiy xizmatchilarning hamda boshqa shaxslarning shu muassasalarining boshliqlari, ularning tibbiy qism bo'yicha o'rnbosarlari, katta va navbatchi shifokorlari tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar, qo'shilmalar, muassasalar hamda harbiy o'quv yurtlari joylashgan, notarial idoralar va notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa organlar bo'lmagan punktlarda esa — ishchi va xizmatchilarning, ular oilalarining va harbiy xizmatchilar oila a'zolarining shu qism, qo'shilma, muassasa va o'quv yurtlarining komandirlari (boshliqlari) tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo'lgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Notariat to 'g'risida"gi Qonuni 26-moddasi birinchi qismining beshinchi, oltinchi xatboshilari, Vazirlar Mahkamasining 07.03.2006-yildagi 38-son "Avtomototransport vositalarini sotib olish, ulardan foydalanish va ularni boshqa shaxsga berishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to 'g'risida"gi qarori.

(136-moddaning ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 27-sentabrdagi O'RQ-56-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2006-y., 39-son, 385-modda)

137-modda. Ishonchnomaning boshqa shakllari

Oldingi tahrirga qarang.

Xat-xabarlarni, shu jumladan pul va posilkalarni olishga, ish haqini hamda mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa to'lovlarni olishga, mualliflar va ixtirochilarga to'lanadigan haqlarni, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarni, shuningdek bank muassasalaridan summalarini olish haqidagi ishonchnoma vakolat beruvchi ishlaydigan yoki o'qiydigan tashkilot, u yashaydigan uyga xizmat ko'rsatuvchi uy-joydan foydalanish tashkiloti, o'zining yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoxud fuqaro davolanishda bo'lgan davolash muassasasining ma'muriyati tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

(137-modda O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 21-dekabrdagi O'RQ-311-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2011-y., 51-son, 542-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 110, 129, 134, 135-moddalarini, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to 'g'risida"gi Qonuni 15-moddasining ikkinchi qismi, Vazirlar Mahkamasining 01.05.1993-yildagi 195-son qarori bilan tasdiqlangan "Surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka mutbalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash uchun ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalari to 'g'risida"gi Nizomning 14-bandini.

138-modda. Yuridik shaxsning ishonchnomasi

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsnинг muhri (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) bosiladi.

(138-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagи O‘RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 68-moddasi to‘rtinchi qismi. Oldingi tahririga qarang.

Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirish uchun beriladigan ishonchnoma shu yuridik shaxsnинг bosh (katta) buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonunchilik bilan belgilab qo‘yiladi.

(138-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 110, 129, 134, 135, 137-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 07.11.2019-yildagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida”gi Qonuni 39-moddasi.

139-modda. Ishonchnomaning muddati

Ishonchnoma ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o‘z kuchini saqlaydi.

Berilgan kuni ko‘rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Notarius tomonidan tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan, amal qilish muddati ko‘rsatilmagan ishonchnoma uni bergen shaxs tomonidan bekor qilingunicha o‘z kuchini saqlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 110, 129, 134, 135, 137, 145 — 148-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 90-moddasi.

140-modda. Ishonchnoma bo‘yicha vakolatlarni boshqa shaxsga berish (boshqa shaxsga o‘tkazish)

Ishonchnoma berilgan shaxs o‘z vakolatidagi harakatlarni shaxsan amalga oshirishi shart. Basharti, unga ishonchnoma bilan vakolat berilgan bo‘lsa yoki uni ishonchnoma bergen shaxsnинг manfaatlarini himoya qilishga sharoit majbur qilsa, u harakatlarni amalga oshirishni boshqa shaxsga o‘tkazishi mumkin.

Vakolatlarning boshqa shaxsga berilishiga asos bo‘lgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak, ushbu Kodeksning 136, 137, 138-moddalarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Boshqa shaxsga o‘tkazish bo‘yicha berilgan ishonchnomaning amal qilish muddati uning berilishiga asos bo‘lgan asosiy ishonchnomaning amal qilish muddatidan oshib ketishi mumkin emas.

Vakolatlarini boshqaga bergen shaxs ishonchnoma bergen shaxsga buni ma’lum qilishi hamda mazkur shaxs va uning yashash joyi to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni xabar qilishi kerak. Mazkur burchlar bajarilmasa, o‘z vakolatlarini boshqaga bergen shaxs undan vakolat olgan shaxsnинг harakatlari uchun xuddi o‘zining harakatlari kabi javobgar bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 110, 129, 134, 135, 137, 139-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonun 47-moddasining ikkinchi qismi

141-modda. Ishonchnomaning bekor bo'lishi

Ishonchnomaning amal qilishi quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

1) ishonchnoma muddatining tamom bo'lishi;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 139-moddasi.

2) ishonchnoma bergan shaxsning uni bekor qilishi;

3) ishonchnoma berilgan shaxsning bosh tortishi;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 141-moddasining ikkinchi qismi.

4) nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 49, 53, 57-moddalari.

5) nomiga ishonchnoma berilgan yuridik shaxs faoliyatining to'xtatilishi;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 49, 53, 57-moddalari.

6) ishonchnoma bergan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomala layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi;

7) ishonchnoma olgan fuqaroning muomalaga layoqatsiz, muomalaga layoqati cheklangan yoki bedarak yo'qolgan deb hisoblanishi, yoxud uning vafot etishi.

Ishonchnoma bergan shaxs istagan vaqtida ishonchnomani bekor qilishi, ishonchnoma berilgan shaxs esa — undan voz kechishi mumkin. Bu huquqdan voz kechish haqidagi bitim haqiqiy emas.

Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo'lishi bilan uni boshqa shaxsga o'tkazish ham o'z kuchini yo'qotadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 30-moddasi birinchi qismi, 31-moddasining birinchi qismi, 33-moddasining birinchi qismi, 36-moddasining birinchi, to'rtinchi qismlari.

142-modda. Ishonchnomaning bekor bo'lganligi haqida shaxslarga xabar berish

Ishonchnoma bergan shaxs uning bekor bo'lganligi haqida ishonchnoma olgan shaxsni, shuningdek ishonchnoma qaratilgan o'ziga ma'lum uchinchi shaxslarni ham xabardor qilishi shart. Ishonchnoma ushbu Kodeks 141-moddasi birinchi qismining **4-7-bandlarida** nazarda tutilgan asoslar bo'yicha bekor qilingan hollarda ishonchnoma bergan shaxsning huquqiy vorislari zimmasiga ham shunday vazifa yuklatiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 50, 101, 105, 134, 135, 141, 143-moddalari.

143-modda. Ishonchnoma olgan shaxsning ishonchnoma bekor bo‘lganidan keyin qilgan harakatlari

Ishonchnoma olgan shaxsning ishonchnoma bekor bo‘lganligini bilguncha yoki bilishi lozim bo‘lge qilgan harakatlari ishonchnoma bergan shaxs yoki uning huquqiy vorislari uchun uchinchi shaxslarga nisbatan o‘z kuchini saqlab qoladi.

Ishonchnoma olgan shaxsning ishonchnoma bekor bo‘lganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lganidan keyin qilgan harakatlari ishonchnoma bergan shaxs uchun huquq va majburiyatlarini vujudga keltirmaydi.

Agar uchinchi shaxs ishonchnomaning amal qilishi bekor bo‘lganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan bo‘lsa, ushbu muddanining qoidalari qo‘llanilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 50, 101, 105, 134, 135, 141, 142-moddalari.

144-modda. Ishonchnomani qaytarish majburiyati

Ishonchnomaning amal qilishi bekor bo‘lganidan keyin ishonchnoma olgan shaxs yoki uning merosxo‘rlari (huquqiy vorislari) darhol ishonchnomani qaytarib berishlari shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 50, 101, 105, 134, 135, 141 — 143-moddalari.

5-kichik bo‘lim

MUDDATLAR. DA’VO MUDDATI

11-BOB

MUDDATLARNI HISOBBLASH

145-modda. Muddat belgilash

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda yoki bitimda belgilangan, shuningdek sud tomonidan tayinlanadigan muddat kalendar sana bilan yoxud yillar, oylar, haftalar, kunlar yoki soatlar bilan o‘lchanadigan vaqt davrining o‘tishi bilan belgilanadi.

(145-muddanining birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Muddat muqarrar yuz berishi kerak bo‘lgan voqeani ko‘rsatish bilan ham belgilanishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 146 — 163, 649, 651, 652-moddalari.

146-modda. Vaqt davri bilan belgilangan muddatning boshlanishi

Vaqt davri bilan belgilangan muddat kalendar sanadan keyingi yoki uning boshlanish kuni deb belgilangan voqealari yuz beriganidan keyingi kundan o‘ta boshlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145, 147 — 163, 649, 651, 652, 797, 878, 1065, 1183-moddalari.

147-modda. Vaqt davri bilan belgilangan muddatning tamom bo‘lishi

Yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilidagi tegishli oy va kunda tamom bo‘ladi.

Yarim yil deb belgilangan muddatga nisbatan oylar bilan hisoblanadigan muddatlar uchun belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

Yil choraklari bilan hisoblanadigan muddatga nisbatan oylar bilan hisoblanadigan muddatlar uchun belgilangan qoidalar qo'llaniladi. Bunda yil choragi uch oyga teng deb hisoblanadi, yil choraklarining hisobi esa — yil boshidan yuritiladi.

Oylar bilan hisoblanadigan muddat shu muddatning oxirgi oyidagi tegishli kunda tugaydi.

Yarim oy deb belgilangan muddatga kunlar bilan hisoblanadigan muddat deb qaraladi va u o'n besh kunga teng bo'ladi.

Agar oylar bilan hisoblanadigan muddatning tamom bo'lishi tegishli raqam bo'limgan oyga to'g'ri kelsa, u holda muddat shu oyning oxirgi kunida tugaydi.

Haftalar bilan o'lchanadigan muddat shu muddatning oxirgi haftasidagi tegishli kunda tugaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145, 147 — 163, 649, 651, 652, 797, 878, 1065, 1183-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 152-moddasi.

148-modda. Muddatning oxirgi kunida harakatni amalga oshirish tartibi

Agar muddat biron-bir harakatni amalga oshirish uchun tayinlangan bo'lsa, bu harakat muddatning oxirgi kunitagi soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi mumkin.

Agar, bu harakat tashkilotda amalga oshirilishi kerak bo'lsa, u holda muddat belgilangan qoidalarga muvofiq ushbu tashkilotda tegishli operatsiyalar to'xtatiladigan soatda tamom bo'ladi.

Muddatning oxirgi kunida soat yigirma to'rtga qadar aloqa tashkilotiga topshirilgan yoki boshqa aloqa vositalari bilan yuborilgan barcha yozma bayonotlar va xabarlar, pul o'tkazmalari muddatida qilingan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 147, 149 — 163-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 152-moddasi.

12-BOB DA'VO MUDDATI

149-modda. Da'vo muddati tushunchasi

Da'vo muddati — shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 148, 150 — 163-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-soni qarorining 3-bandisi.

150-modda. Umumiy da'vo muddati

Umumiy da'vo muddati — uch yil.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 149, 151 — 163-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 4-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 28.11.2014-yildagi 269-son "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorining 31-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 17-son qarorining 5-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 17.06.2016-yildagi "Davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lмаган, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'rylanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini haqiqiy emas deb topish, ular mansabdar shaxslarining shunday harakatlarini (harakatsizligini) qonunga xilof deb topish to'g'risidagi nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 298-son qarorining 5.2-band.

151-modda. Maxsus da'vo muddatlari

Oldingi tahrirga qarang.

Ayrim turdag'i talablar uchun qonunchilikda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkin.

(151-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, ushbu Kodeks 152-162-moddalarining qoidalari maxsus da'vo muddatlariha ham joriy qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 150, 152 — 163-moddalari, 724-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 24-moddasining ikkinchi qismi, 63-moddasining ikkinchi qismi, 117, 118-moddalari, Uu-joy kodeksi 114-moddasining ikkinchi qismi, Mehnat kodeksi 270-moddasining birinchi qismi, Soliq kodeksining (yangi tahriri) 88-moddasi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 41-moddasi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 23.10.2008-yildagi 232-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi temir yo'l Ustavining 155, 156-bandlari.

152-modda. Da'vo muddatlari o'zgartirish to'g'risidagi bitimning haqiqiy sanalmasligi

Da'vo muddatlari va ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas.

Da'vo muddatlari o'tishini to'xtatish va uning uzilish asoslari ushbu Kodeks bilan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 150, 156, 157-moddalari, 158-moddasining ikkinchi qismi, 160-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 6-band.

153-modda. Da'vo muddatini qo'llash

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo'llanadi.

Qo'llanish to'g'risida nizodagi taraf bayon qilgan da'vo muddatining o'tishi sudning da'veni rad etish haqida qaror chiqarishi uchun asos bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 152, 154 — 163-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 7 — 10-bandlari, Oliy Sud Plenumining 24.09.2004-yildagi "Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 14-son qarori 22-bandining ikkinchi xatboshisi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

154-modda. Da'vo muddatining o'ta boshlashi

Da'vo muddati shaxs o'zining huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan o'ta boshlaydi. Bu qoidadan istisnolar ushbu Kodeks va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Muayyan ijro muddatiga ega bo'lgan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati ijro muddati tamom bo'lganidan keyin o'ta boshlaydi.

Ijro etish muddati belgilanmagan yoki talab qilish payti ijro etish muddati bilan belgilangan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati kreditorda majburiyatni bajarish to'g'risida talab qo'yish huquqi paydo bo'lgan vaqtdan o'ta boshlaydi, bordi-yu, qarzdorga bunday talabni bajarish uchun imtiyozli muddat berilsa, da'vo muddati imtiyozli muddat tamom bo'lganidan keyin hisoblana boshlaydi.

Regress majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati asosiy majburiyat bajarilgan paytdan o'ta boshlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 153, 155 — 163, 242-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 16.04.1993-yildagi "Sudlar tomonidan mulkni ro'yxatdan chiqarish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanishi to'g'risida"gi 5-13-son qarorining 17-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining 20.07.2011-yildagi "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi 6-son qarorining 28-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 11-band.

155-modda. Majburiyatdagi shaxslarning almashinishi da'vo muddati

Majburiyatdagi shaxslarning almashinishi da'vo muddati va uni hisoblash tartibining o'zgarishiga olib kelmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 153, 155 — 163, 313 — 323-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli Qarorining 11.2-bandi.

156-modda. Da'vo muddati o'tishining to'xtatilishi

Da'vo muddatining o'tishi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

1) agar da'vo qo'zg'atilishi uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (engib bo'lmas kuch) to'sqinlik qilgan bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasi Hukumati majburiyatlarni bajarishni kechiktirganligi (moratoriyl) tufayli;

3) agar da'vogar yoki javobgar harbiy holatga o'tkazilgan Qurolli Kuchlar, chegara qo'shnlari va ichki qo'shnlar tarkibida bo'lsa;

4) agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa;

Oldingi tahrirga qarang.

5) tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatining amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

(156-modda birinchi qismining 5-bandi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

6) mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilgan taqdirda.

(156-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagi O'RQ-531-sonli Qonuniga asosan 6-band bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)

Agar ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida vujudga kelgan yoki davom etib turgan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi to'xtatiladi.

Muddatning to'xtatib turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 131, 145 — 148-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 15.02.2005-yildagi 63-son qarori bilan tasdiqlangan "Engib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlarini tasdiqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 2-bandi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 12-bandi.

157-modda. Da'vo muddati o'tishining uzilishi

Da'vo muddatining o'tishi belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan, shuningdek majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi.

Uzilishdan keyin da'vo muddatining o'tishi yangidan boshlanadi, uzilishgacha o'tgan vaqt esa — yangi muddatga qo'shilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 131, 145 — 148-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi II bo'limining 2-kichik bo'limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 11.1, 13 — 15-bandlari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

158-modda. Da'vo ko'rilmasdan qoldirilgan taqdirda da'vo muddatining o'tishi

Agar da'vo sud tomonidan ko'rilmasdan qoldirilgan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilganga qadar o'ta boshlagan da'vo muddati umumiy tartibda davom etadi.

Agar jinoyat ishi bo'yicha qo'zg'atilgan da'vo sud tomonidan ko'rilmasdan qoldirilgan bo'lsa, da'vo qo'zg'atilgunga qadar o'ta boshlagan da'vo muddati da'veni ko'rmasdan qoldirgan hukm qonuniy kuchga kirgunicha to'xtatib turiladi, da'vo muddati to'xtatib turilgan vaqt da'vo muddatiga qo'shilmaydi. Bunda muddatning qolgan qismi olti oydan kam bo'lsa, u olti oygacha uzaytiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 131, 145 — 148-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 8-bobi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 15, 15.1-bandlari.

159-modda. Da'vo muddatini tiklash

Basharti, sud da'vo muddatining o'tkazib yuborilganligi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi kerak. Da'vo muddatini o'tkazib yuborish sabablari da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oyga teng yoki olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatida yuz bergen bo'lsa, ular uzrli deb hisoblanishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 150 — 158-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 16, 16.3-bandlari.

160-modda. Maxsus da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi

Da'vo muddatining to'xtatilishi, uzilishi va tiklanishi haqidagi qoidalar (ushbu Kodeksning 156, 157 va 159-moddalari), agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, maxsus da'vo muddatiga nisbatan ham qo'llanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 150, 156 — 159-moddalari, 724-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 24-moddasining ikkinchi qismi, 63-moddasining ikkinchi qismi, 117, 118-moddalari, Uy-joy kodeksi 114-moddasining ikkinchi qismi, Mehnat kodeksi 270-moddasining birinchi qismi, Soliq kodeksining 88-moddasi, "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 41-moddasi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 23.10.2008-yildagi 232-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi temir yo'l Ustavining 155, 156-bandlari.

161-modda. Da'vo muddati o'tganidan keyin majburiyatni bajarish

Da'vo muddati o'tganidan keyin majburiyatini bajargan shaxs ijro etish paytida da'vo muddatining o'tib ketganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lganligidan qat'i nazar, bajargan narsasini qaytarishni talab qilishga haqli emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 148, 150 — 160-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli qarorining 17-band.

162-modda. Qo'shimcha talablarga nisbatan da'vo muddatini qo'llash

Asosiy talab bo'yicha da'vo muddati o'tishi bilan qo'shimcha talablar (neustoyka, garov, kafolat va shu kabilar) bo'yicha da'vo muddati ham o'tgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 148, 150 — 160, 259-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-sonli Qarorining 17.1-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qo'shma Qarori 36-bandining ikkinchi xatboshisi.

163-modda. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar

Da'vo muddati quyidagilarga joriy qilinmaydi:

Oldingi tahrirga qarang.

shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

(163-moddaning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 150 — 162-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 28.04.2000-yildagi "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 7-son qarorining 15-bandni, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.06.992 yildagi "Sud amaliyotida fuqaro va tashkilotlarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo'llash to'g'risida"gi 5-PL-92-son qarorining 12-bandni.

omonatchilarning o'z omonatlarini berish to'g'risida bankka qo'yadigan talablariga;

fujaroning hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga. Da'vo muddati o'tganidan keyin qo'zg'atilgan talablar da'vo qo'zg'atilishidan oldindi ko'pi bilan uch yil bo'yicha qondiriladi;



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 270-moddasi uchinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.12.2003 "Mehnat vazifalarini bajarishi munosabati bilan xodimning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplashga oid nizolar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 18-son qarori 6-bandining birinchi, uchinchi xatboshilari.

jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to'lash haqidagi talablarga;



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 276-moddasi, 281-moddasining ikkinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016-yil 27-dekabrdagi 26-sonli "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori.

Oldindi tahrirga qarang.

mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o'z huquqini har qanday buzishlarni, garchi bu buzishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham (ushbu Kodeksning 231-moddasi), bartaraf etish haqidagi talablari;

(163-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-martdagisi O'RQ-531-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son)



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjatlarining da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-son qarorining 18.1-bandni.

mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga;



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi Qonuni 20-moddasining ikkinchi qismi.

qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun Oila kodeksining 12-moddasiga qarang.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 1183-moddasi ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 12-moddasining birinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.06.2015-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan fuqarolik qonun hujjalarning da'vo muddatiga oid normalarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 282-son qarori 18-bandining birinchi, ikkinchi xatbosilari, 18.2-bandi.

II BO'LIM MULK HUQUQI VA BOSHQQA AShYoVIY HUQUQLAR

13-BOB UMUMIY QOIDALAR

164-modda. Mulk huquqi tushunchasi

Mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasi birinchi qismi, 54-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 11-moddasininguchinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

165-modda. Mulkdor bo'limgan shaxslarning ashyoviy huquqlarining mazmuni

Mulk huquqi bilan bir qatorda xususan quyidagilar ashyoviy huquqlar hisoblanadi:
xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi;



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14-bobi.

meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi;



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 19-moddasi.

yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi;



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 20-moddasi.

servitutlar.



LexUZ sharhi

*Qarang: mazkur Kodeksning 173-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 30-moddasi.
Oldingi tahrirga qarang.*

Mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi, agar qonunchilikda o'zga tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu mol-mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarning bekor bo'lishi uchun asos bo'lmaydi.

(165-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 482-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 32-moddasi.

Mulkdor bo'limgan shaxsning ashyoviy huquqlarining buzilishi ushbu Kodeksning 232-moddasida nazarda tutilgan tartibda himoya qilinadi.

166-modda. Mulkning daxlsizligi

Mulk daxlsizdir va qonun bilan qo'riqlanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 60, 61-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 10-bobi, 172, 173, 295, 296-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuning 32, 33-moddalari.

Mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlaridan iboratdir.

Oldingi tahrirga qarang.

Mulkdorning mol-mulkini olib qo'yishga, shuningdek uning huquqlarini cheklashga faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

(166-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi ikkinchi qismi, mazkur Kodeksning 199, 203, 204-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 29-moddasi, 36-moddasining uchinchi qismi, 42-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 27-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 211, 289-moddalari, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunning 34-moddasi 2-band, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 16, 17-moddalari.

167-modda. Mulk shakllari

O'zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6 — 17-boblari.

168-modda. Mulk huquqining subyektlari

Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat mulk huquqining subyektlaridir.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 16, 39, 79-moddalari.

Mol-mulk mulk huquqi asosida bir shaxsga yoki ikki va undan ortiq shaxslarga qarashli bo‘lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 18-bobi.

Oldingi tahrirga qarang.

Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo‘lishiga qarab mulk huquqini, mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish xususiyatlari qonunchilik bilan belgilab qo‘yiladi.

(168-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 210-moddasi, “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat uy-joy fondini xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi Qonun, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 83, 84-moddalari, “Mas‘uliyati cheklangan hamda qo‘sishimcha mas‘uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 43, 44-moddalari.

169-modda. Mulk huquqining obyektlari

Yer, yer osti boyliklari, suvlar, havo bo‘shtag‘i, o‘simglik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xomashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog‘ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk obyektlari mulk bo‘lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 170, 171, 1031-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasi.

170-modda. Yerga va boshqa tabiiy resurslarga bo‘lgan mulk huquqi va o‘zga ashyoviy huquqlar

Yerga va boshqa tabiiy resurslarga bo‘lgan mulk huquqi va o‘zga ashyoviy huquqlar ushbu Kodeks hamda boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsianing 55-moddasi, mazkur Kodeksning 214-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksining 4-bobi, O‘zbekiston Respublikasi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonuning 4, 6-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuning 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Ormon to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuning 3-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “O‘simglik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasi.

171-modda. Uy-joyga bo‘lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni amalga oshirish xususiyatlari

Oldingi tahrirga qarang.

Uy-joyga bo‘lgan mulk huquqini amalga oshirish xususiyatlari va boshqa ashyoviy huquqlar qonunchilik bilan tartibga solinadi.

(171-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 210, 212, 215-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 11 — 14, 22-moddalari.

172-modda. Mulk huquqini amalga oshirish shartlari

Mulkdorning o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: Konstitutsiyaning 54-moddasi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to 'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada mulkdor boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yishga majbur.

(172-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 173-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 30-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to 'g'risida"gi Qonuning 1-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to 'g'risida"gi Qonuning 23-moddasiikkinchi qismi.

Mulkdor o'zining ustunlik mavqeyini suiiste'mol qilishga, boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini kamsitadigan o'zga harakatlarni qilishga haqli emas.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to 'g'risida"gi Qonuning 10-moddasi.

Mulkdor o'z huquqini amalga oshirganida fuqarolarning sog'lig'iga va atrof muhitga zarar yetkazishining oldini olish choralarini ko'rishga majbur.



LexUZ sharhi

Qarang: "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to 'g'risida"gi Qonun 1-moddasining 5-bandı.

173-modda. O'zganining yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqi

Ko'chmas mulk (yer uchastkasi, boshqa ko'chmas mulk) egasi qo'shni yer uchastkasining egasidan, zarur hollarda esa — boshqa yer uchastkasining egasidan ham o'zganining yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini berishni talab qilishga haqlidir.

O'zganining yer uchastkasidan piyoda va transportda o'ta olishni ta'minlash, elektr uzatgich, aloqa va quvur liniyalarini o'tkazish va ulardan foydalanish, suv bilan ta'minlash uchun, shuningdek ko'chmas mulk egasining ehtiyojlarini servitut belgilamay turib ta'minlanishi mumkin bo'lmasa boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun servitut belgilanishi mumkin.

Yer uchastkasida servitut belgilanishi yer uchastkasi egasining ushbu uchastkaga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlaridan mahrum etmaydi.

Servitut belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga muvofiq servitut belgilanadi va u ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Servitutni belgilash xususida

kelisha olinmasa yoki uning shartlarida murosaga kelinmasa, babs servitut belgilashni talab qilayotgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal etiladi.

Uchastka meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi bilan berilgan yoki doimiy egalik qilish va foydalanish huquqi bilan berilgan shaxsning manfaatlari va talabi bo'yicha ham ushbu moddaning **birinchi**, **ikkinchi**, **uchinchi** va **to'rtinchi** qismlarida nazarda tutilgan shartlarda va tartibda servitut belgilanishi mumkin.

Servitut belgilangan uchastkaning egasi, agar qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, servitut kimning foydasini ko'zlab belgilangan bo'lsa, o'sha shaxsdan uchastkadan foydalanganlik uchun mutanosib haq talab qilishga haqlidir.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 30-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi 56-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 16.02.1998-yildagi 69-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududida "Qo'riqlanadigan geodeziya zonalari va geodeziya punktlarini qo'riqlash to'g'risida"gi Nizomning 5-bandi.

174-modda. Mol-mulkni saqlash vazifasi

Oldingi tahrirga qarang.

O'ziga qarashli mol-mulkni saqlash, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdor zimmasidadir.

(174-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 195-moddasining uchinchi qismi, 391-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonun 17-moddasining ikkinchi qismi.

175-modda. Mol-mulkning tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfi

Oldingi tahrirga qarang.

Mol-mulkning tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfi, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulk egasining zimmasidadir.

(175-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 392, 524, 593, 624, 633, 667-moddalari.

14-BOB

XO'JALIK YuRITISH HUQUQI. OPERATIV BOSHQARISH HUQUQI

176-modda. Xo'jalik yuritish huquqi

Xo'jalik yuritish huquqi asosida ixtiyorida mol-mulk bo'lgan unitar korxona bu mol-mulkka ushbu Kodeksda belgilanadigan doirada egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 70-moddasining ikkinchi qismi, 71, 177-moddalari.

177-modda. Xo'jalik yuritishida bo'lgan mol-mulkka nisbatan mulkdorning huquqlari

Xo‘jalik yuritishida bo‘lgan mol-mulkning egasi qonunga muvofiq korxona tashkil etish, uning faoliyat sohasini va maqsadlarini aniqlash, uni qayta tashkil etish va tugatish masalasini hal qiladi, korxona direktorini (rahbarini) tayinlaydi, korxonaga qarashli mol-mulkdan belgilangan maqsadlarda foydalanishi va uning saqlanishini nazorat qiladi.

Mulkdor korxonaning xo‘jalik yuritishida bo‘lgan mol-mulkni ishlatalishdan kelgan foydaning bir qismini olish huquqiga ega.

Unitar korxona xo‘jalik yuritish huquqi asosida o‘ziga qarashli bo‘lgan ko‘chmas mulkni mulkdorning roziligesiz sotishga, ijaraga berishga, garovga qo‘yishga, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarining ustav fondiga hissa sifatida topshirishga yoki bu mol-mulkni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli emas.

Korxonaga qarashli boshqa mol-mulkni u mustaqil tasarruf etadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 70, 71, 176-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 31.10.1990-yildagi “O‘zbekiston respublikasida mulkchilik to‘g‘risida” gi Qonunining 24-moddasi.

178-modda. Operativ boshqarish huquqi

Davlat korxonasi, shuningdek muassasasi o‘zlariga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan qonunda belgilab qo‘yilgan doirada, o‘z faoliyatining maqsadlariga, mulkdorning topshiriqlariga hamda mol-mulkning vazifasiga muvofiq holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradilar.

Davlat korxonasi yoki muassasasiga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkning egasi ortiqcha, foydalanilmayotgan yoki noo‘rin foydalanilayotgan mol-mulkni olib qo‘yish hamda uni o‘zi xohlagan tarzda tasarruf etishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 72, 76, 177, 180-moddalari, 214-moddasining uchinchi qismi, 215-moddasining uchinchi qismi, Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sun qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari to‘g‘risida”gi Nizomning IV bo‘limi.

179-modda. Davlat korxonasining mol-mulkini tasarruf etish

Davlat korxonasi o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni uning mulkdorining roziligi bilangina boshqa shaxsga berishga yoki uni boshqacha usulda tasarruf etishga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat korxonasi o‘zi ishlab chiqaradigan mahsulotni, agar qonunchilikda o‘zgacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, o‘zi mustaqil tasarruf etadi.

(179-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-sun)

Davlat korxonasining daromadlarini taqsimlash tartibi uning mulkdori tomonidan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 70 — 72, 505-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sun Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari to‘g‘risida”gi Nizomning 13, 17-bandlari, VII bo‘limi.

180-modda. Muassasa mol-mulkini tasarruf etish

Muassasa o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni va smeta bo‘yicha unga ajratilgan mablag‘larga sotib olingen mol-mulkni boshqa shaxsga berishga yoki o‘zgacha usul bilan tasarruf etishga haqli emas.

Agar ta’sis hujatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘lsa, bunday faoliyatdan olingen daromad va bu daromad hisobidan sotib olingen mol-mulk muassasaning mustaqil tasarrufiga o‘tadi va alohida balansda hisobga olinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 39, 40, 76, 329-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10, 13-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

181-modda. Xo‘jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo‘lishi

Mulkdorning qarori bilan unitar korxonaga yoki muassasaga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkni xo‘jalik usulida yuritish huquqi yoki operativ boshqarish huquqi ushbu korxona yoki muassasada unga mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi, basharti qonunchilikda yoki mulkdorning qarori bilan boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa.

Xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqarishida bo‘lgan mol-mulkdan foydalanishdan olingen hosil, mahsulot va daromadlar, shuningdek unitar korxona yoki muassasa shartnomalar bo‘yicha yoxud boshqa asoslarda vujudga kelgan mol-mulk ham ushbu Kodeksda, boshqa qonunchilikda mulk huquqining vujudga kelishi uchun belgilab qo‘yilgan tartibda korxona yoki muassasaning xo‘jalik yuritishiga yoki operativ boshqarishiga o‘tadi.

Mol-mulkni xo‘jalik usulida yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi mulkdorning qarori bilan va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslarda bekor qilinadi.

(181-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 71, 72, 182 — 186, 197 — 200-moddalari.

15-BOB

MULK HUQUQINING VUJUDGA KELISHI VA UNING BEKOR BO‘LISHI

182-modda. Mulk huquqining vujudga kelish asoslari

Oldingi tahrirga qarang.

Mulk huquqining vujudga kelish asoslari quyidagilardan iborat: mehnat faoliyati; mol-mulkdan foydalanish sohasidagi tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati, shu jumladan mol-mulkni yaratish, ko‘paytirish, bitimlar asosida qo‘lga kiritish; davlat mol-mulkini xususiylashtirish; meros qilib olish; egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat; qonunchilikka zid bo‘limgan boshqa asoslar.

(182-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 183, 184, 187-moddalari, 69-bobi, Mehnat kodeksining IX bobi, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasi, “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasi.

183-modda. Mulkni yaratish va ko‘paytirish

Mulk huquqi yangi mol-mulkni yaratish hamda mulkdor ixtiyoridagi mol-mulkni ko‘paytirish natijasida vujudga kelishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, mol-mulkdan xo‘jalik usulida va o‘zgacha usulda foydalanish natijalari, shu jumladan mahsulot, hosil va boshqa daromadlar mulkdorga tegishli bo‘ladi.

(183-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 272-moddasining ikkinchi qismi, 536-moddasasi, 964-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonuni 22-moddasining ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Ijara to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasasi.

184-modda. Bitim bo‘yicha mol-mulkni olish

Mol-mulk olish-sotish, ayrboshlash, hadya qilish shartnomalari, hamda qonun bilan taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti, qonun hujjatlarida boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mol-mulk yangi mulkdorga o‘tganida, universal huquqiy vorislik tartibida sobiq mulkdorning huquq va burchlari ham unga o‘tadi.

(184-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 185-moddasasi, III bo‘limining 3-kichik bo‘limi, 284, 393, 484, 549-moddalari, 1035-moddasasi ikkinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonuni 25-moddasining birinchi qismi.

185-modda. Shartnomaga asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqining vujudga kelish payti

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomaga asosida mol-mulk oluvchida mulk huquqi, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ashyo topshirilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

(185-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar mol-mulkni boshqa shaxsga berish haqidagi shartnomaga davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi yoki notarial tasdiqlanishi kerak bo‘lsa, mol-mulkni oluvchida mulk huquqi shartnomaga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki tasdiqlangan paytdan boshlab, shartnomani ham notarial tasdiqlash, ham davlat ro‘yxatidan o‘tkazish zarur bo‘lganida esa — ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84, 111, 186, 365, 388, 390, 424, 481, 486, 488, 490, 493, 513, 531-moddalari.

186-modda. Ashyolarni topshirish

Ashyolarni oluvchiga topshirish, shuningdek yetkazib berish majburiyatini olmagan holda boshqa shaxsga berilgan ashylarni oluvchiga jo‘natish uchun transport tashkilotiga yoki aloqa tashkilotiga topshirish ashylarni topshirish hisoblanadi.

Ashyo oluvchining yoki u ko‘rsatgan shaxsning ixtiyoriga amalda tushgan paytdan boshlab oluvchiga topshirilgan hisoblanadi.

Ashyoni tasarrufdan chiqarish to‘g‘risidagi shartnomalar tuzilayotgan paytgacha u oluvchining ixtiyoriga o‘tib bo‘lgan bo‘lsa, ashyo unga shu paytdan e’tiboran topshirilgan hisoblanadi.

Konosamentni yoki ashyyoga tegishli boshqa tasarruf etuvchi hujjatni topshirish ham ashyonini topshirishga tenglashtiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 390, 541, 578, 581-moddalari, 711-moddasining ikkinchi qismi.

187-modda. Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat

Mulkdor bo‘limgan, lekin ko‘chmas mol-mulkka o‘n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o‘ziniki kabi halol, oshkora va uzlusiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat).



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.2004-yildagi “Yakka tartibda qurilgan uyga bo‘lgan mulk huquqi bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” 14-son qarorining 27-bandni.

Ko‘chmas va boshqa mol-mulkka davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan mulk huquqi ushbu mol-mulkka egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli olgan shaxsda ana shunday ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84-moddasini.

Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli mulk huquqini olganga qadar mol-mulkka o‘ziniki kabi egalik qilib turgan shaxs o‘z egaligini mol-mulkning egalari bo‘limgan, shuningdek qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra egalik qilish huquqi bo‘limgan uchinchi shaxslardan himoya qilish huquqiga ega.

Egalik qilish muddatini vaj qilib keltiradigan shaxs o‘zi huquqiy vorisi bo‘lgan shaxsning bu mol-mulkka egalik qilib kelgan barcha vaqtini o‘zining egalik qilish vaqtiga qo‘sishishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi “Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash va ularni ko‘rish muddatlari to‘g‘risida” 18-son qarorining 11, 12-bandlari.

Shaxs ixtiyorida bo‘lib, ushbu Kodeksning 228, 229, 230 va 232-moddalariga muvofiq uning egaligidan talab qilib olinishi mumkin bo‘lgan ashylarga doir egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tegishli talablar bo‘yicha da’vo muddati tamom bo‘lganidan keyin o‘ta boshlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 150, 151-moddalari, 1185-moddasining uchinchi qismi, Vazirlar Mahkamasining 21.01.2006-yildagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan “Egasiz turar joylarni aniqlash, ularni

hisobga olish va davlat mulkiga o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 16-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorining 11-band.

188-modda. Yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, tartibda va shartlarda yuzaga keladi.

(188-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 30-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 24.07.2006-yildagi "Yuridik shaxslar va fuqarolarning binolari hamda inshootlari bilan band bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida" PF-3780-son Farmoni.

189-modda. Hamma yig'ib olishi mumkin bo'lgan ashylarni mulkka aylantirish

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda yovvoyi mevalar, yong'oq, zamburug'lar, rezavor mevalar hamda o'simlik, hayvonot dunyosi va jonsiz tabiatning hamma olishi mumkin bo'lgan boshqa obyektlarini yig'ish yo'li bilan fuqarolar mulkiga aylantirish tartibi va shartlari belgilab qo'yilishi mumkin.

(189-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasining uchinchi qismi, 30, 34, 36-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Ormon to'g'risida"gi Qonuning 30-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasining uchinchi qismi, 29, 34, 35-moddalari.

Oldingi tahrirga qarang.

190-modda. Moddiy madaniy meros obyektlarini xo'jasizlarcha saqlash

Agar mulkdor o'ziga qarashli moddiy madaniy meros obyektiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning but saqlanishini ta'minlamasa, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini amalgalash oshiruvchi tegishli organlar mulkdorni moddiy madaniy meros obyektiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishni to'xtatish haqida ogohlantiradi. Agar mulkdor ushbu talabni bajarmasa, tegishli organlarning da'vosiga ko'ra sud moddiy madaniy meros obyektini olib qo'yish haqida qaror chiqarishi mumkin va ushbu moddiy madaniy meros obyekti davlat mulkiga o'tadi. Olib qo'yilgan moddiy madaniy meros obyektining qiymati mulkdorga kelishuvda belgilangan miqdorda, nizo chiqqan taqdirda esa sud tomonidan belgilangan miqdorda to'lanadi.

Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda moddiy madaniy meros obyektini olib qo'yish haqidagi da'vo oldindan ogohlantirmsandan ham qo'zg'atilishi mumkin.

(190-modda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-soni Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni II bo'limi, 23-moddasining ikkinchi qismi, 24-moddasi, 26-moddasining ikkinchi qismi.

191-modda. Egasiz ashyo

Egasi bo‘lмаган ўюки egasi нома’лум bo‘lgan ashyo egasiz ashyo hisobланади.

Agar bu hol topilма то‘г‘рисидаги, qаровсиз hayvonlar va xазина то‘г‘рисидаги qoidalarda rad etilmagan bo‘lsa, egasiz ko‘char ashylarga egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qо‘lga kiritilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 187, 192 — 196-moddalari.

Egasiz ko‘chmas ashylар tegishli davlat organining yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko‘chmas mol-mulkni davlat ro‘yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

Egasiz ko‘chmas ashyo hisobga олинганидан keyin bir yil muddat o‘tgach, davlat mol-mulkini boshqarishга vakолати bo‘lgan organ yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi bu ashyonи davlat mulkiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin.

(191-moddaning to‘rtinchи qismi O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 25-apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2016-y., 17-son, 173-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 34-bobi, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni 14-moddasi birinchi qismining sakkizinchи xatboshisi.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan davlat mulkiga o‘tmagan deb hisoblangan egasiz ko‘chmas ashyo uni tashlab ketган mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qо‘lga kiritilishi mumkin.

Egasiz ashylarni aniqlash va hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 36-moddasining oltinchi qismi, Vazirlar Mahkamasining 21.01.2006-yildagi 8-son qarori bilan tasdiqlangan “Egasiz turar joylarni aniqlash, ularni hisobga olish va davlat mulkiga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 03.02.2006-yildagi “Yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida” 3-son qarorining 15-bandi.

192-modda. Topilma

Yo‘qolgan ashyonи topib olgan shaxs bu haqda uni yo‘qotgan shaxsni yoki ashyo egasini yoxud uni olish huquqiga ega bo‘lgan o‘zga ma’lum shaxslardan birontasini darhol xabardor etishi hamda topilgan ashyonи shu shaxsga qaytarishi shart.

Basharti, ashyo binoda yoki transportda topilgan bo‘lsa, u shu binoning yoki transport vositasining egasi bo‘lmish shaxsga topshirilmog‘i lozim. Topilma topshirilgan shaxs ashyoni topib olgan shaxsning huquqlarini qo‘lga kiritadi va uning majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti, topilgan ashyo qaytarilishini talab qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs noma’lum bo‘lsa yoki uning manzili ma’lum bo‘limasa, ashyoni topib olgan shaxs topilma to‘g‘risida ichki ishlar organiga, tegishli davlat organlariga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga ma’lum qilishi shart.

(192-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Ashyoni topib olgan shaxs uni o‘zida saqlab turishga yoki saqlash uchun ichki ishlar organi, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga yoxud ular ko‘rsatgan shaxsga topshirishga haqlidir.

(192-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 191, 193, 194-moddalari.

193-modda. Topilmaga egalik huquqini olish

Oldingi tahrirga qarang.

Agar yo‘qolgan ashyoni olishga haqli bo‘lgan shaxs topilma to‘g‘risida ichki ishlar organiga yoki tegishli davlat organiga xabar qilingan paytdan e’tiboran olti oy mobaynida aniqlanmasa hamda ashyoni topgan shaxsga yoxud ichki ishlar organiga, tegishli davlat organiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga ushbu ashyoga bo‘lgan o‘z huquqi to‘g‘risida arz qilmasa, ashyoni topib olgan shaxs unga egalik huquqini oladi.

(193-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)

Basharti, ashyoni topib olgan shaxs topilgan ashyoni mulk qilib olishdan bosh tortsa, ashyo davlat mulkiga o‘tadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 191, 192, 194-moddalari.

194-modda. Topilma bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash va ashyoni topib olgan shaxsni taqdirlash

Ashyoni topib olgan hamda uni olishga haqli bo‘lgan shaxsga qaytarib bergen shaxs ana shu shaxsdan, ashyo davlat mulkiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga o‘tgan hollarda esa — tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organidan ashyoni saqlash, topshirish yoki sotish bilan bog‘liq xarajatlarni, shuningdek ashyoni olishga haqli bo‘lgan shaxsni topish uchun ketgan xarajatlarni undirish huquqiga ega.

Ashyoni topib olgan shaxs uni olishga haqli bo‘lgan shaxsdan topilma uchun ashyo qiymatining yigirma foiziga qadar miqdorida mukofot talab qilishga haqlidir.

Basharti, topib olingen hujjatlar yoki o‘zga ashyolar ularni olishga haqli bo‘lgan shaxsning o‘zi uchungina qimmatga ega bo‘lsa, mukofot miqdorida shu shaxs bilan kelishuv asosida, kelishuvga erishib bo‘lmagan taqdirda esa — sud orqali belgilanadi. Topilgan ashyoni qaytarib berishni talab

qilishga haqli bo‘lgan shaxs topilma uchun ko‘pchilik o‘rtasida mukofot va’da qilgan bo‘lsa, u ko‘pchilik o‘rtasida va’da qilingan mukofotni o‘sha shartlarga muvofiq to‘laydi.

Basharti, ashyni topib olgan shaxs topilma haqida xabar qilmagan bo‘lsa yoki uni yashirishga uringan bo‘lsa, mukofot olish huquqi vujudga kelmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 191 — 193-moddalari.

195-modda. Qarovsiz hayvonlar

Oldingi tahrirga qarang.

Qarovsiz yoki adashgan chorva mollarini yoxud boshqa qarovsiz uy hayvonlari yoki qo‘lga o‘rgatilgan hayvonlarni tutib olgan shaxs ularni egasiga qaytarishi shart, basharti hayvonlarning egasi yoki uning qayerdaligi noma’lum bo‘lsa, tutib olgan paytdan boshlab uch kundan kechiktirmay topilgan hayvonlar to‘g‘risida ichki ishlar organiga, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga xabar qilishi shart, ular hayvonlarning egasini qidirish choralarini ko‘radilar.

(195-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli *Qonuni tahririda* — *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Hayvonlarning egasi qidirilayotgan vaqtida ularni saqlash hamda ulardan foydalanish uchun tutib olgan shaxsda qoldirilishi yoxud zarur sharoiti bo‘lgan boshqa shaxsga saqlash va foydalanish uchun topshirilishi mumkin. Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxsning iltimosiga ko‘ra hayvonlarni boqishi uchun zarur sharoiti bo‘lgan shaxsni topish hamda hayvonlarni unga topshirishni tuman va shahar obodonlashtirish boshqarmalari huzuridagi qarovsiz hayvonlarni tutish bo‘limlari, tegishli davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi amalga oshiradi.

(195-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-maydagi O‘RQ-542-sonli *Qonuni tahririda* — *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son)

Qarovsiz hayvonlarni tutib olgan shaxs hamda bu hayvonlar saqlash va foydalanish uchun berib turilgan shaxs ularni lozim darajada saqlashlari shart va hayvonlar nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi uchun aybdor bo‘lsalar, hayvonlarning narxi doirasida javobgar bo‘ladilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 985-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda Ichki ishlar vazirligining 29.03.2012-yildagi “Qarovsiz qolgan hayvonlarni otib tashlash tartibi to‘g‘risida yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi qarori.

196-modda. Xazina

Egasi aniqlanishi mumkin bo‘lmagan yoki qonunga binoan huquqlarini yo‘qotgan xazina, ya’ni erga ko‘milgan yoki boshqacha usulda yashirilgan pul yoxud qimmatbaho buyumlar xazina yashirib qo‘yilgan mol-mulk (yer uchastkasi, imorat va shu kabilar) mulkdori bo‘lgan shaxs va xazinani topgan shaxs mulkiga, agar ular o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, teng ulushlarda o‘tadi.

Xazina u yashirib qo‘yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulk egasining rozilgisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs tomonidan topilgan taqdirda, bu xazina u topilgan yer uchastkasining yoki boshqa mol-mulkning egasiga topshirilishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Moddiy madaniy meros obyektlari jumlasiga kiradigan ashylardan iborat xazina topilgan taqdirda, ular davlat mulkiga topshirilishi kerak. Bunda xazina yashirib qo‘yilgan yer uchastkasi yoki boshqa mol-mulkning egasi va xazinani topgan shaxs birgalikda xazina qiymatining ellik foizi miqdorida mukofot olish huquqiga egadirlar. Agar ular o‘rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, mukofot bu shaxslar o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

(196-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Bunday xazinani u yashirib qo‘yilgan mol-mulk egasining rozilgisiz qazishma ishlarini olib borgan yoki boylik qidirgan shaxs topib olsa, bu shaxsga mukofot to‘lanmaydi va xazina batamom mulkdorning ixtiyoriga o‘tadi.

Xazina topish uchun qazishma va qidiruv ishlarini olib borish mehnat yoki xizmat vazifalariga kiradigan shaxslarga nisbatan ushbu moddaning qoidalari qo‘llanilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 22.03.1993-yildagi 151-son qarori bilan tasdiqlangan “Musodara qilingan, egasiz mol-mulkni, vorislik huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni va xazinalarni hisobga olish, baholash va sotish tartibi haqida”gi Nizom.

197-modda. Mulk huquqining bekor bo‘lish asoslari

Oldingi tahrirga qarang.

Mulk huquqi mulkdorning ixtiyoriy suratda majburiyatni bajarishi, mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilishi, sud qarori asosida mol-mulkni olib qo‘yish (sotib olish) yo‘li bilan, shuningdek mulk huquqini bekor qiluvchi qonunchilikka asosan bekor bo‘ladi.

(197-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 198 — 206-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 36-moddasining uchinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 211, 289-moddalari.

198-modda. Mol-mulkni tugatish va hisobdan chiqarish

Oldingi tahrirga qarang.

Mol-mulkni yo‘q qilish (tugatish) natijasida mulk huquqini bekor qilishga qonun hujjatlariga zid bo‘lмаган hollarda yo‘l qo‘yiladi.

(198-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Mulkdor tomonidan tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki o‘zga madaniy qimmatga ega bo‘lgan mol-mulkning yo‘q qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Alovida hollarda sud qarori bilan mazkur mol-mulk musodara qilinishi yoki agar u yo‘q qilingan bo‘lsa, uning qiymati undirib olinishi mumkin.

(198-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O‘RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Mol-mulkni yuridik shaxsning balans hisobidan chiqarish natijasida mulk huquqining bekor qilinishi qonunchilikda yoki ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda amalgalashiriladi.

(198-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni 26-moddasining ikkinchi qismi.

199-modda. Mol-mulkni mulkdordan olib qo‘yish

Oldingi tahrirga qarang.

Mol-mulkni mulkdordan olib qo‘yishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda mulkdorning majburiyatları bo‘yicha undiruv ana shu mol-mulkka qaratilgan taqdirda, shuningdek natsionalizatsiya qilish, rekvizitsiya va musodara qilish tartibida yo‘l qo‘yiladi.

(199-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar qonunga asosan shaxsga tegishli bo‘la olmaydigan mol-mulk uning mulki bo‘lib qolsa, ushbu mol-mulkka nisbatan mulk huquqi sud tartibida bekor qilinib, olib qo‘yilgan mol-mulkning qiymati shaxsga to‘lanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasi ikkinchi qismi, mazkur Kodeksning 202 — 204-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 11-moddasining beshinchi, oltinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 23-moddasi, O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni 5 — 7-boblari, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 16, 17-moddalari.

200-modda. Qarzni nizosiz tartibda undirib olish

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyatlar bo‘yicha qarzni, shu jumladan budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzni nizosiz tartibda undirib olishga qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

(200-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Mulkdor nizosiz tartibda undirib olish to‘g‘risidagi qarorga rozi bo‘lmagan taqdirda sudga murojaat qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) 121-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 09.08.1996-yildagi “Budget bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-1504-son Farmoni 2-bandining ikkinchi xatboshisi, Prezidentning 01.11.2007-yildagi PQ-722-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ijro yig‘imini undirish va foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

201-modda. Qimmatbaho metallar va toshlarga mulk huquqining vujudga kelish hamda bekor bo‘lish xususiyatlari

Oldingi tahrirga qarang.

Xom va ishlov berilgan qimmatbaho metallar va toshlarga (zargarlik va boshqa maishiy buyumlardan tashqari) mulk huquqining vujudga kelish hamda bekor bo‘lish xususiyatlari qonunchilik bilan belgilab qo‘yiladi.

(201-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 167 — 169-moddalari, 13.02.2003-yildagi 75-son qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari"ning VIII bo'limi.

202-modda. Natsionalizatsiya

Oldingi tahrirga qarang.

Natsionalizatsiya — fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli natsionalizatsiya qilinayotgan mol-mulkka nisbatan mulk huquqini haq to'lash asosida qonunga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdan iborat.

(202-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Oldingi tahrirga qarang.

Mazkur mol-mulk keyinchalik denatsionalizatsiya qilingan taqdirda, agar qonun hujjatlarida o'zgacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, sobiq mulkdorlar ushbu mol-mulkning qaytarib berilishini talab qilishga haqlidirlar.

(202-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 285-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 32-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasining ikkinchi qismi, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulknini himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 17-moddasi.

203-modda. Rekvizitsiya

Oldingi tahrirga qarang.

Tabiiy ofatlar, avariylar, epidemiyalar, epizootiyalar yuz bergan taqdirda va favqulodda tusdag'i boshqa vaziyatlarda mol-mulk jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat hokimiyati organi qaroriga muvofiq mulkdordan unga mol-mulkning qiymatini to'lagan holda qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlar asosida olib qo'yilishi mumkin (revvizitsiya).

(203-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

Rekvizitsiya o'tkazilishiga sabab bo'lgan vaziyatlarning amal qilishi to'xtaganidan keyin revvizitsiya qilingan mol-mulkning sobiq egasi saqlanib qolgan mol-mulkni o'ziga qaytarib berishni talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 285-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 289-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 32-moddasining ikkinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasining ikkinchi qismi, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy mulknini himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 17-moddasi.

204-modda. Musodara

Qonunda nazarda tutilgan hollarda mol-mulk sudning qaroriga muvofiq jinoyat yoki o‘zga huquqbazarlik qilganlik uchun haq to‘lamasdan mulkdordan olib qo‘yilishi mumkin (musodara).



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kokeksining 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 289-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 32-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoat fondlari to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasining ikkinchi qismi, Vazirlar Mahkamasining 15.07.2009-yildagi 200-son Qarori bilan tasdiqlangan “Davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni olib qo‘yish, sotish yoki yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

205-modda. Mol-mulkni olib qo‘yish chog‘ida uning qiymatini aniqlash va zararlarni undirib olish huquqi

Oldingi tahrirga qarang.

Mulk huquqi bekor qilinganda olib qo‘yilayotgan mol-mulkning qiymati, agar qonunchilikda boshqacha tartib o‘rnatalgan bo‘lmasa, baholovchi tashkilot tomonidan mulk huquqi bekor qilingan paytda belgilanadi.

(205-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Olib qo‘yilgan mol-mulkning qiymatini mulkdorga to‘lash bahosi haqida mulkdor sudga e’tiroz bildirishi mumkin.

Muldor mol-mulkining olib qo‘yilishi munosabati bilan yetkazilgan boshqa zararlarni to‘lashni ham talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 199, 202 — 204-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuning 23-moddasibeshinchi qismi.

206-modda. Mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo‘yishga qaratmagan holda mulk huquqining bekor qilinishi

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat organining mulkdorning mol-mulkini olib qo‘yishga bevosita qaratilmagan qarori munosabati bilan, shu jumladan mulkdorga qarashli uy, boshqa imoratlar, inshootlar yoki ekinlar joylashgan yer uchastkasini olib qo‘yish to‘g‘risidagi qarori munosabati bilan mulk huquqining bekor qilinishiga qonun hujjalari belgilangan hollar va tartibdagina yo‘l qo‘yiladi, bunda mulkdorga olib qo‘yilgan mol-mulkka teng qimmatli mol-mulk mulk huquqi asosida beriladi va uning ko‘rgan boshqa zararlari to‘lanadi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to‘la hajmda to‘lanadi.

(206-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining 24.09.2012-yildagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuning 19-modda birinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

Olib qo‘yilayotgan yer uchastkasidagi uylarning, boshqa imoratlarning, inshootlarning yoki ekinlarning, shuningdek yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning bozor qiymatini aniqlash belgilangan tartibda baholovchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda xususiy mulk huquqi bekor qilinganda olib qo‘yilayotgan mol-mulkning va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning bozor qiymati bevosita ushbu mol-mulkni olib qo‘yishdan oldingi holatga ko‘ra yoki kelgusida olib qo‘yilishi haqidagi xabar mol-mulkning va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning bozor qiymatiga ta’sir qilgan paytdagi holatga ko‘ra baholovchi tashkilot tomonidan aniqlanadi.

Olib qo‘yilayotgan yer uchastkasidagi uyni, boshqa imoratlarni, inshootlarni yoki ekinlarni buzib tashlashga zararlarning o‘rni bozor qiymati bo‘yicha oldindan va to‘liq qoplanguliga qadar yo‘l qo‘yilmaydi.

(206-modda O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O‘RQ-391-sonli Qonuniga asosan ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan — O‘R QHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

Mulk huquqining bekor qilinishiga olib keladigan qarorga mulkdor rozi bo‘lmagan taqdirda, bu qaror nizo sud tomonidan hal qilingunicha amalga oshirilishi mumkin emas. Nizoni ko‘rib chiqish vaqtida mulkdorga yetkazilgan zararni to‘lash bilan bog‘liq barcha masalalar ham hal qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 37-moddasi, 41-moddasi to‘rtinchisi — beshinchisi qismlari, 86-moddasi birinchi qismining ikkinchi xatboshi, ikkinchi qismi, Uy-joy kodeksining 28, 29-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 02.05.1997-yildagi “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida” 3-son qarori 5-bandining birinchi xatboshi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 14.09.2001-yildagi “Uy-joy nizolari bo‘yicha sud amaliyoti haqida” 22-son qarorining 24-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 03.02.2006-yildagi “Yer kodeksini taqib qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida” 3-son qarorining 16-bandi.

16-BOB XUSUSIY MULK

207-modda. Xususiy mulk huquqi

Oldingi tahrirga qarang.

Xususiy mulk huquqi shaxsning qonunchilikka muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir.

(207-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 11-moddasining uchinchi, to‘rtinchisi qismlari, “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonun 7-moddasining 1-bandi, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun 2-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari.

208-modda. Xususiy mulk huquqining subyektlari

Fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlar, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo‘lmagan boshqa yuridik shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 16, 58, 69, 74, 75-moddalari.

209-modda. Xususiy mulk huquqining obyektlari

Qonun bilan man etilgan ayrim ashylardan tashqari har qanday mol-mulk xususiy mulk bo‘lishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 16, 169-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi.

210-modda. Uy-joy (kvartira)ga mulk huquqining vujudga kelish tartibi

Belgilangan tartibda ajratib berilgan yer uchastkasida qurilayotgan yangi uy-joyga mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(210-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-yanvardagi O‘RQ-602-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Davlatga qarashli uy-joy (kvartira)ga mulk huquqi qonunchilikda nazarda tutilgan xususiylashtirish tartibida vujudga keladi.

(210-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Kooperativ uy-joyga, kvartiraga, garajga, chorboqqa va boshqa binolarga mulk huquqi kooperativ a’zosi pay badallarini batamom to‘lab bo‘lganidan keyin vujudga keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 13-moddasi, 14-moddasining birinchi, yettinchi, sakkizinch qismlari, 22-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 7-moddasining 5-band, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni.



LexUZ sharhi

Qo‘sishma ma‘lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 02.05.1997-yildagi “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida” 3-son qarori.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

Oldingi tahrirga qarang.

211-modda. Ko‘p kvartirali uydagi turar joylar va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar mulkdorlarining umumiyl mol-mulki

Ko‘p kvartirali uydagi turar joylar va yashash uchun mo‘ljallanmagan joylar mulkdorlariga shu uyning umumiyl joylarini, tayanch va to‘siq konstruksiyalar, kvartiralar oralig‘idagi ihotalangan (o‘ralma) pillapoyalar, zinapoyalar, liftlar, liftning shaxtalarini va boshqa shaxtalar, dahlizlar, texnik qavatlar, yerto‘lalar, cherdaklar va tomlar, uy ichidagi muhandislik tarmoqlari va

kommunikatsiyalari, joylar tashqarisida yoki ichida joylashgan va bittadan ortiq joyga xizmat ko'rsatadigan mexanik, elektr, sanitariya-texnika uskunalarini va qurilmalari hamda boshqa uskunalar va qurilmalarni o'z ichiga olgan umumiy mol-mulk ulushli mulk huquqi asosida tegishli bo'ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ko'p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkka egalik huquqidagi turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar mulkdorlari ulushlarining miqdori hamda mazkur mol-mulkni saqlash va asrash bo'yicha xarajatlarni mulkdorlar o'rtasida taqsimlash tartibi uy-joy to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

(211-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ko'p kvartirali uydagi umumiy mol-mulkka nisbatan ulushli mulk ishtirokchisi o'z ulushini boshqa shaxsga berishga, undan fuqarolar yoki yuridik shaxslar foydasiga voz kechishga, shuningdek uni o'ziga qarashli turar joyga yoki yashash uchun mo'ljallanmagan joyga bo'lgan mulk huquqidan alohida tarzda boshqa shaxsga o'tishiga sabab bo'luvchi o'zga xatti-harakatlar sodir etishga haqli emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 216 — 222-moddalari, Uy-joy kodeksining 16¹-moddasining ikkinchi qismi, 124-moddasi, 125 — 127-moddalari.

(211-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 8-yanvardagi O'RQ-77-sonli Qonuni tahririda — O'RQ QHT, 2007-y., 1-2-son, 3-modda)

212-modda. O'zboshimchalik bilan imorat qurish va uning oqibatlari

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchastkalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnomalar olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari hamda qoidalari jiddiy buzgan holda qurilgan uy-joy, boshqa bino, inshoot yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi.

(212-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 23, 24, 26, 27, 55, 61-moddalari.

O'zboshimchalik bilan imorat qurgan shaxs unga mulk huquqini ololmaydi. Bu shaxs qurgan imoratini tasarruf etishga — sotishga, hadya etishga, ijara qurishga, imoratga nisbatan boshqa bitimlar tuzishga haqli emas.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zboshimchalik bilan imorat qurish natijasida huquqlari buzilgan shaxsnинг yoki tegishli davlat organining da'vosi bilan bunday imorat sudning qaroriga binoan imoratni qurgan shaxs tomonidan yoki uning hisobidan buzib tashlanishi lozim, ushbu moddaning **to'rtinchi qismida** nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(212-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagi O'RQ-526-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son — 2019-yil 6-iyundan kuchga kiradi)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 90-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi.

Oldingi tahrirga qarang.

(212-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagি O'RQ-526-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son — 2019-yil 6-iyundan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Imorat qurilgan yer uchastkasining mulkdori bo'lgan, unga umrbod meros sifatida egalik qilayotgan, doimiy egalik qilayotgan va foydalanayotgan shaxsning o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi sud tomonidan e'tirof etilishi mumkin. Bu holda imoratga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilgan shaxs imorat qurgan shaxsning xarajatlarini sud belgilagan miqdorda qoplaydi.

(212-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagি O'RQ-526-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son — 2019-yil 6-iyundan kuchga kiradi)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 91-moddasi.

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratning saqlab qolinishi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari buzilishiga sabab bo'lsa, yoxud fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirsa, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilishi mumkin emas.

(212-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 4-martdagি O'RQ-526-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son — 2019-yil 6-iyundan kuchga kiradi)



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 90 - 91-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 20.01.2000-yildagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan "Uylar va turlar joylarni uy-joy fondiga kiritish tartibi to'g'risida"gi nizomning 8-bandи.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 20.12.1991-yildagi "Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlар bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 5-PL-91-son qarorining 18-bandи uchinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.2004-yildagi "Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 14-son qarorining 3, 23 — 26-bandlari.

17-BOB OMMAVIY MULK

213-modda. Ommaviy mulk tushunchasi

Respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lgan davlat mulki ommaviy mulkdir.

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mulkchilik munosabatlari, shu jumladan ommaviy mulk munosabatlari ushbu Kodeks bilan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

(213-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 214, 215-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi.

214-modda. Respublika mulki

Oldingi tahrirga qarang.

Yer, yer osti boyliklari, suv, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, davlat hokimiyati va boshqaruvi respublika organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy madaniy meros obyektlari, respublika budgetining mablag'lari, oltin zaxirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlari respublika mulkidir, shuningdek korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, o'quv, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari, basharti bular budget yoki davlatning o'zga mablag'lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan bo'lsa, boshqa mol-mulk respublika mulki bo'lishi mumkin.

(214-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi 16-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni 19-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Ormon to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, O'zbekiston Respublikasining "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni 143-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasining birinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi.

Respublika mulki bo'lgan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tasarruf qiladilar.



LexUZ sharhi

Qarang: "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasi.

Respublika mulki bo'lgan mol-mulk davlat yuridik shaxslariga xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo'yilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14-bobi.

Oldingi tahrirga qarang.

Respublika mulki respublika budgetiga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobidan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

(214-moddaning to'rtinchchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)

Oldingi tahrirga qarang.

Respublika mulki obyektlari qonunchilikda belgilab qo‘yilgan tartibda va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin.

(214-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-sonli “Davlat mulki obyektlarini xususiy lashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori.

215-modda. Munitsipal mulk

Davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy budget mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulk munitsipal mulk bo‘ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Munitsipal mulk bo‘lgan mol-mulkni, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar tasarruf etadilar.

(215-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Munitsipal mulk bo‘lgan mol-mulk yuridik shaxslarga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida biriktirib qo‘yilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Munitsipal mulk mahalliy budgetga tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobidan, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

(215-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Munitsipal mulk obyektlari qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlar asosida xususiy mulk qilib berilishi mumkin.

(215-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169-moddalari, 14-bobi, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 22, 23-moddalari, Uy-joy kodeksining 41-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat uy-joy fondini xususiy lashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

18-BOB UMUMIY MULK

216-modda. Umumiyl mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari

Ikki yoki undan ortiq shaxsning egaligida bo‘lgan mol-mulk ularga umumiyl mulk huquqi asosida tegishli bo‘ladi.

Mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo‘yilgan (ulushli mulk) yoki bunday ulushlar aniqlab qo‘yilmagan (birgalikdagi mulk) holda umumiyl mulk bo‘lishi mumkin.

Umumiyl mulk bo‘lgan mol-mulk ulushlarga bo‘linadi, qonunda bu mol-mulkning birgalikdagi mulkni tashkil etishi nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Umumiyl birgalikdagi mulk o‘z vazifasini o‘zgartirmagan holda taqsimlanishi mumkin bo‘lmagan (bo‘linmaydigan ashyolar) yoki qonunga ko‘ra taqsimlanishi mumkin bo‘lmagan mol-mulk ikki yoki undan ortiq shaxs mulkiga o‘tgan paytda vujudga keladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Taqsimlanadigan mol-mulkning umumiyl birgalikdagi mulkligi qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda vujudga keladi.

(216-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Birgalikdagi mulk ishtirokchilarining kelishuviga muvofiq, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa — sudning qaroriga muvofiq umumiyl mulk bu shaxslarning ulushli mulki qilib belgilab qo‘yilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 23-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni 16-moddasining ikkinchi qismi.

217-modda. Ulushli mulkdagi ulushlarni aniqlash

Agar ulushli mulk ishtirokchilarining ulushlari qonun asosida belgilanishi mumkin bo‘lmasa hamda uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, ulushlar teng deb hisoblanadi.

Ulushli mulk barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan ishtirokchilardan har birining ulushini ularning umumiyl mol-mulkni vujudga keltirish va ko‘paytirishga qo‘sghan hissasiga qarab aniqlash va o‘zgartirish tartibi belgilanishi mumkin.

Umumiyl mol-mulkdan foydalanishning belgilab qo‘yilgan tartibiga amal qilgan holda ushbu mol-mulkni o‘z hisobidan ajratib olish mumkin bo‘lmaydigan tarzda yaxshilagan ulushli mulk ishtirokchisi umumiyl mulk huquqidagi o‘z ulushining tegishli darajada ko‘paytirilishiga haqli bo‘ladi.

Umumiyl mol-mulkdagi ajratib olish mumkin bo‘ladigan yaxshilashlar, agar ulushli mulk ishtirokchilarining kelishuvi bilan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, bu yaxshilashlarni amalga oshirgan ishtirokchining mulkiga qo‘shiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 216, 218 — 223-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 23 — 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 125-moddasi.

218-modda. Ulushli mulkdagi mol-mulkni tasarruf etish

Ulushli mulkdagi mol-mulk uning barcha ishtirokchilarining kelishuvi bilan tasarruf etiladi.

Ulushli mulk ishtirokchisi o‘z xohishiga qarab o‘z ulushini sotishga, sovg‘a qilishga, vasiyat qilib qoldirishga, garovga berishga yoki boshqacha tarzda tasarruf etishga ulushni haq evaziga boshqa shaxsga berish chog‘ida ushbu Kodeksning 224-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilgan holda haqli bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 216, 217, 219 — 223, 1114, 1120-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 127-moddasining uchinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

Oldingi tahrirga qarang.

219-modda. Ulushli mulkdagi umumiyl mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish

Ulushli mulkdagi umumiyl mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish uning barcha ishtirokchilar kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda, ulushli mulkdagi umumiyl mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanish sud tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

(219-moddaning nomi va birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 8-yanvardagi O‘RQ-77-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2007-y., 1-2-son, 3-modda)

Ulushli mulk ishtirokchisi umumiyl mol-mulkning ishtirokchi ulushiga teng bo‘lgan qismi o‘zining egaligiga va foydalanishiga berilishiga, buning iloji bo‘lmagan taqdirda esa — o‘z ulushi bo‘lgan mol-mulkka egalik qilayotgan va undan foydalanayotgan boshqa ishtirokchilardan tegishli haq talab qilish huquqiga ega.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 216 — 218, 220 — 223-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 127-moddasasi, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining II bo‘limi 2-kichik bo‘limi.

220-modda. Ulushli mulkdagi mol-mulkdan foydalanish natijasida keladigan hosil, mahsulot va daromadlar

Ulushli mulkdagi mol-mulkdan foydalanish natijasida keladigan hosil, mahsulot va daromadlar umumiyl mol-mulk tarkibiga qo‘shiladi va ulushli mulk ishtirokchilar o‘rtasidagi kelishuvda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ular o‘rtasida ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 92, 164, 168, 169, 216 — 219, 221 — 223-moddalari.

221-modda. Umumiyl ulushli mulkdagi mol-mulkni saqlash xarajatlarini taqsimlash

Oldingi tahrirga qarang.

Har bir mulkdor umumiyl mol-mulk bo‘yicha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda, shuningdek mol-mulkni saqlash va asrash chiqimlarida, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ulushiga qarab qatnashishi shart.

(221-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi O‘RQ-197-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2008-y., 52-son, 513-modda)

Zarur bo‘lмаган hamda mulkdorlardan biri tomonidan qolganlarning roziligesiz qilingan xarajatlar uning o‘z zimmasiga tushadi. Bunda kelib chiqadigan nizolar sud tartibida hal qilinishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 92, 164, 168, 169, 216 — 220, 222-223-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri) 423-moddasi uchinchi qismi, 425-moddasi uchinchi qismi.

222-modda. Umumiyl mulk huquqidagi ulushning shartnomasi bo‘yicha oluvchiga o‘tish payti

Umumiyl mulk huquqidagi ulush shartnomasi bo‘yicha oluvchiga, agar taraflarning kelishuvi bilan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab o‘tadi.

Umumiyl mulk huquqidagi ulushning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan shartnomasi bo‘yicha boshqa shaxsga o‘tish payti ushbu Kodeks 185-moddasining **ikkinci qismiga** muvofiq belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84, 164, 168, 169, 216 — 221, 223-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 23-moddasi.

223-modda. Ulushli mulkdagi mol-mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish

Ulushli mulkdagi mol-mulk ishtirokchilar o‘rtasida ularning kelishuviga muvofiq taqsimlanishi mumkin.

Ulushli mulk ishtirokchisi o‘z ulushini umumiyl mol-mulkdan ajratib berishni talab qilishga haqli.

Ulushli mulk ishtirokchilari umumiyl mol-mulkni taqsimlash yoki ulardan birining ulushini ajratish usuli va shartlari to‘g‘risida kelishuvga erisha olmasalar, ulushli mulk ishtirokchisi o‘z ulushini asl holida ajratib berishni sud orqali talab qilishga haqli.

Agar ulushni asl holida ajratib olishga qonun yo‘l qo‘ymasa yoki uni umumiyl mulk bo‘lgan mol-mulkka nomutanosib zarar yetkazmasdan ajratib olish mumkin bo‘lmasa, ajralib chiqayotgan mulkdor ulushli mulknинг boshqa ishtirokchilari tomonidan ulushining qiymati to‘lanishini talab qilish huquqiga ega.

Ushbu modda asosida ulushli mulk ishtirokchisiga asl holida ajratib berilayotgan mol-mulkning uning mulk huquqidagi ulushiga nomutanosibligi tegishli pul summasini to‘lash yoki boshqacha kompensatsiya to‘lash yo‘li bilan bartaraf etiladi.

Ulushli mulk ishtirokchisiga uning ulushini asl holida ajratib berish o‘rniga boshqa mulkdorlar tomonidan kompensatsiya to‘lanishiga ishtirokchining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Mulkdorning ulushi arzimas bo‘lgan, amalda ajratib berilishi mumkin bo‘lмаган va u umumiyl mol-mulkdan foydalanishdan katta manfaatga ega bo‘lмаган hollarda sud ushbu mulkdor rozilik bermagan taqdirda ham ulushli mulknинг qolgan ishtirokchilari zimmasiga mazkur mulkdorga kompensatsiya to‘lash majburiyatini yuklashi mumkin.

Ushbu moddaga muvofiq mulkdor kompensatsiya olganidan keyin umumiyl mol-muldagi ulushiga bo‘lgan huquqini yo‘qtadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 84, 88, 164, 168, 169-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining II bo‘limi 2-kichik bo‘limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 14.09.2001-yildagi "Uy-joy nizolari bo'yicha sud amaliyoti haqida" 22-son qarorining 6-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.2004-yildagi "Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 14-son qarorining 11 — 16, 18, 19-bandlari.

224-modda. Imtiyozli sotib olish huquqi

Mulkdorlardan biri o'z ulushini boshqa shaxsga sotgan vaqtida qolgan mulkdorlar sotilayotgan ulushni u sotiladigan narxda va boshqa teng shartlarda imtiyozli sotib olish huquqiga egadirlar, kimoshdi savdosi orqali sotish hollari bundan mustasno.

Umumiyl mulkdagi ulushni sotuvchi o'z ulushini o'zga shaxsga sotish niyati haqida boshqa mulkdorlarga yozma ravishda ma'lum qilib, ulushning narxini va uni sotishning boshqa shartlarini ko'rsatishi shart.

Agar qolgan mulkdorlar imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirishdan voz kechsalar yoki bu huquqni xabar qilingan kundan e'tiboran ko'chmas mulkka nisbatan bir oy davomida, boshqa mol-mulkka nisbatan esa — o'n kun davomida amalga oshirmsalar, sotuvchi o'z ulushini har qanday shaxsga sotishga haqli bo'ladi.

Ulush imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotilgan taqdirda, boshqa mulkdorlar uch oy mobaynida sotib oluvchining huquq va majburiyatlarini o'zlariga o'tkazishni sud tartibida talab qilishga haqlidirlar.

Ulushni sotib olishning imtiyozli huquqini boshqa shaxsga berishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat organi yoki boshqa yuridik shaxs umumiyl mulk bo'lgan uy-joy (xonodon)dagli o'z ulushini sotgan vaqtida uyning (xonodonning) tegishli qismida ijaraga oluvchilar sifatida yashayotgan shaxslar ushbu modda qoidalari asosida imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo'ladilar, ular bu huquqdan voz kechsalar yoki uni amalga oshirmsalar — boshqa mulkdorlar bu huquqqa ega bo'ladilar.

Ushbu moddaning qoidalari ayirboshlash shartnomasi bo'yicha ulushni boshqa shaxsga berish chog'ida ham qo'llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 379, 497-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining II bo'limi 2-kichik bo'limi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 16.04.1993-yildagi "Sudlar tomonidan mulkni ro'yxat (arest)dan chiqarish haqidagi ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanishi to'g'risida" 5-13-son qarori 13-bandining beshinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.2004-yildagi "Yakka tartibda qurilgan uyga bo'lgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 14-son qarorining 17-band, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida" 17-son qarorining 22, 23-bandlari.

225-modda. Birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish

Agar birgalikdagi mulk ishtirokchilari o'rtasidagi kelishuv bilan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ular umumiyl mulkka birgalashib egalik qiladilar va undan foydalanadilar.

Birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulk barcha ishtirokchilarning roziligi bilan tasarruf etiladi, mol-mulkni tasarruf etish xususidagi bitim ishtirokchilardan qaysi biri tomonidan tuzilayotgan bo'lishidan qat'i nazar, bunday rozilik talab qilinadi.

Birgalikdagi mulkning har bir ishtirokchisi, agar barcha ishtirokchilarning kelishuvidan boshqacha tartib anglashilmasa, umumiyl mol-mulkni tasarruf etish xususida bitimlar tuzishga haqli. Birgalikdagi mulk ishtirokchilaridan biri tuzgan umumiyl mol-mulkni tasarruf etish bilan bog'liq bitim uni tuzgan ishtirokchining zarur vakolatlari yo'qligi sababli, bitimdagi ikkinchi taraf buni bilgan yoki bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan taqdirdagina qolgan ishtirokchilarning talabiga muvofiq haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Birgalikdagi mulkning ayrim turlari uchun ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda o'zgacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, ushbu moddaning qoidalari qo'llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 216, 226, 379, 497-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 23, 24, 31-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasini uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni 16-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi Qonuni 12-moddasining uchinchi qismi, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuning 6-moddasini yettinchi qismi.

226-modda. Birgalikdagi mulk bo'lgan mol-mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish

Umumiyl mol-mulkni birgalikdagi mulk ishtirokchilari o'rtaida taqsimlash, shuningdek ulardan birining ulushini ajratish dastlab ishtirokchilardan har birining umumiyl mulk huquqidagi ulushi aniqlanganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Umumiyl mulk taqsimlanganida va undan ulush ajratilganida, agar qonunda yoki ishtirokchilarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ularning ulushlari teng hisoblanadi.

Umumiyl mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish asoslari hamda tartibi ushbu Kodeks **223-moddasini** bilan, birgalikdagi mulkning ayrim turlari uchun esa — boshqa qonunlar bilan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 216, 225, 379, 497, 1114-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 27, 28, 31-moddalari.

227-modda. Undiruvni umumiyl mol-mulkdagi ulushga qaratish

Ulushli yoki birgalikdagi mulk ishtirokchisining kreditori mulkdorda boshqa mol-mulk yetarli bo'lmasanida undiruvni qarzdorning umumiyl mol-mulkdagi ulushiga qaratish uchun bu ulushni ajratishni talab qilishga haqli.

Agar bunday hollarda ulushni asli holida ajratish mumkin bo'lmasa yoki ulushli yoxud birgalikdagi mulkning qolgan ishtirokchilari bunga e'tiroz bildirsalar, kreditor qarzdor o'z ulushini umumiyl mulkning qolgan ishtirokchilariga ushbu ulushning qiymatiga mutanosib narxda sotib, sotishdan tushgan mablag'larni qarzni uzishga qaratishini talab qilishga haqli.

Umumiyl mulkning qolgan ishtirokchilari qarzdorning ulushini sotib olishdan voz kechgan taqdirda kreditor undiruvni qarzdorning umumiyl mulk huquqidagi ulushiga ushbu ulushni kimoshdi savdosi orqali sotish yo'li bilan qaratishni sud orqali talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 216-moddalari, 217-moddasini uchinchi qismi, 222-moddasini, 224-moddasini ikkinchi qismi, 225-moddasini birinchi qismi, 226-moddasini birinchi qismi, 379-moddasini, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining II bo'limi 2-kichik bo'limi.

19-BOB

MULK HUQUQINI VA BOSHQ AShYoVIY HUQUQLARNI HIMoya QILISH

228-modda. Mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish (vindikatsiya)

Mulkdor o‘z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli (vindikatsiya).



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164-moddasi, 166-moddasi ikkinchi qismi, 168, 169-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 33-moddasining 1-bandi, O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 23-moddasining birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 20-moddasi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

229-modda. Mol-mulkni insofli egallovchidan talab qilib olish

Agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo‘lмаган shaxsdan haq to‘lab olingan bo‘lsa, oluvchi buni bilmagan va bilishi mumkin bo‘lмаган (insofli egallovchi) bo‘lsa, mol-mulk mulkdor tomonidan yoki egalik qilish uchun mulkdor bergen shaxs tomonidan yo‘qtib qo‘yilgan yoxud mulkdordan yoki u mol-mulkini bergen shaxsdan o‘g‘irlangan yo bo‘lmasa, ularning ixtiyoridan tashqari boshqacha yo‘l bilan ularning egaligidan chiqib ketgan bo‘lsa, mulkdor bu mol-mulkni olgan shaxsdan talab qilib olishga haqli.

Agar mol-mulk sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotilgan bo‘lsa, mol-mulkni ushbu moddaning **birinchi qismida** ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha talab qilib olishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar mol-mulk uni boshqa shaxsga berish huquqiga ega bo‘lмаган shaxsdan haq to‘lamasdan olingan bo‘lsa, mulkdor mol-mulkni barcha hollarda ham talab qilib olishga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Pul insofli egallovchidan talab qilib olinishi mumkin emas.

(229-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrdagi O‘RQ-223-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 423-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 230, 1096-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 19-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni 56-moddasi.

230-modda. Mol-mulk boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olinganda daromadlar va xarajatlarni to‘lash

Ushbu Kodeksning **228-moddasiga** muvofiq, mulkdor mol-mulkini talab qilib olayotganida quyidagilarni ham talab qilib olishga haqlidir:

o‘z egaligining qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan shaxsdan (insofsiz egallovchi) ushbu shaxs mol-mulkka egalik qilgan butun vaqt davomida olgan yoki olishi lozim bo‘lgan barcha daromadlarni qaytarib berishni yoki to‘lashni;

insofli egallovchidan esa — u o‘zining egaligi qonuniy emasligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan paytdan boshlab yoxud mulkdorning mol-mulkni talab qilib olish haqidagi da’vosi bo‘yicha talab kelgan paytdan boshlab olgan yoki chiqarib olishi lozim bo‘lgan hamma daromadlarni.

O‘z navbatida insofli egallovchi ham, insofsiz egallovchi ham mol-mulkdan qancha vaqt davomida olingan daromad mulkdorga qaytarilishi kerak bo‘lsa, shuncha vaqt davomida mol-mulkka qilingan zarur xarajatlarini to‘lashni mulkdordan talab qilishga haqlidir.

Basharti, ashyni yaxshilaydigan narsalarni ashyyoga shikast yetkazmasdan ajratib olish mumkin bo‘lsa, insofli egallovchi mazkur narsalarni o‘zida qoldirishga haqlidir. Agar bunday narsalarni ajratib olish mumkin bo‘lmasa, insofli egallovchi ashyni yaxshilash uchun qilingan xarajatlarni talab qilib olish huquqiga ega, lekin bu xarajatlar ashyyoga qo‘shilgan qiymatdan ko‘p bo‘lmasligi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 92, 229, 231 — 233-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonuni 62-moddasi ikkinchi qismi.

231-modda. Mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lмаган huquq- buzарликлардан himoya qilish (negator da’vo)

Mulkdor o‘z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmassa ham, bartaraf etishni talab qilishi mumkin (negator da’vo).



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 230, 232-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 33-moddasining 2-bandisi, O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasi.

232-modda. Mulkdor bo‘lмаган eganing huquqlarini himoya qilish

Garchi mulkdor bo‘lmassa ham, lekin mol-mulkka meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, xo‘jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi asosida yoki qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan boshqa asosga ko‘ra egalik qilayotgan shaxs ham ushbu Kodeksning 228-231-moddalarida nazarda tutilgan huquqlarga ega bo‘ladi. Bu shaxs o‘z egaligini mulkdordan ham himoya qilish huquqiga ega.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 164, 168, 169, 230, 232-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni 33-moddasining 4-bandisi.

233-modda. Mulk huquqining qonunga muvofiq bekor bo‘lish oqibatlari

Mulk huquqini bekor qiladigan qonun qabul qilingan taqdirda, ushbu Qonunni qabul qilish natijasida mulkdorga yetkazilgan zarar, shu jumladan mol-mulkning qiymati davlat tomonidan to‘lanadi. Zararni to‘lash bilan bog‘liq nizolar sud tomonidan hal qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 164, 168, 169, 197-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Uyjoy kodeksining 29 — 31-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi II bo‘limining 2-kichik bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 22-moddasi.

1-kichik bo‘lim
MAJBURIYATLAR TO‘G‘RISIDA UMUMIY QOIDALAR

20-BOB
MAJBURIYAT TUSHUNCHASI VA TARAFLARI

234-modda. Majburiyat tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari

Majburiyat — fuqarolik huquqiy munosabati bo‘lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, pul to‘lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o‘zini saqlashga majbur bo‘ladi, kreditor esa — qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko‘rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 235-moddasi, 21, 26, 57, 58, 66-boblari.

235-modda. Majburiyatning taraflari

Majburiyatning taraflari — kreditor yoki qarzdor sifatida bir yoki bir paytning o‘zida bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

Majburiyatda qarzdor tomonida ishtirok etgan shaxslardan biriga kreditor bildirgan talablarning haqiqiy emasligi, shuningdek bunday shaxsga talab qo‘yishga doir da’vo muddati o‘tib ketganligi kreditorning qolgan shaxslarga bo‘lgan talablariga o‘zicha daxl etmaydi.

Agar taraflar shartnomaga binoan bir-birlariga nisbatan majburiyatli bo‘lsa, taraflardan har biri boshqa taraf oldida uning foydasiga nima qilishi shart ekanligi jihatidan uning qarzdori va ayni bir paytning o‘zida undan nima talab qilishga huquqli ekanligi jihatidan uning kreditori hisoblanadi.

Majburiyat unda taraflar sifatida qatnashmagan shaxslar (uchinchi shaxslar) uchun burchlar hosil qilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda majburiyat uchinchi shaxslar uchun majburiyatning bir tarafni yoki har ikkala tarafiga nisbatan huquq vujudga keltirishi mumkin.

(235-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 149 — 163, 241, 323, 328, 334, 362, 730, 768-moddalari.

21-BOB
MAJBURIYATLARNI BAJARISH

236-modda. Umumiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo‘limganida esa — ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak.

(236-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 237 — 258-moddalari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

237-modda. Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmasligi

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyatni bajarishdan bir tomonlama bosh tortish va shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(237-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 455-moddasi, 476-moddasining uchinchi-beshinchi qismlari, 731-moddasi, 763-moddasining beshinchi qismi; "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to 'g'risida"gi Qonun 15-moddasining uchinchi qismi.

238-modda. Majburiyatning kelishilgan va maqbul usulda bajarilishi

Majburiyat kelishilgan va taraflar uchun maqbul usulda bajarilishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyatni bajarish usuli, agar bu usul majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa va qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, shartnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

(238-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 386-moddasi birinchi qismi, 425, 437, 458, 465, 468-moddalari, 479-moddasi birinchi qismi, 489-moddasi birinchi qismi, 497-moddasi birinchi, ikkinchi qismlari, 502-moddasi birinchi qismi, 512, 530, 535-moddalari, 558-moddasibirinchi qismi, 564-moddasi birinchi, ikkinchi qismlari, 573-moddasi birinchi qismi, 579-moddasi birinchi qismi, 587-moddasi, 600-moddasi birinchi qismi, 617-moddasi, 631-moddasining birinchi qismi, 656-moddasi birinchi qismi, 666-moddasi birinchi qismi, 686-moddasi birinchi qismi, 693-moddasi, 703-moddasi birinchi qismi, 710-712, 726, 732-moddalari, 744-moddasi birinchi qismi, 749-moddasi, 759-moddasi birinchi qismi, 765-moddasi birinchi qismi, 771-moddasi birinchi qismi, 797-moddasi ikkinchi qismi, 817-moddasi, 862-moddasi birinchi qismi, 875, 894-900-moddalari, 903-moddasining birinchi qismi, 915-moddasining birinchi qismi, 918-921-moddalari, 962-moddasining birinchi qismi, 976-moddasining ikkinchi qismi, 977-moddasi ikkinchi qismi, 1067, 1068-moddalari.

239-modda. Majburiyatning qismlarga bo'lib bajarilishi

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti boshqacha tartib qonunchilikda, shartnomada nazarda tutilgan bo'lmasa yoki ish muomalasi odatlaridan yoxud majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor majburiyatning qismlarga bo'lib bajarilishini qabul qilmaslikka haqli.

(239-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 449-moddasi ikkinchi qismi, 913-moddasi uchinchi qismi.

240-modda. Majburiyatning tegishli shaxs uchun bajarilishi

Agar boshqacha tartib taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan bo‘lmasa va ish muomalasi odatlaridan yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor majburiyatni bajarish chog‘ida ijroni kreditorning o‘zi yoki bu ish uchun u vakolat bergen shaxs qabul qilayotganligini isbotlashni talab qilishga haqli bo‘ladi va bunday talabni qo‘ymaganlik oqibatlari xavfi uning zimmasida bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 129, 133, 134-moddalari, 813-moddasining birinchi qismi.

Oldingi tahrirga qarang.

241-modda. Majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatni to‘la hajmda yoki uning bir qismini bajarish, agar qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, shuningdek agar uchinchi shaxs taraflardan biri bilan tegishli shartnoma orqali bog‘liq bo‘lsa, uchinchi shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Agar majburiyatni qarzdorning shaxsan o‘zi ijro etishga majburligi qonunchilik, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, kreditor qarzdor uchun uchinchi shaxs tomonidan taklif qilingan ijroni qabul qilishi shart.

Majburiyat bajarilmaganligi uchun, basharti qonunchilik yoki shartnomada uchinchi shaxsning javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomadagi taraf javobgar bo‘ladi.

(241-modda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 434-moddasi birinchi qismi, 634-moddasining birinchi qismi, 694-moddasining birinchi qismi, 704-moddasi, 820-moddasining ikkinchi xatbosisi, 858-moddasi.

242-modda. Majburiyatni bajarish muddati

Agar majburiyatni bajarish muddati ko‘rsatilmagan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa — ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo‘ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 145 — 148, 150 — 153-moddalari, 283-moddasi ikkinchi qismi, 389-moddasi birinchi qismi, 420-moddasi birinchi qismi, 421-moddasi birinchi qismi, 430, 805, 892-moddalari.

243-modda. Majburiyatni muddatidan ilgari bajarish

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa yoxud majburiyatning mohiyatidan yoinki ish muomalasi odatlaridan yoki odatda qo‘yiladigan boshqa talablardan anglashilsa, qarzdor majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga haqli, kreditor esa — ijroni muddatidan ilgari qabul qilishi shart.

(243-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 282-moddasi, 440-moddasining uchinchi qismi, 562-moddasining ikkinchi qismi, 638-moddasining birinchi qismi, 735-moddasining uchinchi, to'rtinchi qismlari, 770-moddasining uchinchi qismi, 892-moddasini.

244-modda. Majburiyatni bajarishni kechiktirish yoki uni bo'lib-bo'lib bajarish Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilik yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatni bajarishni kechiktirishga yoki uni bo'lib-bo'lib bajarishga yo'l qo'yilmaydi.

(244-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Etarli asoslar mavjud bo'lganida sud qarzdorga majburiyatni bajarishni kechiktirish yoki uni bo'lib-bo'lib bajarish imkonini berishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 216-moddasi, 281-moddasining ikkinchi qismi, 380-moddalari, 419-moddasining ikkinchi qismi, 422-moddasi, 732-moddasining birinchi qismi, 748-moddasining birinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

Oldingi tahrirga qarang.

245-modda. Pul majburiyatlarining valyutasi

Pul majburiyatida u so'mlar bilan chet el valyutasidagi muayyan summaga ekvivalent bo'lgan summada yoki shartli pul birliklari bilan (ekyu, "maxsus qarz olish huquqlari" va boshqalar) to'lanishi lozimligi nazarda tutilishi mumkin. Bunday hollarda so'mlar bilan to'lanishi lozim bo'lgan summa tegishli valyutaning yoki shartli pul birliklarining to'lov kunidagi rasmiy kursi bo'yicha belgilanadi, basharti uni belgilashning boshqacha kursi yoki boshqa sanasi qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida belgilab qo'yilgan bo'lmasa.

O'zbekiston Respublikasi hududida majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish chog'ida chet el valyutasidan, shuningdek chet el valyutasidagi to'lov hujjatlaridan foydalanishga qonunchilikda belgilangan hollar, tartib va shartlar asosida yo'l qo'yiladi.

(245-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 236, 238-moddalari.

246-modda. Majburiyatni bajarish joyi

Oldingi tahrirga qarang.

Agar majburiyatni bajarish joyi qonunchilik yoki shartnomada bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa va majburiyatning mohiyatidan yoxud ish muomalasi odatlaridan yoinki odatda qo'yildigan boshqa talablardan anglashilmasa, ijro quyidagi joylarda amalga oshirilishi kerak:

(246-moddaning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

1) ko'chmas mol-mulkni topshirish majburiyatları bo'yicha — mol-mulk turgan joyda;

2) tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatları bo'yicha — tovari kreditorga yetkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida;

3) qarzdorning tovari yoki boshqa mol-mulkni topshirish yuzasidan o‘zga majburiyatlar bo‘yicha — mol-mulkni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqishi paytida bu joy kreditorga ma’lum bo‘lgan bo‘lsa;

4) pul majburiyati bo‘yicha — majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo‘lsa — uning majburiyat vujudga kelgan paytda joylashgan erida, agar kreditor majburiyatni bajarish vaqtigacha o‘z yashash joyini yoki joylashgan erini o‘zgartirgan bo‘lsa va bu haqda qarzdorni xabardor qilgan bo‘lsa — ijro etish joyi o‘zgartirilishi bilan bog‘liq hamma xarajatlarni kreditor hisobidan qilgan holda, uning yangi yashash joyida yoki joylashgan erida;

5) boshqa barcha majburiyatlar bo‘yicha — qarzdorning yashash joyida, agar qarz dor yuridik shaxs bo‘lsa, uning joylashgan erida.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235-moddalari.

247-modda. Fuqaroning ta’mnoti uchun to‘lanadigan summani ko‘paytirish

Pul majburiyati bo‘yicha bevosita fuqaroning ta’mnoti uchun to‘lanadigan summa (hayoti va sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash, umrbod ta’minlash shartnomasi bo‘yicha va boshqa hollarda) mehnatga to‘lanadigan haqning qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan eng kam miqdori oshirilishiga mutanosib ravishda ko‘paytirib boriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 245, 248, 249-moddalari.

248-modda. Pul majburiyati bo‘yicha talablarni qondirish navbatи

Amalga oshirilgan to‘lov summasi pul majburiyatini batamom bajarish uchun yetarli bo‘lmananida, boshqa kelishuv bo‘lmasa, u eng avvalo kreditorning ijroni olishga qaratilgan chiqimlarini, so‘ngra foizlarni, uning qolgan qismi esa — qarzning asosiy summasini uzadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 245, 247, 248-moddalari.

249-modda. Qarzni depozitga qo‘yish yo‘li bilan majburiyatni bajarish

Qarz dor o‘zi to‘lashi lozim bo‘lgan pul yoki qimmatli qog‘ozlarni notariusning depozitiga, qonunda belgilangan hollarda esa — sudning depozitiga qo‘yishga haqli, basharti majburiyat qarz dor tomonidan quyidagilar tufayli bajarilishi mumkin bo‘lmasa:

1) majburiyat bajarilishi lozim bo‘lgan joyda kreditor yoki ijroni qabul qilib olish uchun u vakil qilgan shaxs bo‘lmasa;

2) kreditor muomalaga layoqatsiz bo‘lsa va uning vakili bo‘lmasa yoki vakil rozi bo‘lmasa;

3) majburiyat bo‘yicha kim kreditor ekanligi xususida aniqlik yo‘qligi ko‘rinib turgan bo‘lsa, xususan bu haqda kreditor bilan boshqa shaxslar o‘rtasida nizo chiqqanligi munosabati bilan;

4) kreditorning ijroni qabul qilishdan bo‘yin tovashi yoki uning tomonidan boshqacha yo‘l bilan kechiktirilishi munosabati bilan.

Pul summasini yoki qimmatli qog‘ozlarni notarius yoxud sudning depozitiga qo‘yish majburiyatni bajarish hisoblanadi.

Depozitiga pul yoki qimmatli qog‘ozlar qo‘yilgan notarius yoxud sud kreditorni bundan xabardor qiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 245 — 248-moddalari.

250-modda. Muqobil majburiyatni bajarish

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qarzdor ikki yoki bir necha harakatlardan birini qilishi yoxud kreditorga bir yoki boshqa mol-mulkni topshirishi lozim bo‘lsa, basharti qonunchilik, shartnomaga yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, tanlash huquqi qarzdor ixtiyorida bo‘ladi.

(250-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 256-moddalari, 502-moddasi ikkinchi qismi, 644-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo’shimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 23.12.2016-yildagi “Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 306-soni qarorining 18-band.

251-modda. Bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etadigan majburiyatni bajarish

Agar ulushli majburiyatda bir necha kreditor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonundan yoki shartnomadan boshqacha tartib anglashilmasa, u holda har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda bajarishni talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 253 — 255-moddalari.

252-modda. Solidar qarzdorlar majburiyati bo‘yicha kreditorning huquqlari

Qarzdorlar sherik bo‘lib majburiyat olganida kreditor hamma qarzdorlardan majburiyatni solidar bajarishni ham, ularning har biridan alohida-alohida bajarishni ham, shu bilan birga qarzni to‘la yoki uning bir qismini bajarishni ham talab qilishga haqli.

Solidar qarzdorlarning biridan to‘liq qanoatlanmagan kreditor ololmagan narsasini boshqa solidar qarzdorlardan talab qilish huquqiga ega.

Solidar qarzdorlar majburiyat to‘la bajarilgunicha burchli bo‘lib qolaveradilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 253 — 255-moddalari.

253-modda. Solidar qarzdorlarning kreditor talablariga qarshi e’tirozlari

Qarzdor solidar bo‘lib majburiyat olgan taqdirda boshqa qarzdorlarning kreditor bilan mazkur qarzdor qatnashmaydigan munosabatlariga asoslangan e’tirozlarni kreditorning talablariga qarshi qo‘yishga haqli emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 252, 254, 255-moddalari.

254-modda. Solidar majburiyatning qarzdorlardan biri tomonidan bajarilishi

Solidar majburiyatning qarzdorlardan biri tomonidan to‘liq bajarilishi qolgan qarzdorlarni kreditor oldidagi majburiyatni bajarishdan ozod qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, solidar majburiyatni bajargan qarzdor o‘z ulushini chegirib tashlab, boshqa qarzdorlarga teng ulushlarda regress talabi qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi. Solidar majburiyatni bajargan qarzdorga to‘lanmagan haq bu va boshqa qarzdorlar zimmasiga teng ulushlarda tushadi.

(254-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’humotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 252, 253, 255, 1001-moddalari.

255-modda. Solidar talablar

Talab solidar bo‘lib qo‘yilganida har qanday solidar kreditor qarzdorga to‘la hajmda talab qo‘yishga haqli bo‘ladi.

Qarzdor solidar kreditorlardan birining talabiga qarshi o‘zining ushbu kreditor qatnashmaydigan boshqa solidar kreditorlar bilan munosabatlariga asoslangan e’tirozlarni qo‘yishga haqli emas.

Majburiyatni solidar kreditorlardan biriga nisbatan to‘la bajarish qarzdorni majburiyatni boshqa solidar kreditorlarga nisbatan bajarishdan ozod qiladi.

Qarzdordan majburiyatning ijrosini qabul qilib olgan solidar kreditor, basharti ular o‘rtasidagi munosabatlardan boshqacha tartib anglashilmasa, boshqa kreditorlarga tegishli bo‘lgan ulushlarni ularga to‘lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 252, 253, 255-moddalari.

256-modda. Majburiyatlarni muqobil suratda bajarish

Taraflardan biri shartnomaga muvofiq boshqa tarafning o‘z majburiyatlarini bajarishiga bog‘liq qilib qo‘yilgan majburiyatni bajarishi muqobil bajarish hisoblanadi.

Burchli taraf shartnomada belgilab qo‘yilgan majburiyatni bajarmagan yoki majburiyat belgilangan muddatda bajarilmasligini ochiq ko‘rsatib turgan vaziyat mavjud bo‘lgan taqdirda, muqobil ijroni o‘z zimmasiga olgan taraf o‘z majburiyatini bajarmay turishga yoki bu majburiyatni bajarishdan bosh tortishga va ko‘rilgan zararni to‘lashni talab qilishga haqli.

Agar shartnomada ko‘rsatilgan majburiyat to‘la hajmda bajarilmagan bo‘lsa, muqobil ijroni o‘z zimmasiga olgan taraf o‘z majburiyatining ikkinchi tarafning to‘la hajmda bajarilmagan majburiyatiga mos keladigan qismini bajarishni to‘xtatib qo‘yishga yoki bajarishdan bosh tortishga haqli.

Agar bir taraf shartnomada belgilab qo‘yilgan o‘z majburiyatini bajarmagan bo‘lishiga qaramay, ikkinchi taraf majburiyatning muqobil ijrosini amalga oshirgan bo‘lsa, birinchi taraf o‘z majburiyatini bajarishi shart.

Ushbu moddaning **ikkinchi**, **uchinchi** va **to‘rtinchi** qismlarida nazarda tutilgan qoidalar shartnomaga yoki qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 250, 252 — 255, 343-moddasining birinchi qismi, 499-moddasi, 502-moddasining ikkinchi qismi, 644-moddasi, 757-moddasining birinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 23.12.2016-yildagi "Iqtisodiy sudlar tomonidan qurilish pudrati shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 306-sonli qarorining 18-bandii.

257-modda. Majburiyatning bajarganligini tasdiqlash

Kreditor majburiyatning bajarilishini qabul qilib olgan vaqtida, qarzdorning talabi bilan unga majburiyatning to'la yoki qisman bajarilishini qabul qilib olganligi haqida tilxat berishi shart. Og'zaki bitimlar yuridik shaxslar bilan fuqarolar o'rtasida bajarilganida tovarlar yoki xizmatlar haqini to'lagan yuridik shaxs boshqa tarafdan pul to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatni va to'lov asosini olishi kerak.

Agar qarzdor majburiyatni tasdiqlash yuzasidan kreditorga qarz hujjati bergan bo'lsa, kreditor ijroni qabul qilib olayotgan vaqtida ushbu hujjatni qaytarib berishi, qaytarib berishning imkonи bo'limganida esa — buni o'zi berayotgan tilxatda ko'rsatishi kerak. Tilxat o'rniga qaytarib berilayotgan qarz hujjatiga ustxat yozilishi mumkin. Qarz hujjatining qarzdorda bo'lishi, boshqa bir hol isbotlanmaguncha, majburiyatning bekor bo'lganligini tasdiqlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 258-moddalari, 733-moddasining uchinchi qismi, 809-moddasining uchinchi qismi.

258-modda. Majburiyat bajarilganligini tasdiqlash haqidagi talabni bajarmaslik oqibatlari

Kreditor tilxat berishdan, qarz hujjatini qaytarishdan yoki qaytarib berish imkonи yo'qligini tilxatda ko'rsatishdan bosh tortgan taqdirda, qarzdor ijroni to'xtatib turishga haqli bo'ladi. Bunday hollarda kreditor muddatni kechiktirgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 94, 95, 234, 235, 257-moddalari.

22-BOB

MAJBURIYATLARNING BAJARILISHINI TA'MINLASH

259-modda. Umumiy qoidalar

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyatning bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta'minlanishi mumkin.

(259-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Majburiyatning bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi kelishuvning haqiqiy emasligi ushbu majburiyatning (asosiy majburiyatning) haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

Asosiy majburiyatning haqiqiy emasligi uning bajarilishini ta'minlaydigan majburiyatning haqiqiy emasligiga olib keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 260, 264, 290, 292, 299, 311-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarorining 13-bandisi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

Oldingi tahrirga qarang.

259¹-modda. Kreditorlarning talablarini qarzdorning majburiyatlar bajarilishining ta'minoti sifatida berilgan mol-mulk hisobidan qanoatlantirish

Qarzdor tomonidan o'z majburiyatları bajarilmagan taqdirda, kreditoring mol-mulk bilan ta'minlangan majburiyatlar bo'yicha talablari ushbu mol-mulkning qiymatidan mazkur mol-mulk o'ziga tegishli bo'lgan shaxsning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli ravishda qanoatlantiriladi. Kreditoring imtiyozli huquqi, agar shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qarzdorning majburiyatlar bajarilishining ta'minoti sifatida berilgan mol-mulkidan foydalanishdan yoki uni realizatsiya qilishdan olingan hosilga, mahsulotga va boshqa daromadlarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan, garov reyestriga qarzdorning mol-mulkiga bo'lgan o'z huquqlari to'g'risida yozuv kiritgan kreditorlar garov reyestriga tegishli yozuvni kiritmagan kreditorlar oldidagi o'z talablarini qanoatlantirishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi.

Ayni bir mol-mulkka bo'lgan o'z huquqlari to'g'risida garov reyestriga yozuv kiritgan kreditorlarning talablari quyidagi navbatga muvofiq qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda mazkur mol-mulkni ushlab qolish orqali ta'minlanadigan majburiyatlar bo'yicha talablar qanoatlantiriladi;

ikkinchi navbatda majburiyatlar bajarilishining ta'minoti sifatida turgan mol-mulkni olish yoki kreditor tomonidan ushbu mol-mulkni qarzdorga berishdan kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha talablar qanoatlantiriladi;

uchinchchi navbatda, agar mol-mulk kreditor tomonidan taqdim etilgan mablag'lar yoki mol-mulk hisobidan olingan (ishlab chiqarilgan) bo'lsa, mol-mulk bilan ta'minlanadigan majburiyatlar bo'yicha talablar qanoatlantiriladi;

to'rtinchi navbatda mazkur mol-mulk bilan ta'minlangan boshqa barcha majburiyatlar bo'yicha talablar qanoatlantiriladi.

Kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbati ular tomonidan garov reyestriga tegishli mol-mulkka bo'lgan huquqlari to'g'risidagi yozuvlarni kiritishning xronologik tartibiga (vaqt va sanasiga) muvofiq aniqlanadi. Bunda kreditorlarning har bir keyingi navbatdagi talablari kreditorlarning oldingi navbatdagi talablari to'liq qanoatlantirilganidan so'ng qanoatlantiriladi.

Mol-mulkka bo'lgan o'z huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestriga kiritmagan kreditorlarning talablari mazkur mol-mulkka bo'lgan huquqlari to'g'risidagi yozuvni garov reyestriga kiritgan kreditorlarning talablari qanoatlantirilgandan keyin ushbu mol-mulkning qiymatidan kelib chiqqan holda, bunday huquqlar yuzaga kelishining kalendar navbatiga muvofiq qanoatlantiriladi.

Kreditor o'z talabini qanoatlantirish navbatidan o'zganing foydasiga voz kechishga, agar bu voz kechish boshqa kreditorlarning huquqlarini cheklab qo'ymasa, haqli.

(259¹-modda O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-soni Qonuniga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-soni)

260-modda. Neustoyka tushunchasi

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi.

(*260-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Neustoyka to‘lash haqidagi talab bo‘yicha kreditor o‘ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas.

Neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta’minlanadi.

Agar qarzdor majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘lmasa, kreditor neustoyka to‘lashni talab qilishga haqlı emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 162, 260 — 263, 325 — 326, 330, 436, 454-moddalari, 720-moddasi birinchi qismi, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 99-moddasi oltinchi qismi, 104-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 142-moddasi ikkinchi, uchinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasining 26.04.1996-yildagi “Iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 14-moddasi, 19-moddasi to‘qqizinchi - o‘n birinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 14, 34-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 24.09.2012-yildagi “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuning 8-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 17.04.1998-yildagi “Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo’llanilishi haqida”gi qarorining 7 — 9-bandlari, 11-bandi yettinchi xatboshisi.

261-modda. Neustoyka shakllari

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo‘ladi.

Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to‘laydigan va, qoida tariqasida, qat’iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi.

Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 162, 260, 262, 263, 325 — 326, 330, 436, 454-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 25 — 34-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yildagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujatlarini qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarorining 3-band.

262-modda. Neustoyka to‘g‘risidagi kelishuvning shakli

Neustoyka to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 162, 260, 261, 263-moddalari.

263-modda. Qonuniy neustoyka

Neustoyka to‘lash taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan yoki tutilmaganligidan qat’i nazar, kreditor qonunda belgilangan neustoyka (qonuniy neustoyka)ni to‘lashni talab qilishga haqli.

Qonuniy neustoykaning miqdori, agar qonun taqiqlamasa, taraflarning kelishuvi bilan ko‘paytirilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 162, 259 — 262-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O’zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi “O’zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g’risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi Qonunini xo‘jalik sudlari amaliyotida qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-son qarori 11-bandining ikkinchi, uchinchi xatboshilari, 13-band, O’zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yildagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g’risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarorining 4-bandining uchinchi xatboshisi.

2-§. Garov

264-modda. Garov tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta’minalash uchun berishi garov hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Garovga ko‘ra qarzdor garov bilan ta’minalangan majburiyatni bajarmagan taqdirda kreditor (garovga oluvchi) bu majburiyat bo‘yicha o‘z talabi garovga qo‘yilgan mol-mulkning qiymatidan ushbu mol-mulk egasi bo‘lgan shaxs (garovga qo‘yuvchi)ning boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda qanoatlantirilishiga, qonunda nazarda tutilgan tartibda, haqli bo‘ladi.

(264-moddaning ikkinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O’RQ-572-sonli *Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

Garovga oluvchi garovga qo‘yilgan mol-mulkni yo‘qotganlik yoki unga ziyon yetkazganlik uchun sug‘urta haqidani, bu mol-mulk kimning foydasiga sug‘urta qilingan bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z talabi yuqoridagi asoslarda qanoatlantirilishiga haqli, basharti mol-mulkni yo‘qotish yoki unga ziyon yetkazish garovga oluvchi javobgar bo‘lgan sabablarga ko‘ra yuz bergen bo‘lmasa.

Garov shartnomasi yoki qonun asosida amalda yuzaga keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 265 — 289-moddalari, O’zbekiston Respublikasining “Garov to‘g’risida”gi Qonuni 1, 3-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi “Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g’risida”gi 16-son qarori 14-band, 18-bandining birinchi xatboshi.

265-modda. Garov turlari

Garov zakalat, ipoteka, shuningdek huquqlar garovi tarzida amal qilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi.

Garovga qo'yiladigan mulk garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga o'tkazilganda garov zakalat deb hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining II bo 'limi.

Ko'chmas mulkni garovga qo'yish ipoteka hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 266 — 289-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to 'g'risida"gi Qonuni.

266-modda. Garovga qo'yuvchi

Qarzdorning o'zi ham, uchinchi shaxs ham garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Ashyoning mulkdopi ashyoni garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Garovga qo'yiladigan huquqning egasi bo'lgan shaxs huquqni garovga qo'yuvchi bo'lishi mumkin.

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, mulkdorning rozilgisiz ashyoviy huquqni garovga qo'yishga yo'l qo'yilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 270-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 7, 8-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to 'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-sodan qarorining 15-bandisi.

267-modda. Garov narsasi

Har qanday mol-mulk, shu jumladan ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talabnomalar, xususan hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to 'g'risidagi talablar, alimentlar to 'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolarning undiruv qaratilishi mumkin bo'lмаган ayrim turdagи mol-mulkini garovga qo'yish qonunchilik bilan man etilishi yoki cheklanishi mumkin.

(267-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 269, 272, 274, 275-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 13-bandi birinchi xatboshisi.

268-modda. Garov bilan ta'minlanadigan talab

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garov talabning uni qondirish paytidagi hajmini ta'minlaydi, xususan foizlar, neustoyka, ijroni kechiktirib yuborish natijasida yetkazilgan zarar to'lanishini, shuningdek garovga oluvchining garovga qo'yilgan ashyni saqlashga qilgan zarur xarajatlari va undiruv xarajatlari to'lanishini ta'minlaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 272, 274, 275-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasi.

269-modda. Garovga qo'yilgan mol-mulkning garovga oluvchiga berilishi va berilmasligi

Agar shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yilgan mol-mulk garovga qo'yuvchida qoladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Garovga qo'yilgan muomaladagi tovarlar garovga oluvchiga topshirilmaydi.

(269-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 5-apreldagi O'RQ-83-soni Qonuni tahririda — O'RQHT, 2007-y., 14-son, 132-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Garov narsasi garovga oluvchi tomonidan qulflangan va muhrlangan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) holda garovga qo'yuvchida qoldirilishi mumkin.

(269-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdaggi O'RQ-391-soni Qonuni tahririda — O'RQHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)

Garov narsasi garovga qo'yilganligini bildiruvchi belgilar qo'yan holda garovga qo'yuvchida qoldirilishi mumkin (qat'iy garov).

Garovga qo'yuvchi tomonidan egalik qilish yoki foydalanish uchun vaqtincha uchinchi shaxsga topshirilgan garov narsasi garovga qo'yuvchida qoldirilgan hisoblanadi.

Qimmatli qog'oz bilan tasdiqlangan mulkiy huquq garovga qo'yilganida, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchiga yoki notarius depozitiga topshiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 272, 274, 275, 280 — 285-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 36, 42-moddalari, IV bo'limi.

270-modda. Garov huquqining vujudga kelishi

Garov huquqi garov to'g'risida shartnomaga asosan garovga qo'yuvchida bo'lishi lozim bo'lsa, garov huquqi unga garov narsasi berilgan paytdan, basharti bunday topshirish shartnomaga tuzilishidan avval amalga oshgan bo'lsa — shartnomaga tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi.

Basharti, garov narsasi qonunga yoki shartnomaga asosan garovga qo'yuvchida bo'lishi lozim bo'lsa, garov huquqi unga garov narsasi berilgan paytdan, basharti bunday topshirish shartnomaga tuzilishidan avval amalga oshgan bo'lsa — shartnomaga tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 271, 272-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 9-moddasi.

271-modda. Garov to'g'risidagi shartnoma, uning shakli va shartnomani ro'yxatdan o'tkazish

Oldingi tahrirga qarang.

Garov to'g'risidagi shartnomada garov narsasi va uning bahosi, garov bilan ta'minlanadigan majburiyatning mohiyati, miqdori va bajarilish muddati yoxud garov narsasini hamda garov bilan ta'minlanadigan majburiyatni identifikasiya qilish uchun yetarli bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatiladi. Unda garovga qo'yilgan mol-mulk taraflarning qaysi birida ekanligi ham ko'rsatilishi kerak.

Garov narsasi mol-mulkni umumiy tavsiflash orqali, shu jumladan mazkur mol-mulkni alohida tur yoki tasnid sifatida tavsiflash vositasida identifikasiya qilinishi mumkin.

Garov bilan ta'minlanadigan majburiyat garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan qoplanishi mumkin bo'lgan majburiyatning eng ko'p summasini ko'rsatish yo'li bilan identifikasiya qilinishi mumkin.

Garov to'g'risidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Ipoteka to'g'risidagi shartnoma, shuningdek notarial tartibda tasdiqlanishi kepak bo'lgan shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash yuzasidan ko'char mol-mulkni yoki mol-mulkka bo'lgan huquqlarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnoma notarial tartibda tasdiqlanishi lozim, bundan birlamchi bozordan ko'chmas mulk va transport vositalarini olish chog'idagi ipoteka va garov to'g'risidagi shartnomalar mustasno.

(271-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 14-yanvardagi O'RQ-602-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son)

Ipoteka to'g'risidagi shartnoma tegishli mol-mulkka doir bitimlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Ushbu moddaning to'rtinchisi, beshinchi va oltinchi qismlaridagi qoidalarga rioya qilmaslik garov to'g'risidagi shartnomaning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi.

(271-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 272-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 10, 11-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Ipoteka to'g'risida"gi Qonunining 12-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrdagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarorining 15, 16, 23-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son Qarorining 14-bandining birinchi, ikkinchi xatboshlari, 16-bandi, 18-bandining to'rtinchi xatboshlisi.

272-modda. Garovga oluvchining huquqlari joriy qilinadigan mol-mulk

Garov narsasi bo'lgan ashyoga garovga oluvchining huquqlari (garov huquqi), agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyoning kimga mansubligiga qarab joriy qilinadi.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan hosil, mahsulot va daromadlarga garov huquqi shartnomada nazarda tutilgan hollarda jopiy qilinadi.

Butun korxona yoki boshqa mulkiy kompleks ipotekasida garov huquqi uning tarkibiga kiruvchi ko‘chmas va ko‘char mol-mulkning hammasiga, shu jumladan talab qilish huquqi va mutlaq huquqlarga, shu bilan bir qatorda ipoteka davrida olingan huquqlarga ham, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, joriy qilinadi.

Bino yoki inshoot ipotekasiga ayni bir vaqtning o‘zida o‘sha shartnomada bo‘yicha shu bino yoki inshoot joylashgan yer uchastkasini yoxud bu uchastkaning garovga qo‘yilayotgan obyekt ishlashini ta’minlaydigan qismini yoki garovga qo‘yuvchiga qarashli bo‘lgan ushbu uchastkani yoxud uning tegishli qismini ijaraga olish huquqini bir vaqtida ipotekaga qo‘ygan taqdirdagina yo‘l qo‘yiladi.

Yer uchastkasini ipotekaga qo‘yishda garov huquqi, agar shartnomada boshqacha shart nazarda tutilgan bo‘lmasa, garovga qo‘yuvchining ushbu uchastkada bo‘lgan yoki qurilayotgan binolari va inshootlariga joriy qilinmaydi.

Shartnomada bunday shart bo‘lmasa, undiruv garovga qo‘yilgan yer uchastkasiga qaratilgan taqdirda garovga qo‘yuvchi yer uchastkasi uning bino yoki inshootdan o‘z o‘rnida foydalanish uchun zarur bo‘lgan qismidan cheklangan tarzda foydalanish (servitut) huquqini saqlab qoladi. Uchastkaning bu qismidan foydalanish shartlari garovga qo‘yuvchining garovga oluvchi bilan kelishuvi asosida, nizo chiqqan taqdirda esa — sud tomonidan belgilanadi.

Agar garovga qo‘yuvchiga emas, balki boshqa shaxsga qarashli binolar inshootlar joylashgan yer uchastkasiga ipoteka belgilangan bo‘lsa, garovga oluvchi undiruvni ushbu uchastkaga qaratganida va u kimoshdi savdosida sotilganida garovga qo‘yuvchining ushbu shaxsga nisbatan huquq va burchlari uchastkani sotib oluvchiga o‘tadi.

Garov to‘g‘risidagi shartnomada, qonun asosida paydo bo‘ladigan garovga nisbatan esa — qonunda, garovga qo‘yuvchi kelajakda ega bo‘ladigan ashyolarni va mulkiy huquqlarni garovga qo‘yish nazarda tutilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 273-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuning 5-moddasi ikkinchi, uchinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonuning 55, 57, 58-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 1999-yil 24-sentabrda “Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi 16-son qarorining 17-bandisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-son qarorining 18-bandining birinchi — uchinchi xatboshilari.

273-modda. Navbatdagi garov

Oldingi tahrirga qarang.

Garovda turgan mol-mulk garovga qo‘yuvchi tomonidan boshqa talablarni ta’minalash uchun garovga (navbatdagi garovga) berilishi mumkin.

Navbatdagi garovga, agar u garov to‘g‘risidagi oldingi shartnomalarda taqiqlanmagan bo‘lsa hamda basharti oldingi va navbatdagi garovga oluvchilar tomonidan garov reyestriga tegishli yozuv kiritilgan bo‘lsa, yo‘l qo‘yiladi.

Garovga qo'yuvchi har bir navbatdagi garovga oluvchiga ushbu mol-mulkning mavjud bo'lgan barcha garovlari haqida ma'lum qilishi shart va u ushbu majburiyatni bajarmaslik tufayli garovga oluvchilarga yetkazilgan zarar uchun javob beradi.

Agar oldingi garov shartnomasida navbatdagi garov shartnomasini tuzish mumkin bo'lgan shartlar nazarda tutilgan bo'lsa, bunday garov shartnomasi oldingi shartnomada ko'rsatilgan shartlarga amal qilgan holda tuzilishi kerak. Ko'rsatilgan shartlar buzilgan taqdirda oldingi garovga oluvchi shu tufayli yetkazilgan zararlarning o'mini qoplashni garovga qo'yuvchidan talab qilishga haqlidir.

Agar garovga qo'yilgan mol-mulk boshqa talablarni ta'minlash uchun yana bir garovning (navbatdagi garovning) narsasiga aylansa, navbatdagi garovga oluvchining talablari ushbu Kodeksda belgilangan tartibda mazkur mol-mulkning qiymatidan qanoatlantiriladi.

(273-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-soni
Qonuni tahririda — Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-ton)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 272-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasi.

274-modda. Garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlash va asrash

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yuvchi yoki garovga oluvchi garovga qo'yilgan mol-mulk kimdaligiga qarab (ushbu Kodeksning 269-moddasi):

- 1) garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishi xavfidan uning to'la qiymati bo'yicha, bordi-yu mol-mulkning to'la qiymati garov bilan ta'minlangan talabning miqdoridan oshib ketsa, talab miqdoridan kam bo'limgan summaga garovga qo'yuvchi hisobidan sug'urtalashi;
- 2) garovga qo'yilgan mol-mulkning asralishini ta'minlash uchun, shu jumladan uni uchinchi shaxslarning tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun zarur choralarini ko'rishi;
- 3) garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki uning shikastlanishi xavfi paydo bo'lganligi to'g'risida ikkinchi tarafni darhol ogohlantirishi shart.

Garovga oluvchi va garovga qo'yuvchi ikkinchi tarafagi garovga qo'yilgan mol-mulkning mavjudligini, miqdorini, holatini va uni saqlash sharoitlarini hujjalarni asosida va amalda tekshirishga haqli.

Garovga oluvchi ushbu moddaning **birinchi qismida** ko'rsatilgan burchlarni garovga qo'yilgan mol-mulkning yo'qolishi yoki shikastlanish xavfini tug'diradigan darajada qo'pol suratda buzganida garovga qo'yuvchi garovni muddatidan oldin bekor qilishni talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 275, 279-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 12, 19, 21-moddalar.

275-modda. Garovga qo'yilgan mol-mulk yo'qolishi yoki shikastlanishining oqibatlari

Agar garov to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan shikastlanishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

Agar garovga oluvchi ushbu Kodeksning **333-moddasiga** muvofiq javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligini isbotlay olmasa, u o'ziga topshirilgan garov narsasining butunlay yoki qisman yo'qolganligi yoxud shikastlanganligi uchun javob beradi.

Garov narsasi garovga oluvchiga topshirish chog‘ida qancha summaga baholangan bo‘lishidan qat’i nazar, garovga oluvchi garov narsasi yo‘qolganligi uchun uning haqiqiy qiymati miqdorida, garov narsasiga shikast yetkazilganligi uchun esa — bu qiymat qancha summaga kamaygan bo‘lsa, shuncha summa miqdorida javob beradi.

Agar garov narsasi shikastlanish natijasida undan bevosita o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanish mumkin bo‘lmaydigan darajada o‘zgargan bo‘lsa, garovga qo‘yuvchi undan voz kechishga va uning yo‘qolganligi uchun haq talab qilishga haqli.

Shartnomada garovga oluvchining garov narsasi yo‘qolishi yoki shikastlanishi tufayli garovga qo‘yuvchiga yetkazilgan boshqa zararni to‘lash majburiyati nazarda tutilishi mumkin.

Garov bilan ta’milangan majburiyat bo‘yicha qarzdor bo‘lgan garovga qo‘yuvchi garov narsasining yo‘qolishi yoki shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to‘lash to‘g‘risidagi talabni garov bilan ta’milangan majburiyatlarni qoplash uchun hisobga olishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274, 279-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasasi.

276-modda. Garov narsasini almashtirish va tiklash

Garov narsasini almashtirishga, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, garovga oluvchining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Agar garov narsasi nobud bo‘lgan yoki shikastlangan yoxud unga bo‘lgan mulk huquqi yo xo‘jalik yuritish huquqi qonunda belgilangan asoslarga ko‘ra bekor qilingan bo‘lsa, garovga qo‘yuvchi oqilona muddatda (nizo chiqqan taqdirda esa — sud belgilagan muddatda) garov narsasini tiklashga yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, uni teng qiymatli boshqa mol-mulk bilan almashtirishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274, 275, 279-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasasi.

277-modda. Garov narsasidan foydalanish va uni tasarruf etish

Agar shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki garovning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo‘yuvchi garov narsasidan uning vazifasiga ko‘ra foydalanishga, shu jumladan undan hosil va daromadlar olishga haqli.

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa va garovning mohiyatidan anglashilmasa, garovga qo‘yuvchi faqat garovga oluvchining roziligi bilan garov narsasini boshqa shaxsga berishga, uni ijaraga yoki bepul foydalanish uchun boshqa shaxsga topshirishga yoxud uni boshqacha tarzda tasarruf etishga haqli.

Garovga qo‘yuvchining garovga qo‘yilgan mol-mulkni vasiyat qilib qoldirish huquqini cheklaydigan kelishuv o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir.

Garovga oluvchi o‘ziga topshirilgan garov narsasidan shartnomada nazarda tutilgan hollardagina foydalanishga haqli bo‘lib, garovga qo‘yuvchiga undan foydalanish to‘g‘risida muntazam hisobot bepib turadi. Shartnomaga muvofiq garovga oluvchi zimmasiga asosiy majburiyatni bajarish maqsadida yoki garovga qo‘yuvchining manfaatlarini ko‘zlab, garov narsasidan hosil va daromadlar olish burchi yuklab qo‘yilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 276, 279-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 19 — 21-moddalari.

278-modda. Garovga oluvchining garov narsasiga bo'lgan o'z huquqlarini himoya qilishi

Garovga oluvchi o'z ixtiyorida bo'lgan yoki bo'lishi lozim bo'lgan garovga qo'yilgan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egallashidan, shu jumladan garovga qo'yuvchining egallashidan talab qilib olishga haqli (ushbu Kodeksning 228, 229, 230, 232-moddalari).

Shartnomalariga ko'ra garovga oluvchiga o'ziga topshirilgan garov narsasidan foydalanish huquqi berilgan hollarda u boshqa shaxslardan, shu jumladan garovga qo'yuvchidan ham, o'z huquqining har qanday buzilishini bartaraf etishni, garchi bu buzilishlar egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham (ushbu Kodeksning 231, 232-moddalari), talab qilishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 277, 279-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 48-moddasi.

279-modda. Undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish asoslari

Garovga oluvchining (kreditorning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni o'zi javobgar bo'lgan vaziyatlarda bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar garov bilan ta'minlangan majburiyatning qarzdor tomonidan buzilishi juda arzimas bo'lsa va shu tufayli garovga oluvchining talablarining miqdori garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatiga mutlaqo mos kelmasa, undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishni rad etish mumkin, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

(279-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 5-apreldagi O'RQ-83-soni Qonuni tahririda — O'RQHT, 2007-y., 14-son, 132-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 278-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarorining 18-bandining uchinchi xatboshisi,



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

280-modda. Undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish tartibi

Garovga oluvchining (kreditorning) talablari garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk qiymatidan sudning qaroriga muvofiq qondiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Garovga oluvchining talabini garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan qondirishga, agar bu garov to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud undiruvni garov narsasiga qaratish uchun asoslar vujudga kelganidan keyin garovga

olvuchining garovga qo'yuvchi bilan tuzilgan, notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvi asosida yo'l qo'yiladi. Mazkur kelishuv tufayli huquqlari buzilgan shaxsning da'vosiga ko'ra bunday kelishuv sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

(280-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 5-apreldagi O'RQ-83-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2007-y., 14-son, 132-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Agar garovga qo'yuvchining garovga oluvchi bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchining talablari garovga qo'yilgan ko'char mol-mulk hisobidan sud hujjatiga muvofiq qondiriladi. Agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, undiruv garovga oluvchiga topshirilgan garov narsasiga garov to'g'risidagi shartnomada belgilangan tartibda qaratilishi mumkin.

(280-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

Undiruv garov narsasiga quyidagi hollarda faqat sudning qaroriga muvofiq qaratilishi mumkin:

Oldingi tahrirga qarang.

1) qonunda boshqa shaxsning yoki organning garov to'g'risida shartnomada tuzish uchun roziliги yoxud ruxsati haqidagi talab belgilangan bo'lsa;

(280-modda to'rtinchi qismining 1-bandi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2) garov narsasi tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki o'zga madaniy qimmatga ega mol-mulk bo'lsa;

(280-moddaning to'rtinchi qismi 2-bandi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

3) garovga qo'yuvchi yo'qolgan bo'lsa va uning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmasa.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 279-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuning 27-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi "Fuqarolik kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi 16-son qarorining 18 — 20-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 22 — 24-bandlari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

281-modda. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sotish

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Kodeksning [280-moddasiga](#) muvofiq undiruv qaratilgan, garovga qo‘yilgan mol-mulkni majburiy ravishda realizatsiya qilish qonunchilikda belgilangan tartibda elektron onlaysauksion shaklidagi ochiq kimoshdi savdosida sotish orqali amalga oshiriladi.

(*281-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Garovga qo‘yuvchining iltimosiga ko‘ra, sud undiruvni garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratish to‘g‘risidagi qarorda uni ochiq kimoshdi savdosida sotishni bir yil muddatgacha kechiktirishga haqli. Kechiktirish ushbu mol-mulkning garovi bilan ta‘minlangan majburiyat bo‘yicha taraflarning huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi hamda kreditorning kechiktirish vaqt mobaynida ko‘paygan zararlarining o‘rnini qoplashdan va neustoykani undirishdan qarzdorni ozod qilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Garovga qo‘yilgan, suddan tashqari tartibda undiruv qaratilgan mol-mulk kimoshdi savdosida sotish, bevosita sotish, kreditga, lizingga, ijaraga berish, bo‘lib-bo‘lib sotish yo‘li bilan yoki qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa bitimlar orqali realizatsiya qilinishi mumkin.

(*281-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb e‘lon qilinganda (undiruv garovga qo‘yilgan mol-mulkka suddan tashqari tartibda qaratilgan taqdirda) garovga oluvchi garovga qo‘yuvchi bilan kelishuvga ko‘ra, garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotib olishga va xarid narxini garov bilan ta‘minlangan o‘z talablari hisobiga o‘tkazishga haqli. Bunday kelishuvga nisbatan oldi-sotdi shartnomasi to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi.

Takroriy kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb e‘lon qilinganda garovga oluvchi garov narsasini realizatsiya qilinmagan garov narsasini takroriy kimoshdi savdosidagi boshlang‘ich sotish narxidan ko‘pi bilan o‘n foiz kamroq summada baholab, o‘zida olib qolishga haqli.

Agar garovga oluvchi garov narsasini o‘zida olib qolish huquqidан takroriy kimoshdi savdosi amalga oshmagan deb e‘lon qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida foydalanmasa, garov to‘g‘risidagi shartnoma bekor qilinadi.

Agar garovga qo‘yilgan mol-mulkni realizatsiya qilish chog‘ida tushgan summa garovga oluvchining talabini qoplash uchun yetarli bo‘lmasa, u, qonunda yoki shartnomada boshqacha ko‘rsatma mavjud bo‘ligan taqdirda, yetishmayotgan summani garovga asoslangan imtiyozdan foydalanmagan holda, qarzdorning boshqa mol-mulkidan olish huquqiga ega.

Agar garovga qo‘yilgan mol-mulkni realizatsiya qilish chog‘ida tushgan summa garovga oluvchilarning garov bilan ta‘minlangan talablari miqdoridan oshib ketsa, farq garovga qo‘yuvchiga qaytariladi.

Qarzdor yoki uchinchi shaxs bo‘lgan garovga qo‘yuvchi garov narsasi realizatsiya qilinguniga qadar istalgan vaqtida garov bilan ta‘minlangan majburiyatni yoki uning muddati o‘tkazib yuborilgan qismini bajarib, undiruvni garov narsasiga qaratishni va uni realizatsiya qilishni tugatishga haqli. Bu huquqni cheklaydigan kelishuv o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir.

(*281-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son*)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 380-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuning 28-moddasi, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonun 54-moddasining to‘rtinchchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son Qarorining 25-bandni.

282-modda. Garov bilan ta'minlangan majburiyatni muddatidan ilgari bajarish va undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish

Garovga oluvchi garov bilan ta'minlangan majburiyatni quyidagi hollarda muddatidan ilgari bajarishni talab qilishga haqli:

1) agar garov narsasi garovga qo'yuvchida qoldirilgan bo'lib, garov to'g'risidagi shartnoma buzilgan holda uning egaligidan chiqqan bo'lsa;

2) garovga qo'yuvchi garov narsasini almashtirish qoidalarini buzgan bo'lsa (ushbu Kodeksning [276-moddasi](#));

3) garov narsasi garovga oluvchi javob bermaydigan vaziyatlarda yo'qolgan bo'lsa, agar garovga qo'yuvchi ushbu Kodeks 276-moddasining [ikkinci qismida](#) nazarda tutilgan huquqdan foydalanmagan bo'lsa.

Garovga oluvchi quyidagi hollarda garov bilan ta'minlangan majburiyatni muddatidan ilgari bajarishni talab qilishga, agar uning talabi qondirilmasa, undiruvni garov narsasiga qaratishga haqli:

1) garovga qo'yuvchi navbatdagi garov qoidasini buzgan bo'lsa (ushbu Kodeksning [273-moddasi](#));

2) garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni saqlash va asrash yuzasidan ushbu Kodeks 274-moddasi birinchi qismining [1](#) va [2](#)-bandlarida hamda ikkinchi qismida nazarda tutilgan burchlarni bajarmasa;

3) garovga qo'yuvchi garovga qo'yilgan mol-mulkni tasarruf etish qoidalarini buzsa (ushbu Kodeks 277-moddasining [ikkinci](#) va [uchinchi](#) qismlari);

Oldingi tahrirga qarang.

4) boshqa kreditorlar tomonidan undiruv garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratilganda, shu jumladan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari majburiy ijro etilganda.

(282-modda ikkinchi qismining 4-bandni O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning [264](#), [265](#), [267](#), [269](#), [274](#) — [279](#), [380](#), [381](#)-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuning 31-moddasi.

283-modda. Garovning bekor bo'lishi

Garov quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

1) garov bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lganida;

2) ushbu Kodeks 274-moddasining [uchinchi qismida](#) nazarda tutilgan asoslar bo'lganida garovga qo'yuvchining talabi bilan;

3) garovga qo'yilgan ashyo nobud bo'lganida yoki garovga qo'yilgan huquq bekor bo'lganida, basharti garovga qo'yuvchi ushbu Kodeks 276-moddasining [ikkinci qismida](#) nazarda tutilgan huquqdan foydalangan bo'lmasa;

Oldingi tahrirga qarang.

4) garovga qo‘yilgan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, shuningdek uni realizatsiya qilish mumkin bo‘laman taqdirda (ushbu Kodeksning 281-moddasi). Ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan reyestrda ipoteka tugatilganligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan bo‘lishi kerak;

(283-modda birinchi qismining 4-bandi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

Oldingi tahrirga qarang.

5) agar garovga oluvchi ushbu Kodeks 282-moddasi ikkinchi qismining **4-bandida** nazarda tutilgan huquqdan foydalanmagan bo‘lsa, bundan garovga qo‘yilgan mol-mulk realizatsiya qilinmaganligi va talablari garov bilan ta’milanganmagan kreditorlarning o‘z talablarini qanoatlantirish uchun mazkur mol-mulkni qabul qilishni rad etganligi hollari mustasno.

(283-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 22-sentabrdagi O‘RQ-260-sonli Qonuniga muvofiq 5-band bilan to‘ldirilgan — O‘RQHT, 2010-y., 38-son, 328-modda)

Garov bilan ta’milangan majburiyat bajarilishi natijasida yoki garovga qo‘yuvchining talabi bilan garov bekor bo‘lganida (ushbu Kodeks 274-moddasining **uchinchi qismi**) ixtiyopida garovga qo‘yilgan mol-mulk bo‘lgan garovga oluvchi uni darhol garovga qo‘yuvchiga qaytarib berishi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 380 — 382-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonunining 32-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-son qarorining 27-bandi.

284-modda. Garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan huquq boshqa shaxsga o‘tganida garovning saqlanishi

Oldingi tahrirga qarang.

Garovga qo‘yilgan mol-mulkka mulk huquqi yoki uni xo‘jalik asosida yuritish huquqi garovga qo‘yuvchidan ushbu mol-mulkni haq olib yoki haq olmasdan boshqa shaxsga berish natijasida yoxud universal huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda garov huquqi o‘z kuchida qoladi, bundan muomaladagi tovarlarning garovi hamda garovga qo‘yilgan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi yoki xo‘jalik asosida yuritish huquqi garovni saqlamagan holda boshqa shaxsga o‘tishiga garovga oluvchi rozilik bildirgan hollar mustasno.

(284-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son)

Agar garovga oluvchi bilan kelishuvda o‘zgacha tartib belgilangan bo‘lmasa, garovga qo‘yuvchining huquqiy vorisi garovga qo‘yuvchining o‘rniga o‘tadi va uning hamma bupchlarini bajaradi.

Agar garovga qo‘yuvchining garov narsasi bo‘lgan mol-mulki huquqiy vorislik tartibida bir necha shaxsga o‘tgan bo‘lsa, huquqiy vorislarning (mol-mulkni oluvchilarning) har biri garov bilan ta’milangan majburiyatni bajarmaslikning garovdan kelib chiqadigan oqibatiga mazkur mol-mulkning o‘ziga o‘tgan qismiga mutanosib ravishda javob beradi. Agar garov narsasi bo‘linmasa

yoki boshqa asoslarga ko‘ra huquqiy vorislarning umumiyligi mulki bo‘lib qolsa, ular solidar garovga qo‘yuvchilarga aylanadilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 380 — 383-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-son qarorining 26-bandi.

285-modda. Garovga qo‘yilgan mol-mulkni majburiy ravishda olib qo‘yishning oqibatlari

Agar garovga qo‘yuvchining garov narsasi bo‘lgan mol-mulkka mulk huquqi qonun bilan belgilangan asoslar va tartibda, davlat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilganligi (haqini to‘lab olish), rekvizitsiya yoki natsionalizatsiya oqibatida bekor bo‘lsa, garovga qo‘yuvchiga boshqa mol-mulk beriladi yoki tegishli haq to‘lanadi. Bunday holda o‘rniga-o‘rin berilgan mol-mulkka garov huquqi tadbiq etiladi yoki tegishincha, garovga oluvchi garovga qo‘yuvchiga tegishi kepak bo‘lgan haq summasidan o‘z talabini imtiyozli qanoatlantirish huquqiga ega bo‘ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Garov narsasi bo‘lgan mol-mulk aslida ushbu mol-mulkning egasi boshqa shaxs ekanligi (ushbu Kodeksning 228-moddasi) asosida garovga qo‘yuvchidan qonunda belgilangan tartibda olib qo‘yilgan hollarda ushbu mol-mulkning garovga qo‘yilishi bekor bo‘ladi.

(285-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O‘RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-ton)

Ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi** qismlarida nazarda tutilgan hollarda garovga oluvchi garov bilan ta’milangan majburiyatni muddatidan ilgari bajarishni talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 202, 203, 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 380 — 384-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasi.

286-modda. Garov to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha huquqlardan boshqa shaxs foydasiga voz kechish

Garovga oluvchi talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish yo‘li bilan kreditorning huquqlarini boshqa shaxsga berish haqidagi qoidalarga (ushbu Kodeksning 313-321-moddalari) rioya qilgan holda garov to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha o‘z huquqlarini boshqa shaxsga berishga haqli.

Garovga oluvchining garov to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha o‘z huquqlaridan boshqa shaxs foydasiga voz kechishi, agar garov bilan ta’milangan asosiy majburiyat bo‘yicha qarzdordan talab qilish huquqidan ham o‘sha shaxs foydasiga voz kechilgan bo‘lsa, haqiqiy bo‘ladi.

Agar boshqacha hol isbotlangan bo‘lmasa, ipoteka to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha huquqlardan boshqa shaxs foydasiga voz kechilishi ipoteka bilan ta’milangan majburiyat bo‘yicha huquqlardan boshqa shaxs foydasiga voz kechilishini ham anglatadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 202, 203, 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 380 — 385-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi.

287-modda. Garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarzni boshqa shaxsga o'tkazish

Garov bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilishi bilan, agar garovga qo'yuvchi kreditorga yangi qarzdor uchun javob berishga rozilik bergen bo'lmasa (ushbu Kodeksning 322-moddasi), garov bekor bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 202, 203, 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 380 — 386-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 18-moddasi.

288-modda. Muomaladagi tovarlar garovi

Tovarlarni garovga qo'yib, ularni garovga qo'yuvchida qoldirish va ularning umumiy qiymati garov to 'g'risidagi shartnomada ko'psatilganidan kamaymasligini shart qilib qo'ygan holda garovga qo'yuvchiga garovga qo'yilgan mol-mulkning tarkibi va asl shaklini (tovar zaxiralari, xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulot va shu kabilar) o'zgartirish huquqining berilishi muomaladagi tovarlar garovi hisoblanadi.

Garovga qo'yilgan muomaladagi tovarlar qiymatining kamayishiga, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garov bilan ta'minlangan majburiyatning bajarilgan qismiga mos keladigan darajada yo'l qo'yiladi.

Garovga qo'yuvchi tomonidan boshqa shaxslarga bepilgan muomaladagi tovarlar egallovchining mulkiga, xo'jalik yuritishiga yoki operativ boshqaruviga o'tgan paytdan boshlab garov narsasi bo'lmay qoladi, garovga qo'yuvchi tomonidan olingan, garov to 'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan tovarlar esa — garovga qo'yuvchida ularga nisbatan mulk huquqi vujudga kelgan paytdan e'tiboran garov narsasiga aylanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Garovga qo'yuvchi muomaladagi tovarlar garovi shartlarini buzgan taqdirda, garovga oluvchi garovga qo'yilgan tovarlarga o'z belgilari va muhrlarini (muhrlar mavjud bo'lган taqdirda) bosib, tartibni buzish bartaraf qilingunga qadar ular bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarini to'xtatib turishga haqli.

(288-moddaning to 'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonuni tahririda — O'RQHT, 2015-y., 33-son, 439-modda)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 202, 203, 264, 265, 267, 269, 274 — 279, 381, 384 — 387-moddalari, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 342-moddasi, O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 19-moddasining to 'rtinchi qismi, 21-moddasining beshinchi qismi, 22-moddasining uchinchi qismi, 42-moddasi.

289-modda. Ashyolarning lombardda garovga qo'yilishi

Oldingi tahrirga qarang.

Fuqarolardan shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkni qisqa muddatli kreditlarni ta'minlash uchun garovga qabul qilish ixtisoslashgan tashkilotlar — faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiradigan lombardlar tomonidan tadbirkoplik faoliyati sifatida amalga oshirilishi mumkin.

(289-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

Lombardda ashyolarni garovga qo'yish haqidagi shartnomaga lombard tomonidan garov pattasi berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Garovga qo'yilayotgan ashyolar lombardga topshiriladi.

Lombard garovga qabul qilingan ashyolarni garovga qabul qilish paytida shunga o'xshash va shunday sifatli ashyolarning narxlariga mos bahodagi to'liq summasida o'z hisobidan garovga qo'yuvchi foydasiga sug'urtalashi shart.

Lombard garovga qo'yilgan ashyolardan foydalanishga va ularni tasarruf etishga haqli emas.

Lombard ashyolarning yo'qolishi yoki shikastlanishi yengib bo'lmas kuch oqibatida yuz bergenligini isbotlay olmasa, garovga qo'yilgan ashyolarning yo'qolganligi yoki shikastlanganligi uchun javobgar bo'ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti, lombardda ashyolar garovi bilan ta'minlangan kredit summasi belgilangan muddatda qaytarib berilmagan taqdirda, lombard notariusning ijro yozuvi asosida imtiyozli bir oylik muddat o'tganidan keyin garovga qo'yilgan mol-mulkni sotish uchun belgilab qo'yilgan tartibda (ushbu Kodeksning [281-moddasi](#)) ushbu mol-mulkni sotishga haqli. Shundan keyin hatto garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan tushgan summa talablarni to'liq qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa ham, lombardning garovga qo'yuvchiga (qarzdorga) talablari bekor bo'ladi.

(*289-moddaning yettinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi O'RQ-572-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son*)

Oldingi tahrirga qarang.

Lombardlar tomonidan fuqarolarga ularning ashyolarini garovga olib kredit berish qoidalari qonunchilik bilan belgilanadi.

(*289-moddaning sakkizinch qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Lombardda ashyolarni garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomaning garovga qo'yuvchining huquqlarini ushbu Kodeks yoki boshqa qonunlar bilan unga beriladigan huquqlarga qaraganda cheklab qo'yadigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 202, 203, 264, 265, 267, 269-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi Qonuning 35-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 15.09.2006-yildagi "Mikromoliyalash to'g'risida"gi Qonuning 7-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tekshirish tartibi to'g'risida" Nizom (ro'yxat raqami 2209) hamda "Lombardlar tomonidan faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish" Qoidalari (ro'yxat raqami 1290).

3-§. Ushlab qolish

290-modda. Ushlab qolish asoslari

Qarzdorga yoki qarzdor ko'rsatgan shaxsga topshirilishi lozim bo'lgan ashyoni saqlayotgan kreditor ushbu ashyo haqini yoki u bilan bog'liq chiqimlar va boshqa zararni kreditorga to'lash majburiyatlari qarzdop tomonidan muddatida bajarilmagan taqdirda uni tegishli majburiyat bajarilgunga qadar ushlab qolishga haqli.

Garchi ashyoning haqini to‘lash yoki uning chiqimlarini va boshqa zararni to‘lash bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, biroq taraflari tadbirkorlar sifatida ish ko‘rayotgan majburiyatdan kelib chiqqan talablar ham ashyoni ushlab qolish bilan ta’minlanishi mumkin.

Ashyo kreditor egaligiga o‘tganidan keyin unga bo‘lgan huquqlar uchinchi shaxs tomonidan olinganligiga qaramasdan, kpeditop o‘z qo‘lidagi bu ashyoni ushlab qolishi mumkin.

Agar shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ushbu moddaning qoidalari qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 291, 639-moddalari

291-modda. Talablarni ushlab qolingan ashyo hisobidan qondirish

Ashyoni ushlab qolgan kreditorning talablari uning qiymatidan garov bilan ta’minlangan talablarni qondirish uchun nazarda tutilgan hajmda va tartibda qondiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 290, 639-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasi.

4-§. Kafillik

292-modda. Kafillik shartnomasi

Kafillik shartnomasi bo‘yicha kafil boshqa shaxs o‘z majburiyatini to‘la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o‘z zimmasiga oladi.

Kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta’minlash uchun ham tuzilishi mumkin.

Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shaklga rivoja qilmaslik kafillik shartnomasining haqiqiy bo‘lmasligiga olib keladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 293 — 298-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo’llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-son qarorining 28, 29-bandlari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

293-modda. Kafilning javobgarligi

Qarzdor kafillik bilan ta’minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob beradilar, basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan bo‘lmasa.

Basharti, kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob beradi, shu jumladan foizlar to‘laydi, qarzni undirib olish bo‘yicha sud chiqimlarini va qarzdor majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditor ko‘pgan boshqa zararlarni to‘laydi.

Agar kafillik shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, birgalashib kafil bo‘lgan shaxslar kreditor oldida solidar javob beradilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 292, 294 — 298-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-son qarorining 30-bandni.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

294-modda. Kafilga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilgan taqdirda uning huquq va burchlari

Kafil kreditorning talabiga qarshi qarzdor bildirishi mumkin bo‘lgan hamma e’tirozlarni qo‘yishga haqli. Hatto qarzdor o‘z e’tirozlaridan voz kechgan yoki o‘z majburiyatini tan olgan taqdirda ham kafil ushbu e’tirozlarga bo‘lgan huquqini yo‘qotmaydi.

Agar kafilga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, u qarzdorni ishda ishtirok etish uchun jalb qilishi shart. Aks holda qarzdor kreditorga qarshi o‘zining barcha e’tirozlarini kafilning qarshi talabiga qarama-qarshi qo‘yish huquqiga ega.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 292, 293, 295 — 298-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi “Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta’minalash to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 13/150-son qarorining 31-bandni, Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 6-maydagi 78-son qarori bilan tasdiqlangan “Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 24-bandni.

295-modda. Majburiyatni bajargan kafilning huquqlari

Majburiyatni bajargan kafilga kreditorning ushbu majburiyat bo‘yicha huquqlari hamda garovga oluvchi sifatida kreditorga tegishli bo‘lgan huquqlar kafil kreditorning talabini qancha hajmda qanoatlantirgan bo‘lsa, shuncha hajmda o‘tadi. Kafil kreditorga to‘langan summaga foizlar to‘lashni va qarzdor uchun javobgarlik munosabati bilan ko‘rgan boshqa zararini to‘lashni qarzdordan talab qilishga haqli.

Kafil majburiyatni bajargandan keyin kreditor qarzdorga bo‘lgan talabni tasdiqlovchi hujjatlarni kafilga topshirishi va bu talabni ta’minalaydigan huquqlarni berishi shart.

Ushbu moddada belgilangan qoidalar agar qonunda yoki kafilning qarzdor bilan shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 292 — 294, 296 — 298-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz

kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-sون qarorining 2, 3-bandlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-sон qarorining 32-bandi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

296-modda. Qarzdor majburiyatini bajarganligi haqida kafilni xabardor qilish

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajargan qarzdor bu haqda kafilni darhol xabardop qilishi shart. Aks holda o'z navbatida majburiyatni bajargan kafil asossiz olinganni kreditordan undirib olishga yoki qarzdorga regress talab qo'yishga haqlı. Regress talab qo'yilgan taqdirda qarzdor asossiz olingannigina kreditordan undirib olishga haqlı.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 292 — 295, 297, 298-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-sон qarorining 33-bandi.

297-modda. Kafilning xizmatlariga haq to'lash

Agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafil qarzdorga ko'rsatgan xizmatlari uchun haq olish huquqiga ega.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 292 — 296, 298-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: "Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to'g'risidagi" gi Nizomning 12-bandi (ro'yxat raqami 2364).

298-modda. Kafillikning bekor bo'lishi

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lgach, shuningdek ushbu majburiyat kafilning rozilgisiz javobgarlikning oshishiga yoki uning uchun boshqa noqulay oqibatlarga olib keladigan tarzda o'zgartirilgan taqdirda kafillik bekor bo'ladi.

Kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilganida, agar kafil yangi qarzdor uchun javobgar bo'lish haqida kreditorga rozilik bergen bo'lmasa, shuningdek kafil ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati kelganida kreditor qarzdor yoki kafil taklif qilgan tegishli ijroni qabul qilishdan bosh tortsa, kafillik bekor bo'ladi.

Shartnomada ko'rsatilgan kafillik muddati o'tganidan keyin kafillik bekor bo'ladi. Agar bunday muddat belgilangan bo'lmasa, kreditor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati kelgan kundan boshlab bir yil davomida kafilga da'vo qo'zg'atmagan taqdirda kafillik bekor bo'ladi. Agar asosiy majburiyatni bajarish muddati ko'rsatilmagan va belgilanishi mumkin bo'lмаган yoki talab qilib olish payti bilan belgilangan bo'lsa, kreditor kafillik shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir yil mobaynida kafilga nisbatan da'vo qo'zg'atmagan taqdirda kafillik bekor bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 292 — 297-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 35, 36-bandlari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

5-§. Kafolat

299-modda. Kafolat tushunchasi

Kafolatga binoan bank, boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (kafil) boshqa shaxs (prinsipal)ning iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipalning kreditori (benefitsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnama taqdim etsa, pulni unga to'lash haqida prinsipalga yozma majburiyat beradi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 300 — 310-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 37, 38-bandlari.

300-modda. Prinsipalning majburiyatlarini kafolat bilan ta'minlash

Kafolat prinsipalning benefitsiar oldidagi o'z majburiyatini (asosiy majburiyatni) lozim darajada bajarishini ta'minlaydi.

Kafolat berilgani uchun prinsipal kafilga haq to'laydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 299, 301 — 310-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 37, 38-bandlari.

301-modda. Kafolatning asosiy majburiyatdan mustaqilligi

Kafilning benefitsiar oldidagi kafolatda nazarda tutilgan majburiyati ular o'rtasidagi munosabatlarda bajarilishini ta'minlash uchun shu kafolat berilgan asosiy majburiyatga, garchi kafolatda ushbu majburiyatga havola qilingan bo'lsa-da, bog'liq emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 299, 300, 302 — 310-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 39-bandi.

302-modda. Kafolatning chaqirib olinmasligi

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, u kafil tomonidan chaqirib olinishi mumkin emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 299 — 301, 303 — 310-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi Plenumining 22.12.2006-yildagi "Kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 13/150-son qarorining 40-bandi.

303-modda. Kafolat bo'yicha huquqlarning boshqa shaxsga o'tkazilmasligi

Kafolat bo'yicha benefitsiarga tegishli bo'lgan kafilga talab qo'yish huquqi, agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 299 — 302, 304 — 310-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-son qarorining 10-bandining beshinchi xatboshisi.

304-modda. Kafolatning kuchga kirishi

Agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, u berilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 299 — 303, 305 — 310-moddalari.

305-modda. Kafolat bo'yicha talab taqdim etish

Benefitsiarning kafolat bo'yicha pul summasini to'lash haqidagi talabi kafolatda ko'rsatilgan hujjatlarni ilova qilgan holda kafilga yozma ravishda taqdim etilishi kerak. Talabda yoki unga ilovada benefitsiar prinsipalning ta'minlash uchun kafolat berilgan asosiy majburiyatni buzishi nimadan iboratligini ko'rsatishi kerak.

Benefitsiarning talabi kafolatda belgilangan muddat tugaguncha kafilga taqdim etilishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 259, 299 — 304, 306 — 310-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 24.03.2012-yildagi "Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan bank kafolatlarini berish tartibi to'g'risidagi"gi nizomning 1-bandi.

306-modda. Benefitsiarning talabini ko'rib chiqishda kafilning majburiyatları

Kafil benefitsiarning talabini olganidan so'ng bu haqda darhol prinsipalni xabardor qilishi va unga talabning nusxasini barcha tegishli hujjatlar bilan topshirishi kerak.

Kafil benefitsiarning talabini unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga kafolatda ko'rsatilgan muddatda ko'rib chiqishi, muddat ko'rsatilmaganda esa — mutanosib muddatda bu talab hamda unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelishi yoki kelmasligini aniqlash uchun oqilona jonkuyarlik ko'rsatishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 299 — 305, 307 — 310-moddalari.

307-modda. Kafilning benefitsiar talabini qondirishni rad etishi

Agar benefitsiarning talabi yoki unga ilova qilingan hujjatlar kafolat shartlariga mos kelmasa yoxud kafilga kafolatda belgilab qo'yilgan muddat tamom bo'lganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa, kafil benefitsiarning talabini qondirishni rad etadi.

Kafil benefitsiarning talabini qondirishni rad etganligi haqida uni darhol xabardor qilishi shart.

Agar benefitsiarning talabi qondirilgunga qadar kafolat bilan ta'minlangan asosiy majburiyat batamom yoki uning tegishli qismi bajarilganligi yoxud boshqa asoslarga ko'ra bekor bo'lganligi yoinki haqiqiy emas deb topilganligi kafilga ma'lum bo'lib qolsa, u bu haqda darhol benefitsiarga va prinsipalga xabar berishi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 299 — 306, 308 — 310-moddalari.

308-modda. Kafil majburiyatlарининг chegaralари

Kafolatda nazarda tutilgan kafilning benefitsiar oldidagi majburiyati kafolat berilgan summani to'lash bilan cheklanadi.

Kafolat bo'yicha majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun kafilning benefitsiar oldidagi javobgarligi, agar kafolatda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kafolat berilgan summa bilan cheklanmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 299 — 307, 309, 310-moddalari.

309-modda. Kafolatning bekor bo'lishi

Kafilning kafolat bo'yicha benefitsiar oldidagi majburiyati quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

1) kafolat berilgan summa benefitsiarga to'lanishi;

2) kafolatda belgilangan muddatning tamom bo'lishi;

3) benefitsiar kafolat bo'yicha o'z huquqlaridan voz kechishi va uni kafilga qaytarib berishi oqibatida;

4) benefitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilishi haqida yozma ariza berish yo‘li bilan kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi oqibatida.

Kafil majburiyatining ushbu modda birinchi qismining **1**, **2** va **4**-bandlarida ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha bekor qilinishi unga kafolat qaytarib berilgan yoki qaytarib berilmaganligiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Kafolat bekor bo‘lganligidan xabar topgan kafil darhol bu haqda prinsipalni xabardor qilishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 299 — 308, 310-moddalari.

310-modda. Kafilning prinsipalga regress talablari

Kafilning prinsipaldan kafolat bo‘yicha benefitsiarga to‘langan summalarini regress tartibida to‘lashni talab qilish huquqi kafilning prinsipal bilan bajarish yuzasidan kafolat berilgan kelishuvida belgilab qo‘yiladi.

Agar kafilning prinsipal bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, kafil benefitsiarga kafolat shartlariga nomuvofiq tarzda yoki kafilning benefitsiar oldidagi majburiyatni buzganligi uchun to‘langan summalarini qoplashni prinsipaldan talab qilishga haqli emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 299 — 309-moddalari.

6-§. Zakalat

311-modda. Zakalat tushunchasi. Zakalat to‘g‘risidagi kelishuv shakli

Shartnoma tuzayotgan taraflardan biri shartnoma tuzilganligini isbotlash va uning ijrosini ta’minalash yuzasidan beradigan pul summasi zakalat hisoblanadi.

Zakalat to‘g‘risidagi kelishuv zakalatning summasidan qat‘i nazar, yozma ravishda tuzilishi kerak.

Shartnomadagi taraf amalga oshirishi kerak bo‘lgan to‘lovlar hisobidan to‘langan summa zakalat ekanligiga, xususan ushbu moddaning **ikkinci qismida** belgilangan qoidaga rioya qilinmasligi oqibatida, shubha tug‘ilgan taqdirda, bu summa, agar boshqa hol isbotlangan bo‘lmasa, bo‘nak sifatida to‘langan deb hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 312-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Garov to‘g‘risida”gi Qonunining 24 — 28-moddasi.

312-modda. Zakalat bilan ta’minalangan majburiyatni bekor qilish va bajarmaslik oqibatlari

Majburiyat uni bajarishdan oldin taraflarning kelishuviga muvofiq yoki bajarishning imkoniy yo‘qligi oqibatida (ushbu Kodeksning **349-moddasi**) bekor qilingan taqdirda zakalat puli qaytarib berilishi kerak.

Agar shartnomaning bajarilmasligi uchun zakalat puli bergen taraf javobgar bo‘lsa, zakalat ikkinchi tarafda qoladi. Agar shartnomaning bajarilmasligi uchun zakalat olgan taraf javobgar bo‘lsa, u ikkinchi tarafga zakalatni ikki baravar qilib qaytarishi shart.

Bundan tashqari, shartnomaning bajarilmasligi uchun javobgar bo‘lgan taraf, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, zakalat summasini hisobga olgan holda ikkinchi tarafga zararlarni to‘lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 234, 235, 237, 241, 259, 311, 380-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Garov to 'g'risida"gi Qonunining 24 — 28-moddalari.

23-BOB

MAJBURIYATDAGI ShAXSLARNING O'ZGARISHI

313-modda. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tish asoslari va tartibi

Majburiyat asosida kreditorga tegishli bo'lgan huquq (talab) uning tomonidan bitim bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazilishi (talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish) yoki qonun asosida boshqa shaxsga o'tishi mumkin.

Kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tishi uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarzdorning roziligi talab qilinmaydi.

Agar qarzdor kreditorning huquqlari boshqa shaxsga o'tganligi haqida yozma ravishda xabardor qilingan bo'lmasa, yangi kreditor shu tufayli kelib chiqqan o'zi uchun noqulay oqibatlar xavfini o'z zimmasiga oladi. Mazkur holda majburiyatning dastlabki kreditorga nisbatan bajarilishi tegishli kreditorga nisbatan bajarish deb hisoblanadi.

Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tishi haqidagi qoidalar regress talablarga nisbatan qo'llanilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 254-moddasining ikkinchi qismi, 295, 296, 318, 319, 341, 571, 957-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to 'g'risida"gi 110-son qarorining 2, 7-bandlari, 8-bandining birinchi, to 'rtinchi, beshinchi xatboshilari.

314-modda. Boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'limgan huquqlar

Kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'langan huquqlarning, xususan alimentlar to'g'risidagi va hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni to'lash to'g'risidagi talablarning boshqa shaxsga o'tishiga yo'l qo'yilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 99, 1005 — 1016-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining V bo'limi.

315-modda. Boshqa shaxsga o'tadigan kreditor huquqlarining hajmi

Agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, dastlabki kreditorning huquqi yangi kreditorga huquq o'tish paytida mavjud bo'lgan hajmda va shartlar asosida o'tadi. Xususan yangi kreditorga majburiyatning bajarilishini ta'minlaydigan huquqlar, shuningdek talab bilan bog'liq boshqa huquqlar, shu jumladan to'lanmagan foizlarga huquq ham o'tadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 99, 314, 316-moddalari.

 LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-son qarorining 8-bandni.

316-modda. Yangi kreditor huquqlarining isboti

O'z talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan kreditor talab qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni unga berishi va talabni amalga oshirish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni bildirishi kerak.

Qarzdor talablar yangi kreditorga o'tganligini isbotlovchi hujjatlar o'ziga taqdim etilmagunicha unga nisbatan majburiyatni bajarmaslikka haqli.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 99, 314, 315, 317 — 323-moddalari.

 LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-son qarorining 8-bandining ikkinchi xatboshi.

317-modda. Qarzdorning yangi kreditor talabiga qarshi e'tirozlar

Qarzdor majburiyat bo'yicha huquqlar yangi kreditorga o'tganligi haqida ogohlantirish olgan paytida dastlabki kreditorga qarshi e'tirozlarini yangi kreditorning talabiga qarshi qo'yishga haqli.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 99, 314 — 316, 318 — 323-moddalari.

 LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-son qarorining 8-bandining uchinchi xatboshi.

318-modda. Kreditor huquqlarining qonun asosida boshqa shaxsga o'tishi

Kreditorning majburiyat bo'yicha huquqlari boshqa shaxsga quyidagi hollarda o'tadi:

- 1) kreditor huquqlaridagi universal huquqiy vorislik natijasida;
- 2) kreditor huquqlarini boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi sudning qaroriga muvofiq;
- 3) qarzdorning majburiyati ushbu majburiyat bo'yicha qarzdor bo'limgan kafil yoki garovga qo'yuvchi tomonidan bajarilishi oqibatida;
- 4) sug'urta holati boshlanishi uchun javobgar bo'lgan qarzdorga nisbatan kreditor huquqlarining sug'urta qiluvchiga subrogatsiyasi (o'tishi) natijasida;
- 5) qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 50, 295, 314 — 316, 957, 1113-moddalari.

319-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shartlari

Oldingi tahrirga qarang.

Kreditorning o‘z talabidan boshqa shaxs foydasiga voz kechishiga, basharti u qonunchilikka yoki shartnomaga zid bo‘lmasa, yo‘l qo‘yiladi.

(319-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Kreditorning shaxsi qarzdor uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan majburiyat bo‘yicha talabdan qarzdorning rozilgisiz boshqa shaxs foydasiga voz kechishga yo‘l qo‘yilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 99, 314 — 318, 320 — 323-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma‘lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog‘liq normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 110-son qarorining 1, 10, 11-bandlari.

320-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish shakli

Oddiy yozma yoki notarial shaklda tuzilgan bitimga asoslangan talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish o‘sha shaklda amalga oshirilishi kerak.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab qilinadigan bitim bo‘yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu bitimni ro‘yxatga olish uchun belgilab qo‘yilgan tartibda ro‘yxatga olinishi kerak.

Orderli qimmatli qog‘oz bo‘yicha talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish ushbu qimmatli qog‘ozga indossament (talab qilish huquqini o‘tkazish yozuvi) yo‘li bilan amalga oshiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 96, 108, 110, 111, 318, 319, 321 — 323, 810-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma‘lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog‘liq normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 110-son qarorining 9-band.

321-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan kreditorning javobgarligi

Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechgan dastlabki kreditor yangi kreditor oldida unga o‘tkazilgan talabning haqiqiy emasligi uchun javob beradi, biroq qarzdor bu talabni bajarmaganligi uchun javob bermaydi, dastlabki kreditor yangi kreditor oldida qarzdor uchun o‘z zimmasiga kafolatni olgan hollar bundan mustasno.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 113, 292, 318 — 320, 322, 323-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma‘lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog‘liq normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 110-son qarorining 5-band.

322-modda. Qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish

Qarzdorning o‘z qarzini boshqa shaxsga o‘tkazishiga faqat kreditorning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi.

Yangi qarzdor kreditor bilan dastlabki qarzdor o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan barcha e’tirozlarni kreditor talabiga qarshi qo‘yishga haqli.

Agar kafil yoki garovga qo‘yuvchi yangi qarzdor uchun javob berishga rozi bo‘lmasalar, qarz boshqa shaxsga o‘tkazilishi bilan kafillik yoki uchinchi shaxs tomonidan belgilangan garov bekor bo‘ladi.

Qarzni boshqa shaxsga o‘tkazish shakliga ushbu Kodeks 320-moddasining **birinchi** va **ikkinchi** qismlaridagi qoidalar tegishincha qo‘llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 113, 287, 292, 298, 318 — 321,323-moddalari.

323-modda. Qarzni va ijroni bir paytda boshqa shaxsga o‘tkazish

Qarzdorni qarzni to‘lash majburiyatidan ozod qilmagan holda qarzni yoki uning qismini boshqa shaxsga o‘tkazishga ruxsat beriladi. Bu holda har ikkala qarzdor majburiyatning bajarilishi uchun solidar javobgar bo‘ladi.

Qarzdorning uchinchi shaxs bilan shartnomasi asosida uchinchi shaxs majburiyatning bajarilishi bo‘yicha kreditor oldida emas, balki faqat qarzdor oldida burchli bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 113, 251 — 254, 318 — 322-moddalari.

24-BOB

MAJBURIYATLARNI BUZGANLIK UChUN JAVOBGARLIK

324-modda. Qarzdorning zararni to‘lash majburiyati

Qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan zararni to‘lashi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada o‘zgacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo‘lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy qanoatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoatlantirilgan bo‘lmasa, — da’vo qo‘zg‘atilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlar e’tiborga olinadi. Sud vaziyatga qarab, zararni to‘lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo‘lgan narxlarni e’tiborga olgan holda qanoatlantirishi mumkin.

(324-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli *Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Boy berilgan foydani aniqlashda kreditor tomonidan uni olish uchun ko‘rilgan choralar va shu maqsadda ko‘rilgan tayyorgarliklar hisobga olinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14,236 — 258, 325 — 339-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 110-son qarorining 11-bandining ikkinchi xatboshisiga.

325-modda. Neustoyka va zarar

Agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka belgilangan bo'lsa, zararning neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanadi.

Qonunda yoki shartnomada zararni emas, balki faqat neustoykani undirib olishga yo'l qo'yiladigan; zarar ham neustoykadan tashqari to'la hajmda undirib olinishi mumkin bo'lgan; kreditorning tanloviga ko'ra yoki neustoyka yoxud zarar undirib olinishi mumkin bo'lgan hollar belgilanishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 325 — 339-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 34-moddasi.

326-modda. Neustoykani kamaytirish

Agar to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibligi ko'rinish tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli. Bunda qarzdor majburiyatni qay darajada bajarganligi, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarning mulkiy ahvoli, shuningdek kreditorning manfaatlari e'tiborga olinishi kerak.

Sud alohida hollarda qarzdor va kreditorning manfaatlarini hisobga olib, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoykani kamaytirish huquqiga ega.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 236 — 258, 324, 325, 327 — 339-moddalari, Oliy xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yil 15-iyundagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-son qarorining 4-bandi.

327-modda. Pul majburiyatini bajarmaganlik uchun javobgarlik

Boshqa shaxslarning pul mablag'larini g'ayriqonuniy ushlab qolish, ularni qaytarib berishdan bosh tortish, ularni to'lashni boshqacha tarzda kechiktirish yoxud boshqa shaxs hisobidan asossiz olish yoki jamg'arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag'lar summasiga foiz to'lanishi kerak.

Foizlar miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan erida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lган bank foizining hisob stavkasi bilan belgilanadi. Qarz sud tartibida undirib olinganida sud kreditorning talabini da'vo qo'zg'atilgan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bank foizining hisob stavkasiga qarab qondirishi mumkin. Ushbu qoidalar qonunda yoki shartnomada boshqa foiz miqdori belgilangan bo'lmasa qo'llaniladi.

Kreditorning pul mablag‘laridan qonunsiz foydalanish tufayli unga yetkazilgan zarar ushbu moddaning **birinchi** va **ikkinchi** qismlariga asosan unga tegishi kerak bo‘lgan foizlar summasidan oshib ketsa, kreditor qarzdordan zararning bu summadan ortiqcha bo‘lgan qismini to‘lashni talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 236 — 258, 324 — 326, 328 — 339, 785, 1023-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 24.09.1999-yildagi “Fuqarolik kodeksini tafbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g’risida”gi 16-son qarorining 22-bandi, O’zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yil 15-iyundagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g’risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarorining 4-bandining ikkinchi xatboshisi, 5 — 11-bandlari, 12-bandining ikkinchi xatboshisi, 13-bandi, 18-bandining ikkinchi xatboshisi.

328-modda. Majburiyatning qarzdor hisobidan bajarilishi

Oldingi tahrirga qarang.

Qarzdor ashyoni tayyorlash va kreditorga mulk qilib, xo‘jalik yuritishga yoki operativ boshqarishga topshirish yoxud ashyoni foydalanish uchun kreditorga berish yoxud uning uchun muayyan ishni bajarish yoki unga xizmat ko‘rsatish majburiyatini bajarmagan taqdirda kreditor, agar qonunchilikdan, shartnomadan yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, uchinchi shaxslarga majburiyatni oqilona muddatda oqilona baholarda ijro etishni topshirishga yoinki uni o‘z kuchlari bilan bajarishga hamda qarzdordan qilingan zarur xarajatlarni va boshqa zararni to‘lashni talab qilishga haqli.

*(328-moddaning matni O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O’RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 327, 329 — 339, 785, 1023-moddalari.

329-modda. Subsidiar javobgarlik

Oldingi tahrirga qarang.

Qonunchilik yoki majburiyat shartlariga muvofiq asosiy qarzdor bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarligiga qo‘srimcha ravishda javobgar bo‘lgan (subsidiar javobgarlik) shaxsga talablar qo‘yishdan oldin kreditor asosiy qarzdorga talab qo‘yishi kerak.

*(329-moddaning birinchi qismi O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O’RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)*

Agar asosiy qarzdor kreditoring talabini qondirishdan bosh tortsa yoki kreditor undan qo‘ylgan talabga oqilona muddatda javob olmagan bo‘lsa, bu talab subsidiar javobgar bo‘lgan shaxsga qo‘yilishi mumkin.

Kreditor asosiy qarzdorga bo‘lgan o‘z talabini qondirishni subsidiar javobgar shaxsdan talab qilishga haqli emas, basharti bu talab asosiy qarzdorga muqobil talabni hisobga o‘tkazish yoki mablag‘larni asosiy qarzdordan nizosiz undirib olish yo‘li bilan qondirilishi mumkin bo‘lsa.

Subsidiar javobgar shaxs o‘ziga kreditor tomonidan qo‘yilgan talabni qondirishdan oldin bu haqda asosiy qarzdorni ogohlantirishi, bordi-yu bunday shaxsga nisbatan da’vo qo‘zg‘atilgan bo‘lsa — asosiy qarzdorni ishda qatnashishga jalb qilishi kerak. Aks holda asosiy qarzdor o‘zining kreditorga qarshi e’tirozlarini subsidiar javobgar shaxsning regress talabiga qarshi qo‘yish huquqiga ega.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 328, 330 — 339-moddalari.

330-modda. Javobgarlik va majburiyatni asl holida bajarish

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyat lozim darajada bajarilmagan taqdirda neustoyka to‘lash va zararni qoplash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

Basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyat bajarilmagan taqdirda zararni qoplash va uning bajarilmaganligi uchun neustoyka to‘lash qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi.

Kechiktirib yuborish oqibatida o‘zi uchun ahamiyatini yo‘qotgan (ushbu Kodeks 337-moddasining **ikkinchi qismi**) ijroni kreditorning qabul qilishdan bosh tortishi, shuningdek voz kechish haqi tarzida belgilangan neustoykani to‘lash (ushbu Kodeksning **342-moddasi**) qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 236 — 258, 324 — 329, 331 — 339, 436-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 34-moddasining uchinchi qismi.

331-modda. Xususiy belgili ashyni topshirish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari

Xususiy belgili ashyni kreditorning mulki qilib, uning xo‘jalik yuritishiga, operativ boshqaruviga yoki foydalanishiga topshirish majburiyati bajarilmagan taqdirda kreditor bu ashyni olib qo‘yishni va majburiyatda nazarda tutilgan shartlar asosida o‘ziga topshirishni talab qilishga haqli. Bu huquq ashyo bir xil huquqqa ega bo‘lgan uchinchi shaxsga topshirilgan bo‘lsa, bekor bo‘ladi. Agar ashyo hali topshirilmagan bo‘lsa, vaziyat qaysi kreditorning foydasiga oldinroq vujudga kelgan bo‘lsa, o‘scha kreditor ustunlikka ega bo‘ladi, basharti buni aniqlash mumkin bo‘lmasa, oldin da’vo qo‘zg‘atgan kreditor ustunlikka ega bo‘ladi.

Kreditor majburiyat narsasi bo‘lgan ashyni o‘ziga topshirishni talab qilish o‘rniga, zararning qoplanishini talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 87, 186, 236 — 258, 324 — 330, 332 — 339-moddalari.

332-modda. Majburiyatlar bo‘yicha javobgarlik hajmini cheklash

Majburiyatlarning ayrim turlari bo‘yicha hamda muayyan faoliyat turi bilan bog‘liq majburiyatlar bo‘yicha qonunda zararni to‘la qoplashga bo‘lgan huquq cheklab qo‘yilishi mumkin (cheklangan javobgarlik).

Qo‘shilish shartnomasi yoki kreditor iste’molchi sifatida ish olib boruvchi fuqaro bo‘lgan boshqa shartnomaga bo‘yicha qarzdorning javobgarlik hajmini cheklash to‘g‘risidagi kelishuv haqiqiy emas, basharti majburiyatlarning ushbu turi yoki ushbu tartibbuzarlik uchun javobgarlik hajmi qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lsa va agar majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada

bajarmaganlik uchun javobgarlikni keltirib chiqaradigan vaziyatlar yuz berguncha kelishuvga erishilgan bo'lsa.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 331, 333 — 339, 362-moddalari.

333-modda. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari

Oldingi tahrirga qarang.

Qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, javob beradi. Qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan hamma choralarни ko'rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi.

(333-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Aybning yo'qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanadi.

Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni lozim darajada bajarishga yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli imkon bo'lmanligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi. Qarzdorning shartlashuvchi sheriklari tomonidan majburiyatlarning buzilishi, majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo'qligi, qarzdorda zarur pul mablag'larining bo'lmanligi bunday vaziyatlar jumlasiga kirmaydi.

Majburiyatni qasddan buzganlik uchun javobgarlikni bartaraf qilish yoki cheklash to'g'risidagi avvaldan kelishilgan bitim u tuzilgan paytdan boshlab haqiqiy emas.



LexUZ sharhi

Sud amaliyotiga karang



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 116, 236 — 258, 324 — 332, 334 — 339-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 103-son qarori 11-bandining birinchi xatboshisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yildagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-son qarori 12-bandining ikkinchi xatboshisi.

334-modda. Uchinchi shaxslarning harakatlari uchun qarzdorning javobgarligi

Oldingi tahrirga qarang.

Basharti, qonunchilik yoki shartnomada bevosita ijrochi bo'lgan uchinchi shaxsning javobgarligi belgilab qo'yilmagan bo'lsa, zimmasiga majburiyatni bajarish vazifasi yuklatilgan uchinchi shaxslarning majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun qarzdor javob beradi.

(334-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 333, 335 — 339-moddalari.

335-modda. Kreditorning aybi

Agar kreditor qasddan yoki ehtiyyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmasligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko‘payishiga ko‘maklashgan bo‘lsa, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralarini qasddan yoki ehtiyyotsizlik tufayli ko‘rmagan bo‘lsa, sud ishning holatlariga qarab to‘lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to‘lashni batamom rad etishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 334, 336 — 339, 349-moddalari.

336-modda. Ikki taraflama shartnomani bajarmaslik oqibatlari

Agar ikki taraflama shartnomada bir taraf o‘zi javobgar bo‘lgan vaziyat tufayli uni bajarishi mumkin bo‘lmay qolsa, ikkinchi taraf, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnomadan voz kechishga va shartnomaning bajarilmasligi tufayli yetkazilgan zararni undirib olishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 335, 337 — 339-moddalari.

337-modda. Ijroning qarzdor va kreditor tomonidan kechiktirib yuborilishi

Ijroni kechiktirib yuborgan qarzdor kechiktirib yuborish tufayli yetkazilgan zarar uchun va kechiktirib yuborish davrida tasodifan ijroni bajarish mumkin bo‘lmasligi vujudga kelganligi uchun kreditor oldida javob beradi.

Agar qarzdor ijroni kechiktirib yuborganligi tufayli kreditor uchun uning ahamiyati qolmagan bo‘lsa, u ijroni qabul qilishdan bosh tortishi va zararni to‘lashni talab qilishi mumkin.

Agar kreditor qarzdor tomonidan taklif qilingan lozim darajadagi ijroni qabul qilishdan bosh tortgan bo‘lsa yoki o‘zi amalga oshirishi kerak bo‘lgan va amalga oshirilgunicha qarzdor o‘z majburiyatini bajara olmagan harakatlarni qilgan bo‘lmasa, kreditor muddatni kechiktirib yuborgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 336, 338 — 339, 349-moddalari.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

338-modda. Kreditorning ijroni kechiktirib yuborish oqibatlari

Kreditorning shartnomasi bo‘yicha o‘ziga tegishli narsani qabul qilishni kechiktirib yuborishi qarzdorga kechiktirib yuborish tufayli yetkazilgan zararni undirib olish huquqini beradi

va keyinchalik majburiyatni ijro etish mumkin bo‘lmay qolsa, uni javobgarlikdan ozod qiladi, qarzdorning qasddan ish tutishi yoki qo‘pol ehtiyotsizlik qilish hollari bundan mustasno.

Pul majburiyati bo‘yicha kreditor ijroni kechiktirib yuborgan vaqt uchun qarzdor foiz to‘lashga majbur emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 324 — 337, 339, 349-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 15.06.2007-yildagi “Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g‘risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 163-son qarori 17-bandni.

339-modda. Ijroning kechiktirib yuborilganligi uchun kreditorni javobgarlikdan ozod qilish

Agar kreditor ijroning kechiktirib yuborilishi qonunga muvofiq yoki kreditorning topshirig‘i bilan ijroni qabul qilish vazifasi yuklatilgan shaxslar qasddan ish tutganligi yoki ehtiyotsizligi tufayli kelib chiqqanligini isbotlasa, u ijroning kechiktirib yuborilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 129, 133, 236 — 258, 324 — 338-moddalari.

25-BOB

MAJBURIYATLARNING BEKOR BO‘LISHI

340-modda. Majburiyatlarning bekor bo‘lish asoslari

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyat ushbu Kodeksda, boshqa qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra to‘liq yoki qisman bekor bo‘ladi.

(340-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Majburiyatni taraflardan birining talabi bilan bekor qilishga qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

(340-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 283-moddasi birinchi qismining 2-bandni, 309-moddasi birinchi qismining 3, 4-bandlari, 341 — 352-moddalari, 382-moddasi ikkinchi — to‘rtinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 15-moddasi.

341-modda. Majburiyatning bajarilishi bilan bekor bo‘lishi

Majburiyat, qoida tariqasida, uning lozim darajada bajarilishi bilan bekor bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 340, 342 — 352-moddalari.

342-modda. Voz kechish haqi

Taraflarning kelishuviga muvofiq majburiyat uni bajarish o‘rniga voz kechish haqini berish (pul to‘lash, mol-mulk berish va shu kabilar) bilan bekor qilinishi mumkin. Voz kechish haqining miqdori, muddatlari va uni berish tartibini taraflar belgilaydilar.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 236 — 258, 340 — 341, 343 — 352-moddalari.

343-modda. Hisobga o‘tkazish bilan majburiyatning bekor bo‘lishi

Muddati to‘lgan yoki muddati ko‘rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan muqobil o‘xhash talab hisobga o‘tkazilishi bilan majburiyat to‘liq yoki qisman bekor bo‘ladi.

Hisobga o‘tkazish uchun bir tarafning arizasi kifoya qiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 340 — 342, 344 — 352, 783-moddalari.

344-modda. Hisobga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmasligi

Quyidagi talablarni hisobga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi:
da’vo muddati o‘tgan talablarni;
fuqaroning sog‘ligiga shikast yetishi yoki uning vafoti munosabati bilan yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talabini;
alimentlar undirish haqidagi talabni;
umrbod asrash sharti bilan uy-joyni boshqa shaxsga topshirish talabini;
qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollardagi talabni.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 149 — 163, 530 — 534, 1005 — 1016-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining V bo‘limi.

345-modda. Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilganida hisobga o‘tkazish

Talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan taqdirda qarzdor o‘zining dastlabki kreditorga muqobil talabini yangi kreditorning talabiga qarshi hisobga o‘tkazishga haqli.

Agar talab qarzdor bu talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechilgani to‘g‘risidagi bildirishni olgan paytgacha mavjud bo‘lgan asosga ko‘ra vujudga kelgan bo‘lsa va talab qilish muddati ana shu bildirish olinguncha kelgan bo‘lsa yoki ushbu muddat ko‘rsatilmagan yoxud talab qilish payti bilan belgilangan bo‘lsa, hisobga olish amalga oshiriladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 313, 340 — 344, 346 — 352-moddalari.

346-modda. Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganida majburiyatning bekor bo‘lishi

Qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo‘lib qolganida majburiyat bekor bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 340 — 345, 347 — 352-moddalari.

347-modda. Majburiyat yangilanishi bilan uning bekor bo‘lishi

Taraflar o‘z o‘rtalaridagi dastlabki majburiyatni boshqa narsani yoki boshqacha ijro etish usulini nazarda tutuvchi yangi majburiyat bilan almashtirish (majburiyatni yangilash) haqida kelishib olsalar, majburiyat bekor bo‘ladi.

Hayot yoki sog‘liqqa yetkazilgan zararni qoplash va alimentlarga nisbatan majburiyatlar xususida yangilashni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar taraflarning kelishuviga muvofiq boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, majburiyatni yangilash dastlabki majburiyat bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha majburiyatlarni bekor qiladi.

 LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 742, 1005 — 1016-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining V bo‘limi.

348-modda. Qarzdan voz kechish

Kreditor qarzdorni uning zimmasidagi majburiatlardan ozod qilishi bilan, agar bu hol boshqa shaxslarning kreditor mol-mulkiga nisbatan huquqlarini buzmasa, majburiyat bekor bo‘ladi.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 340 — 347, 349 — 352-moddalari.

349-modda. Bajarish mumkin bo‘Imaganligi tufayli majburiyatning bekor bo‘lishi

Agar taraflardan birontasi ham javob bermaydigan vaziyat tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo‘lmay qolsa, u bekor bo‘ladi.

Basharti, qarzdor majburiyatni kreditorning aybli harakatlari tufayli bajarishi mumkin bo‘lmasa, kreditor o‘zining majburiyat bo‘yicha bajarganlarini qaytarib berishni talab qilishga haqli emas.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 335, 340 — 348, 350 — 352-moddalari.

350-modda. Majburiyatning davlat organi hujjati asosida bekor bo‘lishi

Agar davlat organining hujjati chiqishi natijasida majburiyatni bajarish to‘liq yoki qisman mumkin bo‘lmay qolsa, majburiyat to‘liq yoki uning tegishli qismi bekor bo‘ladi. Buning natijasida zarar ko‘rgan taraflar ushbu Kodeksning 12 va 15-moddalariga muvofiq uni to‘lashni talab qilishga haqlidirlar.

Davlat organining majburiyat bekor bo‘lishiga asos bo‘lgan hujjati belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilganida, agar taraflarning kelishuvidan yoki majburiyatning mohiyatidan boshqacha tartib kelib chiqmasa va majburiyatni bajarish kreditor uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lsa, majburiyat tiklanadi.

 LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 236 — 258, 340 — 349, 351 — 352-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni 35-moddasi.

351-modda. Fuqaro vafot etishi bilan majburiyatning bekor bo‘lishi

Agar majburiyatni qarzdorning shaxsiy ishtirokisiz bajarish mumkin bo‘lmasa yoki majburiyat boshqacha tarzda qarzdorning shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, qarzdor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo‘ladi.

Agar majburiyatni bajarish shaxsan kreditor uchun mo'ljallangan yoki majburiyat boshqacha tarzda kreditorning shaxsi bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, kreditor vafot etishi bilan majburiyat bekor bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 36, 37, 236 — 258, 314, 340 — 350, 352-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 305 — 309-moddalari.

352-modda. Yuridik shaxs tugatilishi bilan majburiyatning bekor bo'lishi

Oldingi tahrirga qarang.

Yuridik shaxs (qarzdor yoki kreditor) tugatilishi bilan majburiyat bekor bo'ladi, qonunchilik bilan tugatilgan yuridik shaxsning majburiyatlarini bajarish boshqa shaxs zimmasiga yuklatilgan (hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zararni to'lash talabi va boshqa talablar bo'yicha) hollar bundan mustasno.

*(352-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 53, 1015-moddalari.

2-kichik bo'lim

ShARTNOMA TO'G'RISIDA UMUMIY QOIDALAR

26-BOB

ShARTNOMA TUSHUNCHASI VA ShARTLARI

353-modda. Shartnoma tushunchasi

Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi.

Shartnomalarga ushbu Kodeksning **9-bobida** nazarda tutilgan ikki va ko'p taraflama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

Shartnomadan kelib chiqqan majburiyatlarga, agar ushbu bobning qoidalarida va ushbu Kodeksda shartnomalarning ayrim turlari to'g'risida bayon etilgan qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatlar to'g'risidagi umumiylar qoidalar (ushbu Kodeksning **234-352-moddalari**) qo'llaniladi.

Ikkitadan ortiq taraflar tuzadigan shartnomalarga, bunday shartnomalarning ko'ptaraflamalik xususiyatiga zid bo'lmasa, shartnoma to'g'risidagi umumiylar qoidalar qo'llaniladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 354 — 363-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektilar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasi.

354-modda. Shartnoma tuzish erkinligi

Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar.

Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi, shartnoma tuzish burchi ushbu Kodeksda, boshqa qonunda yoki olingen majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Oldingi tahrirga qarang.

Taraflar qonunchilikda nazarda tutilmagan shartnomani ham tuzishlari mumkin.

*(354-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-soni
Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)*

Taraflar turli shartnomalarning elementlarini o‘z ichiga oladigan shartnoma (aralash shartnoma) tuzishlari mumkin. Aralash shartnoma bo‘yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo‘lgan shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonunchilikda ko‘rsatib qo‘yilgan hollar bundan mustasno.

(354-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Shartnomaning sharti taraflar kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo‘yilmaganligi tufayli qo‘llaniladigan norma (dispozitiv norma)da nazarda tutilgan hollarda taraflar o‘zaro kelishib, uning qo‘llanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday kelishuv bo‘limganda shartnomaning sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi.

Agar shartnoma shartlari taraflar yoki dispozitiv norma bilan belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, tegishli shartlar taraflar o‘rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ish muomalasi odatlari bilan belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353, 358-moddasi, 361-moddasining birinchi qismi, 377-moddasi, 379-moddasining birinchi qismi, 459-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 2-bandisi.

355-modda. Haq evaziga va tekinga tuziladigan shartnomalar

Shartnoma bo‘yicha taraf o‘z burchlarini bajarganligi uchun haq olishi yoki unga boshqa muqobil to‘lov to‘lanishi lozim bo‘lsa, bunday shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma bo‘ladi.

Shartnoma bo‘yicha bir taraf ikkinchi tarafga undan haq yoki boshqa muqobil to‘lov olmasdan biron narsani berish majburiyatini olsa, bunday shartnoma tekinga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikdan, shartnomaning mazmuni yoki mohiyatidan boshqacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

(355-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353, 354, 356 — 363, 502, 617, 898-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog‘liq normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 110-son qarori 1-bandining uchinchi xatboshisi.

356-modda. Baho

Shartnomani bajarganlik uchun taraflarning kelishuvi bilan belgilangan bahoda haq to‘lanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda tegishli vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari belgilaydigan yoki tartibga soladigan baholar (tariflar, rassenkalar, stavkalar va h.k.) qo‘llaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomada tuzilganidan keyin bahoni o‘zgartirishga qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda va shartlarda yo‘l qo‘yiladi.

(*356-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son*)

Haq to‘lashni nazarda tutadigan shartnomada baho nazarda tutilmagan va shartnomada shartlari bo‘yicha belgilanishi mumkin bo‘lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o‘xhash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo‘yicha haq to‘lanishi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353 — 355, 357 — 363-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 19.08.1999-yildagi “Baholash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog‘liq normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 110-son qarorining 6-band, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-son qarorining 6-band.

357-modda. Shartnomaning amal qilishi

Shartnomada tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo‘lib qoladi.

Taraflar o‘zları tuzgan shartnomaning shartlarini ularning shartnomada tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi deb belgilab qo‘yishga haqlidirlar.

Qonunda yoki shartnomada shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarning shartnomada bo‘yicha majburiyatları bekor bo‘lishiga olib keladi, deb belgilanishi mumkin.

Bunday shart yozib qo‘yilmagan shartnomada taraflar majburiyatni bajarishining shartnomada belgilab qo‘yilgan oxirgi muddatigacha amal qiladi, deb hisoblanadi.

Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353 — 356, 358 — 363-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 13-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 28.02.2003-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish huquqi bilan bog'liq normalarini qo'llashning ayrim masalalari to 'g'risida"gi 110-sodan qarorining 9-band.

358-modda. Ommaviy shartnoma

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyatini xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiyligi foydalanishdagi transportda yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, energiya bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va sh.k.) belgilab qo'yadigan shartnoma ommaviy shartnoma deyiladi. Bunday tashkilot ommaviy shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(358-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi, qonunchilikda iste'molchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yiladigan hollar bundan mustasno.

(358-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko'rsatish, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan asossiz bosh tortganida ushbu Kodeks 377-moddasining **oltinchi** va **yettinchi** qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Hukumati ommaviy shartnomalarni tuzish va bajarishda taraflar uchun majburiy bo'lgan qoidalar (namunaviy shartnomalar, qoidalar va h.k.) chiqarishi mumkin.

Ommaviy shartnomaning ushbu modda **ikkinci** va **beshinchi** qismlari bilan belgilab qo'yilgan talablarga mos kelmaydigan shartlari haqiqiy emas.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353 — 357, 359 — 363, 425, 558-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 26.05.2015-yildagi "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to 'g'risida"gi Qonuni 6-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 25.04.1997-yildagi "Shahar yo'lovchilar transporti to 'g'risida"gi Qonuni 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 16.04.2009-yildagi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to 'g'risida"gi Qonuni 6, 15-moddalari.

359-modda. Shartnomaning namunaviy shartlari

Shartnomada uning ayrim shartlari tegishli turdag'i shartnomalar uchun ishlab chiqilgan namunaviy shartlar bilan belgilanishi nazarda tutilishi mumkin.

Shartnomada namunaviy shartlarga havola qilinmagan hollarda bunday namunaviy shartlar taraflarning munosabatlariiga ish muomalasi odatlari sifatida qo'llaniladi.

Namunaviy shartlar namunaviy shartnoma yoki ushbu shartlarni o'z ichiga oluvchi boshqa hujjat shaklida ifodalanishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 353 — 358, 360 — 363-moddalari.

360-modda. Qo'shilish shartnomasi

Shartlarini taraflardan biri formulyarlar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo'shilish yo'li bilan qabul qilishi mumkin bo'lgan shartnomaga qo'shilish shartnomasi deyiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qo'shilish shartnomasi garchi qonunchilikka zid bo'lmasa-da, biroq qo'shiluvchi tarafni odatda ana shunday turdag'i shartnomalar asosida beriladigan huquqlardan mahrum etsa, ikkinchi tarafning majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarligini istisno etsa yoki cheklasa yohud unda qo'shilgan taraf uchun ochiqdan-ochiq og'ir bo'lgan, bu tarafda shartnomaga shartlarini belgilashda qatnashish imkoniyati bo'lganida u o'zining manfaatlarini ko'zlab qabul qilmaydigan shartlar yozib qo'yilgan bo'lsa, shartnomaga qo'shilgan taraf shartnomani bekor qilishni yoki o'zgartirishni talab qilishga haqli.

(360-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lganida o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi munosabati bilan shartnomaga qo'shilgan taraf qanday shartlar asosida shartnomaga tuzayotganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'ljan bo'lsa, shartnomaga qo'shilgan tarafning shartnomani bekor qilish yoki o'zgartirish haqida qo'ygan talabi qondirilmaydi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 332, 353 — 359, 361 — 363, 382 — 385-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 25.08.2015-yildagi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuning 9-moddasining ikkinchi qismi.

361-modda. Dastlabki shartnomma

Dastlabki shartnomma bo'yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnomaga tuzish (asosiy shartnomma) majburiyatini oladilar.

Dastlabki shartnomma asosiy shartnomma uchun belgilangan shaklda, bordi-yu, asosiy shartnomaning shakli aniqlanmagan bo'lsa, yozma shaklda tuziladi. Dastlabki shartnomaning shakli to'g'risidagi qoidalarga rioya qilmaslik uning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi.

Dastlabki shartnomada asosiy shartnomaning narsasini, shuningdek boshqa muhim shartlarini belgilab qo'yish imkonini beradigan shartlar bo'lishi kerak.

Dastlabki shartnomada taraflar qancha muddatda asosiy shartnomani tuzish majburiyatini olishi ko'rsatiladi. Agar dastlabki shartnomada bunday muddat belgilab qo'yilgan bo'lmasa, asosiy shartnomma dastlabki shartnomaga tuzilgan paytdan boshlab bir yil ichida tuzilishi shart.

Dastlabki shartnomani tuzgan taraf asosiy shartnomani tuzishdan bosh tortgan taqdirda ushbu Kodeks 377-moddasining oltinchi va yettinchi qismlarida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi.

Agar taraflar asosiy shartnomani tuzishlari lozim bo'ljan muddatning oxirigacha u tuzilmasa yoki taraflarning birontasi ham ikkinchi tarafga ana shunday shartnomaga tuzish haqida taklif yubormasa, dastlabki shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bekor bo'ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 107, 114, 353 — 360, 362 — 381-moddalari.

362-modda. Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomma

Taraflar qarzdor ijroni kreditorga emas, balki shartnomada ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmagan, qarzdordan majburiyatni o'z foydasiga bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lган uchinchi shaxsga bajarishi majbur deb belgilab qo'ygan shartnomaga uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomaga deyiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Agar qonunchilikda yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, uchinchi shaxs shartnomaga bo'yicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlarini tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning roziligesiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas.

(362-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Qarzdor kreditorga qarshi qo'yishi mumkin bo'lgan e'tirozlarini shartnomada uchinchi shaxsning talablariga qarshi qo'yishga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Uchinchi shaxs shartnomaga bo'yicha o'ziga berilgan huquqdan foydalanishdan voz kechgan taqdirda, basharti qonunchilik va shartnomaga zid bo'lmasa, kreditor bu huquqdan foydalanishi mumkin.

(362-moddaning to'rtinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353 — 361, 363-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi "Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 203-son qarorining 17-bandi.

363-modda. Shartnomani sharhlash

Sud shartnomalarini sharhlashda undagi so'z va iboralarning asl ma'nosini e'tiborga oladi. Shartnomaning sharti aniq bo'lmasa, uning asl ma'nosi uni boshqa shartlarga va butun shartnomaning ma'nosiga taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi.

Agar ushbu moddaning **birinchi qismida** bayon etilgan qoidalar shartnomaning mazmunini aniqlash imkonini bermasa, taraflarning haqiqiy umumiyligi xohish-irodasi shartnomaning maqsadini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak. Bunda barcha tegishli holatlar, shu jumladan shartnomalarini tuzish oldidan olib borilgan muzokaralar va yozishmalar, taraflarning o'zaro munosabatlarida qaror topgan amaliyot, ish muomalasi odatlari, taraflarning keyinchalik o'zlarini qanday tutganligi e'tiborga olinadi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 353 — 363-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi

to‘g‘risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-sod qarori 3-bandining uchinchi xatboshisi.

27-BOB ShARTNOMA TUZISH

364-modda. Shartnomalar tuzish to‘g‘risidagi asosiy qoidalar

Agar taraflar o‘rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari yuzasidan shunday hollarda talab qilinadigan shaklda kelishuvga erishilgan bo‘lsa, shartnomalar tuzilgan hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomaning narsasi to‘g‘risidagi shartlar, qonunchilikda bunday turdagiligi shartnomalar uchun muhim yoki zarur deb hisoblangan shartlar, shuningdek taraflardan birining arizasiga ko‘ra kelishib olinishi zarur bo‘lgan hamma shartlar muhim shartlar hisoblanadi.

(364-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-sod)

Shartnomalar taraflardan birining oferta (shartnomalar tuzish haqida taklif) yo‘llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo‘li bilan tuziladi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 353 — 363, 366-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-sod Qarorining 5-bandi.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-sod Qarorining 5-bandi.

365-modda. Shartnomaning tuzilish payti

Oferta yo‘llagan shaxs uning akseptini olgan paytda shartnomalar tuzilgan hisoblanadi.

Agar qonunga muvofiq shartnomalar tuzish uchun mol-mulkni topshirish ham zarur bo‘lsa, shartnomalar tegishli mol-mulk topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi (ushbu Kodeksning 185-moddasi).



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 353 — 363, 366, 367, 370-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 203-sod qarori 6-bandining birinchi — ikkinchi xatbosilari.

366-modda. Shartnomaning shakli

Agar qonunda muayyan turdagiligi shartnomalar uchun ma’lum bir shakl belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, shartnomalar bitimlar tuzish uchun nazarda tutilgan har qanday shaklda tuzilishi mumkin.

Notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi shart bo‘lgan shartnoma notarial tasdiqlangan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran, notarial tasdiqlanishi va ro‘yxatdan o‘tkazilishi zarur bo‘lganda esa — shartnoma ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani muayyan shaklda tuzishga kelishgan bo‘lsalar, garchi qonunda bu turdagи shartnomalar uchun bunday shakl talab qilingan bo‘lmasa-da, shartnoma belgilangan shaklga keltirilganidan keyin tuzilgan hisoblanadi.

Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo‘li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Agar shartnoma tuzish haqidagi yozma taklif ushbu Kodeks 370-moddasining **to‘rtinchi qismida** nazarda tutilgan tartibda olingan bo‘lsa, shartnomaning yozma shakliga rioya qilingan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 105 — 108, 110, 111-moddalari, 480-moddasining birinchi qismi, 488-moddasining ikkinchi qismi, 490-moddasining birinchi qismi, 504, 513-moddalari, 531-moddasining uchinchi qismi, 539-moddasi, 558-moddasining uchinchi qismi, 565, 574-moddalari, 580-moddasining birinchi qismi, 603-moddasi, 626¹-moddasining birinchi qismi, 727-moddasining birinchi qismi, 733-moddasining birinchi qismi, 745-moddasining birinchi qismi, 761-moddasining birinchi qismi, 774-moddasining birinchi qismi, 817-moddasining to‘rtinchi qismi, 832-moddasining birinchi qismi, 854-moddasining birinchi, ikkinchi qismlari, 863, 877-moddalari, 903-moddasining ikkinchi qismi, 927-moddasining ikkinchi qismi, 962-moddasining uchinchi qismi, 1069, 1088, 1089-moddalari, 1106-moddasining birinchi qismi, 1181-moddasining ikkinchi, uchinchi qismlari, O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 11-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 02.06.2016-yildagi 185-son qarori bilan tasdiqlangn “Elektron tijoratni amalga oshirish Qoidalari”ning 36-bandni.

367-modda. Oferta

Bir yoki bir necha muayyan shaxsga yuborilgan, yetarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan shaxsnинг o‘zini taklif yo‘llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif oferta hisoblanadi.

Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo‘lishi kerak.

Oferta uni yo‘llagan shaxsni oferta yo‘llangan shaxs bilan u ofertani olgan paytdan boshlab bog‘laydi.

Agar ofertani chaqirib olish to‘g‘risidagi bildirish ofertaning o‘zidan oldin yoki u bilan bir vaqtida kelgan bo‘lsa, oferta olinmagan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 353 — 366, 368 — 370-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 203-son Qarori 4-bandining ikkinchi, uchinchi xatboshilari.

368-modda. Ofertaning chaqirib olinmasligi

Qabul qiluvchi taraf olgan oferta uni akseptlash uchun belgilab qo‘yilgan muddat mobaynida chaqirib olinishi mumkin emas, basharti boshqacha tartib ofertaning o‘zida shart qilib qo‘yilgan bo‘lmasa yoki taklifning mohiyatidan yoxud u yo‘llangan paytdagi vaziyatdan anglashilmasa.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6,364, 365, 367-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.06.2016-yildagi “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Elektron tijoratni amalga oshirish qoidalarining 28-bandi.

369-modda. Ofertaga taklif etish. Ommaviy oferta

Nomuayyan shaxslar doirasiga yo‘llangan reklama va boshqa takliflar, agar taklifda boshqacha hol to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lmasa, ofertaga taklif etish deb qaraladi.

Shartnomaning barcha asosiy shartlarini o‘z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko‘rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo‘lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif oferta (ommaviy oferta) hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 364, 365, 367, 426-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 25.12.1998-yildagi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuning 8, 9 moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 09.04.2018-yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida” gi Qonuning 44-moddasi.

370-modda. Aksept

Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi.

Aksept to‘liq va pisandasiz bo‘lishi kerak.

Agar qonundan, ish muomalasi odatidan yoki taraflarning ish bo‘yicha avvalgi munosabatlardan boshqacha ma’no kelib chiqmasa, sukut saqlash aksept bo‘lmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ofertani akseptlash uchun belgilangan muddatda olgan shaxsning unda ko‘rsatilgan shartnoma shartlarini bajarish yuzasidan qilgan harakatlari (tovarlarni jo‘natish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlar bajarish, tegishli summani to‘lash va h. k.), agar qonunchilikda yoki ofertada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoki ko‘rsatilmagan bo‘lsa, aksept hisoblanadi.

(370-moddaning to‘rtinchи qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 364, 365, 367, 369, 371 — 375-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 25.12.1998-yildagi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuning 9-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 09.04.2018-yildagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuning 35-moddasi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma‘lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 04.03.2002-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar Faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunini iqtisodiy sudlar amaliyotida qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 103-sod qarorining 2-bandi, Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 203-sod qarori 7-bandining birinchi, ikkinchi xatboshilari.

371-modda. Akseptni chaqirib olish

Agar akseptni chaqirib olish haqidagi bildirish oferta yuborgan shaxsga akseptdan oldinroq yoki u bilan bir vaqtida yetib kelgan bo‘lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 364, 365, 367, 369, 370, 372 — 375-moddalari.

372-modda. Aksept muddati ko‘rsatilgan oferta asosida shartnoma tuzish

Ofertada aksept muddati ko‘rsatilgan bo‘lsa, aksept oferta yo‘llagan shaxs tomonidan unda ko‘rsatilgan muddat mobaynida olinsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 364, 365, 367, 369, 371, 373 — 375-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 4-bandisi.

373-modda. Aksept muddati ko‘rsatilmagan oferta asosida shartnoma tuzish

Oldingi tahririga qarang.

Yozma ofertada aksept muddati ko‘rsatilmagan aksept oferta yo‘llagan shaxs tomonidan qonunchilikda belgilab qo‘yilgan muddatlarda, agar bunday muddat belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa — buning uchun normal zarur bo‘lgan vaqt mobaynida olinsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

(373-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Oferta aksept uchun muddat ko‘rsatmasdan og‘zaki tarzda qilinganida boshqa taraf uni akseptlaganini darhol aytgan bo‘lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 364, 365, 367, 369, 371, 372, 374, 375-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 6-bandisi.

374-modda. Kechikib olingan aksept

Aksept to‘g‘risida o‘z vaqtida yo‘llangan bildirish kechikib olingan hollarda oferta yo‘llagan taraf boshqa tarafga aksept kechikib olinganini darhol bildirib qo‘ymasa, aksept kechikkan hisoblanmaydi.

Agar oferta yo‘llagan taraf boshqa tarafga uning kechikib olingan akseptini qabul qilganini darhol ma’lum qilsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6, 364, 365, 367, 369, 371 — 373, 375-moddalari.

375-modda. Boshqa shartlar asosidagi aksept

Ofertada taklif qilinganidan boshqacha shartlar asosida shartnoma tuzishga rozilik bildirish haqidagi javob aksept hisoblanmaydi. Bunday javob akseptdan bosh tortish va ayni vaqtida yangi oferta hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 6,364, 365, 367, 369, 371 — 374-moddalari.

376-modda. Shartnomaning tuzilgan joyi

Agar shartnomada uning tuzilgan joyi ko'rsatilgan bo'lmasa, shartnoma oferta yo'llagan fuqaroning yashash joyida yoki yuridik shaxsning joylashgan erida tuzilgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 21-moddasi, 46-moddasining uchinchi qismi, 256, 353, 354, 358, 364, 365, 367, 369, 371 — 375-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo'shimcha ma'lumot uchun qarang: Oliy xo'jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi "Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori 4-bandining to'rtinchi xatboshisi.

377-modda. Majburiy tartibda shartnoma tuzish

Ushbu Kodeksga yoki boshqa qonunlarga muvofiq oferta (shartnoma loyihasi) yo'llangan taraf uchun shartnoma tuzish majburiy bo'lgan hollarda bu taraf oferta olingan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida boshqa tarafga aksept to'g'risida yoki akseptdan bosh tortishi to'g'risida yoxud ofertani boshqa shartlarda akseptlashi to'g'risida (shartnoma loyihasiga kelishmovchiliklar bayonnomasi) bildirish yo'llashi kerak.

Oferta yo'llagan hamda shartnoma tuzishi majburiy bo'lgan tarafdan ofertani boshqa shartlarda akseptlash to'g'risida bildirish (shartnoma loyihasiga kelishmovchiliklar bayonnomasi) olgan taraf bunday bildirish olingan yoki aksept uchun muddat tugagan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida shartnoma tuzish chog'ida yuz bergen kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish uchun sudga topshirishga haqli.

Ushbu Kodeksga yoki boshqa qonunlarga muvofiq shartnoma tuzish oferta (shartnoma loyihasi) yo'llagan taraf uchun majburiy bo'lgan va unga o'ttiz kun mobaynida shartnoma loyihasiga kelishmovchiliklar bayonnomasi yuboriladigan hollarda bu taraf kelishmovchiliklar bayonnomasini olgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida boshqa tarafga shartnomani uning tahririda qabul qilishini yoki kelishmovchiliklar bayonnomasini rad etishini bildirishi shart.

Kelishmovchiliklar bayonnomasi rad etilganida yoki uni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi bildirish ko'rsatilgan muddatda olinmaganida kelishmovchiliklar bayonnomasini yo'llagan taraf shartnoma tuzish chog'ida yuz bergen kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish uchun sudga topshirishga haqli.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu moddaning **birinchi, ikkinchi, uchinchi** va **to'rtinchi** qismlarida nazarda tutilgan muddatlar to'g'risidagi qoidalar, agar qonunchilikda boshqa muddatlar belgilangan bo'lmasa yoki taraflar ularni kelishib olgan bo'lmasalar, qo'llaniladi.

(377-moddaning beshinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Agar ushbu Kodeksga yoki boshqa qonunlarga muvofiq shartnoma tuzishi majburiy bo'lgan taraf uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi taraf uni shartnoma tuzishga majbur qilish talabi bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Shartnoma tuzishdan asossiz bo'yin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilgan zararlarni boshqa tarafga to'lashi kerak.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14, 365, 367 — 377-moddalari.

378-modda. Shartnoma oldidan bo‘ladigan nizolar

Shartnoma tuzish chog‘ida yuz bergan kelishmovchiliklar ushbu Kodeksning 377-moddasiga muvofiq qarab chiqish uchun sudga berilgan hollarda shartnomaning taraflar o‘rtasida kelishmovchiliklar chiqishiga sabab bo‘lgan shartlari sud qaroriga muvofiq belgilanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 365, 367 — 377-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunining 17 — 19moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 2-bandining ikkinchi xatboshisi.

379-modda. Kimoshdi savdosida shartnoma tuzish

Agar shartnomaning mazmunidan boshqacha tartib anglashilmasa, u kim oshdi savdosini o‘tkazish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. Shartnoma kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs bilan tuziladi.

Ashyoning mulkdori yoki mulkiy huquq egasi yoxud ixtisoslashgan tashkilot kimoshdi savdosining tashkilotchisi bo‘lishi mumkin. Ixtisoslashgan tashkilot ashayoning mulkdori yoki mulkiy huquq egasi bilan shartnoma tuzish asosida ish olib boradi va ular nomidan yoki o‘z nomidan harakat qiladi.

Ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda ko‘rsatilgan hollarda ashayoni yoki mulkiy huquqni sotish to‘g‘risidagi shartnomalar faqat kimoshdi savdosi o‘tkazish yo‘li bilan tuzilishi mumkin.

Kimoshdi savdosi auksion yoki tanlov shaklida o‘tkaziladi.

Kimoshdi savdosining shakli, agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, sotiladigan ashayoning mulkdori yoki sotiladigan mulkiy huquqning egasi tomonidan belgilanadi.

Faqat bitta ishtirokchi qatnashgan auksion va tanlov o‘tkazilmagan hisoblanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Kodeksning 380 va 381-moddalarida nazarda tutilgan qoidalari, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, sud qarorini ijro etish tartibida o‘tkaziladigan kimoshdi savdosiga nisbatan ham qo‘llaniladi.

(379-moddaning yettinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 55, 281, 380, 381-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonunining 41-moddasi.

380-modda. Kimoshdi savdosini tashkil etish va uni o‘tkazish tartibi

Auksionlar va tanlovlardan ochiq va yopiq bo‘lishi mumkin. Ochiq auksionda va ochiq tanlovda xohlagan shaxs qatnashishi mumkin. Yopiq auksion va yopiq tanlovda shu maqsad uchun maxsus taklif etilgan shaxslargina qatnashadilar.

Agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, tashkilotchi kimoshdi savdosi o‘tkazilishi to‘g‘risida kamida o‘ttiz kun oldin xabar qilishi kerak. Xabarda, har qanday holda ham, kimoshdi savdosining vaqtি, joyi va shakli, kimoshdi savdosiga nima qo‘yilayotgani va uni o‘tkazish tartibi, shu jumladan kim oshdi savdosida qatnashishni rasmiylashtirish to‘g‘risidagi, shuningdek boshlang‘ich narx to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bo‘lishi kerak.

Agar kimoshdi savdosiga faqat shartnomा tuzish huquqi qo‘yilayotgan bo‘lsa, bo‘lajak kimoshdi savdosi to‘g‘risidagi xabarda bunga beriladigan muddat ko‘rsatilishi kerak.

Agar qonunda yoki kimoshdi savdosi o‘tkazilishi haqidagi xabarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, xabar bergan kimoshdi savdosining tashkilotchisi auksion o‘tkazishdan xohlagan vaqtida, lekin u o‘tkaziladigan kundan kamida uch kun oldin, tanlov o‘tkazishdan esa — tanlov o‘tkaziladigan kundan kamida o‘ttiz kun oldin bosh tortishga haqli.

Kimoshdi savdosining tashkilotchisi uni o‘tkazishdan mazkur muddatlarni buzib bosh tortgan hollarda ishtirokchilarning ko‘rgan haqiqiy zararlarini to‘lashi shart.

Yopiq auksion yoki yopiq tanlov tashkilotchisi xabar yuborilganidan keyin aynan qancha muddatda kimoshdi savdosidan bosh tortganligidan qat’i nazar, o‘zi taklif etgan ishtirokchilarning real zararini to‘lashi shart.

Kimoshdi savdosining qatnashchilari kimoshdi savdosi o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarda ko‘rsatilgan miqdorda, muddatlarda va tartibda zakalat puli to‘laydilar. Agar kimoshdi savdosi o‘tkazilmasa, zakalat qaytarib berilishi kerak. Zakalat kimoshdi savdosida qatnashgan, lekin unda g‘olib chiqmagan shaxslarga ham qaytarib beriladi.

Kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs bilan shartnomা tuzishda u to‘lagan zakalat summasi tuzilgan shartnomা bo‘yicha majburiyatlarni bajarishda hisobga olinadi.

Kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs va kimoshdi savdosining tashkilotchisi auksion yoki tanlov o‘tkazilgan kuni kim oshdi savdosining natijalari to‘g‘risida bayonnomा imzolaydilar, bu bayonnomা shartnomা kuchiga ega bo‘ladi. Kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortsa, to‘lagan zakalatidan mahrum bo‘ladi. Bayonnomani imzolashdan bosh tortgan kimoshdi savdosining tashkilotchisi zakalatni ikki hissa qilib qaytarishi, shuningdek kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxsga kimoshdi savdosida qatnashish tufayli o‘ziga yetkazilgan zararning zakalat pulidan ortiq bo‘lgan qismini to‘lashi shart.



LexUZ sharhi

Qarang: O‘zbekiston Respublikasining “Ipoteka to‘g‘risida”gi Qonunining 41-moddasisakkizinchi qismi.

Agar kimoshdi savdosiga faqat shartnomা tuzish huquqi qo‘yilgan bo‘lsa, bunday shartnomani taraflar kimoshdi savdosi tamom bo‘lganidan hamda bayonnomা rasmiylashtirilganidan keyin kechi bilan yigirma kunda yoki xabarda e’lon qilingan boshqa muddatda imzolashlari kerak. Ulardan biri shartnomা tuzishdan bosh tortgan taqdirda, ikkinchi taraf sudga murojaat qilib, shartnomা tuzishga majbur etishni, shuningdek uni tuzishdan bosh tortish natijasida yetkazilgan zararni to‘lashni talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 55, 281, 311, 379, 381-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.2001-yildagi “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunining 56-moddasi o‘ninchi xatboshisi.

381-modda. Kimoshdi savdosini o‘tkazish qoidalarini buzish oqibatlari

Qonunda belgilangan qoidalar buzib o‘tkazilgan kimoshdi savdosi manfaatdor shaxs talabi bilan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Kimoshdi savdosini haqiqiy emas deb topish kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs bilan tuzilgan shartnomaning haqiqiy emasligiga sababchi bo‘ladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 55, 281, 311, 379, 380-moddalari.

28-BOB

SHARTNOMANI O‘ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

382-modda. Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish asoslari

Agar ushbu Kodeksda, boshqa qonunlarda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

1) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzzsa;

2) ushbu Kodeks, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o‘zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani bajarishdan to‘la yoki qisman bosh tortib, qonun yohud taraflarning kelishuvida bunga yo‘l qo‘yilsa, shartnoma tegishlich va bekor qilingan yoki o‘zgartirilgan hisoblanadi.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353, 354, 357, 364, 367, 370, 377, 383 — 385-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuning 2, 10 — 16-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksining 66-moddasiningbirinchi qismi.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy sudi Plenumining 02.05.1997-yildagi “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-son qarorining 9-band, Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 18-bandining uchinchi — oltinchi xatboshilar, 25, 26-bandlari.



LexUZ sharhi

383-modda. Vaziyat jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish

Shartnoma tuzishda taraflar uchun asos bo‘lgan vaziyatning jiddiy o‘zgarishi, agar boshqacha tartib shartnomada nazarda tutilgan bo‘lmasa yoki uning mohiyatidan anglashilmasa, shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

Vaziyatning taraflar oldindan ko‘ra bilganlarida shartnomani umuman tuzmasliklari yoki ancha farq qiladigan shartlar bilan tuzishlari mumkin bo‘lgan darajada o‘zgarishi uning jiddiy o‘zgarishi hisoblanadi.

Agar taraflar shartnomani jiddiy o‘zgargan vaziyatga muvofiqlashtirish yoki uni bekor qilish haqida kelisha olmagan bo‘lsalar, shartnomada manfaatdor tarafning talabi bilan sud tomonidan bekor qilinishi, ushbu moddaning **beshinchi qismida** nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra esa — o‘zgartirilishi mumkin, agar ayni vaqtida quyidagi shartlar mavjud bo‘lsa:

1) shartnomani tuzish paytida taraflar vaziyatda bunday o‘zgarish yuz bermaydi, deb hisoblagan bo‘lsalar;

2) vaziyatning o‘zgarishini keltirib chiqargan sabablarni, ular paydo bo‘lganidan keyin manfaatdor taraf shartnomaning xususiyatiga va muomala shartlariga ko‘ra o‘zidan talab qilinadigan darajada vijdoniylik va ehtiyyotkorlik qilgan bo‘lishiga qaramay, bu sabablarni yenga olmagan bo‘lsa;

3) shartnomani uning shartlarini o‘zgartirmasdan bajarish taraflar mulkiy manfaatlarining shartnomaga mos keladigan nisbatini buzsa va manfaatdor tarafga zarar yetkazsa, natijada ular shartnomada umid qilishga haqli bo‘lgan narsadan ko‘p darajada mahrum bo‘lsalar;

4) ish muomalasi odatlaridan yoki shartnomaning mohiyatidan vaziyatning o‘zgarishi xavfiga manfaatdor taraf uchrashi kerakligi anglashilmasa.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi oqibatida shartnomada bekor qilinganida sud har qanday taraf talabi bilan shartnomani bekor qilish oqibatlarini aniqlashda taraflarning ushbu shartnomani bajarish bilan bog‘liq xarajatlarini ular o‘rtasida adolatli taqsimlash zarurligiga asoslanadi.

Vaziyatning jiddiy o‘zgarishi munosabati bilan shartnomaning o‘zgartirilishiga shartnomani bekor qilish ijtimoiy manfaatlarga zid bo‘lgan yoki taraflarga shartnomani sud tomonidan o‘zgartirilgan shartlar asosida bajarish uchun talab qilinadigan xarajatlardan ancha ortiq zarar keltiradigan favqulodda hollarda sud qarori bilan yo‘l qo‘yiladi.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353, 354, 357, 364, 367, 370, 377, 382, 384, 385-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘srimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy sudi Plenumining 02.05.1997-yildagi “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ularidan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-son qarorining 9-band, Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori 18-bandining uchinchi — oltinchi xatboshilarini, 20-band.

384-modda. Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilish tartibi

Oldingi tahririga qarang.

Shartnomada qanday shaklda tuzilgan bo‘lsa, uni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv ham shunday shaklda tuziladi, basharti qonunchilikdan, shartnomada yoki ish muomalasi odatlaridan boshqacha tartib kelib chiqmasa.

(384-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Bir taraf shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko‘rsatilgan yoxud qonunda yoinki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo‘lmaganida esa — o‘ttiz kunlik muddatda javob

olmaganidan keyin, shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.



LexUZ sharhi

Qarang: sud amaliyoti.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 353, 354, 357, 364, 366, 367, 370, 377, 382, 383, 385-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunining 2, 10 — 16,36-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy sudi Plenumining 02.05.1997-yildagi “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-son qarorining 9-band, Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 19-band.

385-modda. Shartnomani o‘zgartirish va bekor qilishning oqibatlari

Shartnomani o‘zgartirilganida taraflarning majburiyatlarini o‘zgartirilgan holda saqlanib qoladi.

Shartnomani bekor qilinganida taraflarning majburiyatlarini bekor bo‘ladi.

Shartnomani o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan taqdirda, agar kelishuvdan yoki shartnomani o‘zgartirish xususiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, taraflar shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilishga kelishgan paytdan boshlab, shartnomani sud tartibida o‘zgartirilgan yoki bekor qilinganida esa — sudning shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi qarori qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab majburiyatlar o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

Agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, taraflar shartnomani o‘zgartirilguncha yoki bekor qilinguncha majburiyat bo‘yicha o‘zlarini bajargan narsalarni qaytarib berishni talab qilishga haqli emaslar.

Agar shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilishga taraflardan birining shartnomani jiddiy buzishi asos bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi taraf shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish tufayli yetkazilgan zararni to‘lashni talab qilishga haqli.



LexUZ sharhi

Qarang: mazkur Kodeksning 14-moddasi, 234-moddasi ikkinchi qismi, 235-moddasi uchinchi qismi, 237, 242, 353, 354, 357, 364, 366, 367, 370, 377, 382 — 384-moddalari.



LexUZ sharhi

Qo‘sishimcha ma’lumot uchun qarang: Oliy sudi Plenumining 02.05.1997-yildagi “Xususiylashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi 3-son qarorining 9-band, Oliy xo‘jalik sudi Plenumining 18.12.2009-yildagi “Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi fuqarolik qonun hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorining 22 — 24-band.

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova; 1997-y., 2-son, 56-modda; 1998-y., 5-6-son, 102-modda; 1999-y., 1-son, 20-modda; 9-son, 229-modda; 2001-y., 1-2-son, 23-modda; 2003-y., 5-son, 67-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 37-son, 408-modda; 2006-y., 14-son, 110-modda; 39-son, 385-modda; 2007-y., 1-2-son, 3-

modda; 3-son, 21-modda; 14-son, 132-modda; 15-son, 154-modda; 31-32-son, 315-modda; 50-51-son, 506-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; 2010-y., 37-son, 315-modda, 38-son, 328-modda; 2011-y., 51-son, 542-modda; 2014-y., 20-son, 222-modda, 50-son, 588-modda; 2015-y., 33-son, 439-modda; 2016-y., 17-son, 173-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.12.2017-y., 03/18/455/0492-son, 10.01.2018-y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; 05.03.2019-y., 03/19/526/2701-son, 21.03.2019-y., 03/19/531/2799-son, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 23.10.2019-y., 03/19/572/3943-son, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son, 12.12.2019-y., 03/19/592/4144-son; 15.01.2020-y., 03/20/602/0052-son; 23.01.2020-y., 03/20/603/0071-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)